


U.E.RAXMATOV

# BIOLOGIYADAN MASALA VA MASHQLAR YECHISH (SITOLOGIYA VA GENETIKA ASOSLARI)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI


NIZOMIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

U.E.Raxmatov

# BIOLOGIYADAN MASALA VA MASHQLAR YECHISH

(SITOLOGIYA VA GENETIKA  
ASOSLARI)

(o'quv qo'llanma)



Toshkent  
“Tafakkur avlod”  
2020

**UO•K: 574/577(076.1)**

**KBK 28.0v6**

**R 30**

**Biologiyadan masala va mashqlar yechish** (sitologiya va genetika asoslari) [Matn]: o'quv qo'llanma / U.E.Raxmatov. – Toshkent: «Tafakkur avlodi», 2020. - 272 b.

Biologiyadan masala va mashqlar yechish (Sitologiya va genetika asoslari) o'quv qo'llanmasi umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya fani o'qituvchilari uchun mo'ljallagan bo'lib, unda biologik ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassisga qo'yiladigan talablar, umumta'lim maktablarining biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentliliginini takomillashirish borasida masala va mashqlardan foydalanishning ahamiyatli tomonlari metodik jihatidan yoritib berilgan.

Mazkur o'quv qo'llanmaning o'ziga xos jihat shundan iboratki, biologiyaning turli bo'limlari (organik olam haqida ma'lumot, hujayra haqidagi ta'lilot, hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari, moddalar almashinuvি-metabolizm, organizmlarning individual rivojlanishi-ontogenezi va boshqalar) dan masalalarning yechish usullari va mashqlarni bajarish yo'llari, nostonart test topshiriqlari tuzish hamda yechish metodikasi bilan bir qatorda mustaqil bajarish uchun qiyinchilik darajasi turliha bo'lgan masala-mashqlami o'z ichiga olgan.

Qo'llanmadagi ma'lumotlar muallifning biologiyadan olib borgan ko'p yillik tajribasi va ilmiy-ommabop adabiyotlardan foydalanilgan holda berilgan. O'quv qo'llanma umumta'lim maktablarining o'quvchilari, oily ta'lim muassasalarining talabalari, magistrleri va akademik litsey, kasb-hunar kolleji hamda umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya fani o'qituvchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

*O'quv qo'llanma Respublika ta'lim markazi huzuridagi Biologiya fani bo'yicha Ilmiy-metodik kengashning 2019 yil 20 dekabrdagi 5-sonli qarori bilan nashrga tavsiya etildi.*

## **TAQRIZCHILAR:**

**I.T.Azimov**

Biologiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

**D.A. Mamatqulov**

Maxsus pedagogika fakulteti dekani, biologiya fanlari nomzodi, professor.

**G.O.Tog'aeva**

Toshkent shahar HXTXQTUMOHM "Tabiiy va aniq fanlar ta'limi" kafedrasi katta o'qituvchisi

**O.Ikrromov**

Toshkent shahar Shayxontoxur tumanidagi 102-maktabining oliy toifali biologiya fani o'qituvchisi.

**ISBN 978-9943-6119-7-9**

© “Tafakkur avlodi”, 2020

© U.E.Raxmatov

## KIRISH

Dunyo miqiyosida amalga oshirilayotgan islohatlar zamirida, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida ta'lim sifatini tubdan isloh qilish va shu asnoda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash hamda barkamol avlodni voyaga yetkazish muhim strategik yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Uzluksiz ta'lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish, o'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichmabosqich tatbiq etish, xalq ta'limi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarini joriy etish"<sup>1</sup> va shuningdek "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"<sup>2</sup> da davlat tomonidan yoshlar bilan ishlash siyosatini takomillashtirish, intelektual rivojlangan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va uni baholash mezonlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, barcha fanlarni shu jumladan biologik fanlarini chuqur o'rganish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan.

Qolaversa, mamlakatimizda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan yangi davlat ta'lim standartlarining joriy etilishi, 2017-2018 - o'quv yilidan maktablarda 11 yillik ta'limning tashkil etilishi o'z navbatida, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'qituvchilarining kasbiy kopetentliligini takomillashtirishga bo'lgan yangi ehtiyojlarini keltirib chiqardi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan qator vazifalarni hal etishda respublikamiz ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan kadrlarning kasb darajasi va malakasi, kasbiy pedagogik kompetentliligini zamon talablariga mos hamda uzluksiz ravishda takomillashtirish dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevral-dagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni, 2017 yil 26

<sup>1</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги «Ўзбекистон Республикаси халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида»ги ПФ-5712-сонли Фармони-Конун ҳужжатлари маълумотлари

<sup>2</sup> Узбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «2017-2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида» ги Фармони. // Ўзбекистон Республикаси конун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2017. № 6. 70-модда

sentabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3289-sonli Qarori, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagи “Umumiy o‘rtta ta’lim to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarori, 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rtta va o‘rtta maxsus, kasbhunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarorilarida zamonaviy talablar asosida o‘qituvchilarni malakasini oshirish jarayonlarining mazmunim takomillashtirish hamda ularning kasbiy kompetentliligini uzuksiz oshirib borishi ta’kidlangan.

Mazkur qo‘llamani yozishdan asosiy maqsad, biologiya (sitologiya va genetika asoslari) o‘quv dasturida berilgan materialni chuqur o‘zlashtirish, o‘quvchilarni o‘qishga o‘rgatish, bilish faoliyatini faollashtirishga yordam berishdir.

O‘quvchilarning ta’lim olish jarayonidagi bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish, berilgan savol va topshiriqlar asosida uzviy ravishda o‘z - o‘zini shug‘llantirish, tabiiy obyektlar ustida kuzatish va tajribalar qo‘yish orqali mustaqil bilim olish imkoniga ega bo‘lish bilan birga bilimlarnini to‘ldirish va sifatlari o‘zlashtirish imkoniga turli xil adabiyotlarni o‘qish orqali ega bo‘lib boradilar.

Biologik ta’lim-tarbiya jarayonini izchil va ketma-ket o‘zlashtirishga yordam berish maqsadida biologiya darslarida masala va mashqlardan foydalanishni tavsiya etilmoqda. Umumiy o‘rtta matabning 9-sinf darsligida masala va nostandart topshiriq, mashqlardan foydalanish dars davomida bilish jarayonini rivojlantirish, biologiyaga bo‘lgan o‘quvchilarning qiziqishlarini rivojlantirish va ekologik tarbiyaning shakllantirishga yo‘naltirilgan.

O‘quvchilar uchun kompleks holda beriladigan masala, mashq va topshiriqlar o‘z ichiga biologiya kurslari bilan bog‘liq bo‘lgan bilimlarni qo‘llash imkonini beradigan, biologiyadan o‘quv materiali mazmuniga mos keladigan ma‘lumotlarni qamrab olgan.

Umumta’lim maktablarining 9-sinf o‘quvchilari uchun biologiyadan qo‘llaniladigan masala va mashqlar umumbiologik bilimlarni, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yaratishga, sog‘liqni saqlashga, tabiat muhofazasiga ongli munosabatda bo‘lishga, ilmiy bilimlarni izchil amalga oshirishga va o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantirishga qaratilgandir.

Eng asosiy e’tibor o‘quvchilarning aqliy va mantiqiy fikrashlarini, shuningdek ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish va kengaytirishga qara-

tilgan. Ayrim ma'lumotlar masalan: turli xil savol, topshiriqlar, biologik obyektlarni aniqlash, o'simlik, hayvon, mikroorganizmlar tashqi, ichki tuzilishini va hatto ularning hujayraviy tuzilishini o'rganish, rasm hamda sxemalarni chizishga doir topshiriqlar dastlab organik olamning xilmashxilligi haqidagi dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lishi shu asnoda o'quvchilarda kompetensiyaviy yondashuvni vujudga kelishiga sabab bo'ladi.

Turli savollarga javob berish, masala va mashqlar yechish, topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilarni dasturda berilgan xususiy hamda umumbiologik tushunchalarni kengroq o'zlashtirishga, biologik nazariya va fikrlarga ega bo'lishga, o'z fikrini to'g'riligini isbotlash, topqirlik, tezkorlik, o'zaro hurmat, tabiat va mehnatga muhabbat, tirik organizmlarning xilmashxilligi haqidagi bilimlarni o'rganishlari asosida turli kasblarga qiziqishi ortib boradi.

O'quv fanini o'zlashtirilganlik darajasi nafaqat nazariy bilimlar bilan balki olingen bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llay olish orqali ham belgilanadi. O'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar biz o'quvchilardan ko'p talab qiladigan biologik atamalar miqdori bilan belgilanmaydi, balki ularni muammoli vaziyatlarda qo'llay olishi ham hisoblanadi.

Biologiya o'quv fanida ham matematika, fizika, kimyo fanlari kabi darsliklar bilan bir qatorda masala va mashqlar to'plamlarining bo'lishi o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu fikr esa pedagogik jamoa tomonidan ham qo'llab quvvatlanadi. Hozirgi vaqtida biologiya o'qituvchilari uchun masala va mashqlar bo'yicha A.T.G'ofurov, S.S.Fayzullaev, U.E.Raxmatovlarning "Genetikadan masala va mashqlar" o'quv qo'llanmasi, Almatov va boshqalar tomonidan chop etilgan "Genetikadan masalalar" kabi qo'llanmalar mavjud. Olimlar tomonidan chop etilgan bu qo'llanmalar biologiya o'quv fanining barcha tarmoqlariga doir masala va mashqlarni qamrab olmaydi balki biologiya o'quv fanining bir tarmog'i bo'lgan genetika asoslari tushunchalarini o'zida aks ettirgan.

Bu qo'llanmaning o'ziga xosligi shundan iboratki, birinchidan o'qituvchilar va pedagogika oliy o'quv yurtlarining biologiya yo'nalishi talabalarini biologiya o'quv fanining asosiy bo'limlari (organik olam haqida ma'lumot, hujayra haqidagi ta'limot, hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslari, moddalar almashinuvni-metabolizm, organizmlarning individual rivojlanishi-ontogenez va boshqalar) dan har xil tipdagi masalalar va ularning ishslash metodikasi bilan tanishtirish, ikkinchidan

o'qituvchilar uchun o'quvchilar bilan ishslash jarayonida foydalanish mumkin bo'lgan qator masalalarni taklif etishdir.

Ushbu o'quv qo'llanmada biologiyadan turli hisoblashga doir, eksperimental xususiyatiga ega bo'lgan masala va mashqlar keltirilgan. Qo'llanmada keltirilgan masala va mashqlar ayni vaqtida qo'llanilayotgan o'quv dasturi va ishchi dasturiga mos ravishda ishlab chiqilgan. Biologiyaning turli yo'nalishlaridan keltirilgan masalalar yechimi biologik qonuniyatlarini, tabiat inomlaridan to'g'ri foydalanish, alohida hayvon va o'simliklarning biologiyasi hamda ekologiyasini o'ziga xos tomonlarini chuqur o'rghanish imkonini beradi. Shuningdek qo'llanmada masalalar sharti, ishslash usullari, yechimlari qisqa holda bayon etilgan va metodik ko'rsatmalar berilgan. Biologiyadan masalalar yechish o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiyligi fikrlashlarini, barcha biologiya kursidan olgan bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirish imkonini beradi.

Biologiyadan masalalar yecha olish – umumiy o'rta maktab o'qituvchilari va o'quvchilarining amaliy hayotda zarur bo'ladigan eng muhim kompetensiyalaridan biridir. Ba'zan biologik masalalar degan so'zdan, asosan genetika mavzulari bo'yicha yechiladigan masalalar tushuniladi. To'g'ri genetik masalalar biologiya o'qitish jarayonida test topshirishlarini tuzishda ancha qulay va genetika o'qitish jarayonida muhim ahamiyatga ega - hayotda ham shunday masalalarga duch kelinadi. Ammo biologiyaga oid masalalar - biologik tushunchalar, nazariyalar, qonun, qoidalarni mohiyatini ochib beradigan masalalar ham katta amaliy ahamiyatga ega. Bu masalalar o'qituvchining o'quvchilar nazariy tayyorlarligi darajasini ancha oson bilish, o'simlik va hayvonot olami haqidagi tasavvurlarini chuqurlashtirishi, nazariy bilimlarni amaliyatga tatbiq etishi, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, o'quvchilarda biologik tafakkurni shakllantirish uchun asos bo'ladi.

O'qituvchilar o'quvchilarga biologiyadan masalalarni ayrim darslarda emas balki izchillilik asosida butun biologiya kursini o'qitish davomida aniq ma'lum tartibda ishlab borgan taqdirdagina biologiyadan masala yechish kompetensiyalariga atroficha ega bo'lib boradilar. Dars jarayonida biologik masala va mashqlarni qo'llash natijasida dastlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining biologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetentliligi takomillashib boradi hamda o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalashga erishadi.

## BIOLOGIK TA'LIMDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV

Hozirgi vaqtda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash borasida har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Shu o'rinda bir necha savollarga duch bo'lamiz. Kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik qanday holatlarda namoyon bo'ladi? Kasbiy kompetentlik va uning tarkibiy asoslari nimalardan tarkib topgan? Pedagok kasbiy kompetentlikni shakllantirishda qanday omillar muhim sanaladi? Ayni o'rinda bu savollarga qisqacha to'xtalsak.

"Kompetentlik" (ingl. "competence" – "qobiliyat") – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olishdir. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik ilmiy izlanishlar natijasida kirib kelgan. Psixologik nuqtai nazardan kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi.

Kasbiy kompetentlik esa – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir.<sup>3</sup>

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishslash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

*Kasbiy kompetentlik quydagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi:*

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid ma'lumotlardan foydalanishda;


<sup>3</sup> Н.Муслимов, М.Усмонбоеva, Д.Сайфуров, А.Тўраев. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув-методик кўлланма. Тошкент-“Sano-standart” МЧЖ босмахонаси. 2015 й.-4-5 б.

- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo'la olishda.

*Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis:*

- o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari A.K. Markova tomonidan o'rganilgan. O'zbekiston sharoitida ham pedagogga xos kasbiy kompetentlik, uning o'ziga xos jihatlari o'rganilgan bo'lib, ular orasida B.Nazarova tomonidan olib borilgan tadqiqot o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, pedagogga xos kasbiy kompetentlik negizida quyidagi tarkibiy asoslar farqlanadi.



*Pedagogik kompetentlikning muhim tarkibiy asoslari (B.Nazarova)*

Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonni samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishi, o'zini o'zi tahlil qila olishi, o'zini-o'zi baholashi muhim sanaladi<sup>4</sup>.

Umumiy o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilari kasbiy kompetentligida ko'zga tashlanadigan muammolarning yuzaga kelishlariga ko'pgina omillar sabab bo'lmoqda. Bu muammolarni dolzarblari bilan

<sup>4</sup> Н.Муслимов, М.Усмонбоева, Д.Сайфуров, А.Тўраев. Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. Ўқув-методик қўлланма. Тошкент-“Sano-standart” МЧЖ босмахонаси .2015 й. -8-16- 6

umumta'lim mакtablarida o'qитиладиган "Biologiya" o'quv fani misolida ko'rishimiz mumkin.

- bilimlarini izchil ravishda boyitib bormasligi, yangi axborotlarni o'рганишларining sustligi;
- internet tizimidan yetarlicha foydalanmasliklari;
- o'quvchilar uchun mo'ljallangan darslikdagi bilimlar bilan chegaralanib qolishlari;
- fandagi yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay olmasliklari;
- laboratoriya va amaliy mashg'ulotlarni samarali tashkil etilmasligi;
- o'qitish jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalardan uygun ravishda foydalanmasligi;
- genetikadan masalalar yechish metodikasining to'liq shakllanmaganligi;
- biologik masalalar yechish kompetensiyalarini yetarlicha takomilashmaganligi kabilarni ta'kidlash joizdir.

Shu o'rinda ta'limiy kompetensiyalar haqida qisqacha ma'lumot berib otlishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

*Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim* – o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Inson o'z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'mini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimmi o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan *tayanch kompetensiyalarga* ega bo'lishi lozim.

Bundan tashqari, ta'limda har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib

chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakl-lantiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzlucksizligi, barkamol shaxsnii tarbiyalashga yo'naltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida o'qitiladigan umumiy o'rta ta'lim fanlari mazmunining izchilligini ta'minlash maqsadida tayanch kompetensiyalar hamda har bir o'quv fani mazmunitidan kelib chiqqan holda xususiy kompetensiyalar belgilandi.

### *Biologiya o'quv fani bo'yicha tayanch kompetensiyalar:*

#### *I.Kommunikativ kompetensiya*

❖ jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;

❖ o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;

❖ ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;

❖ muloqotda suhabatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilih, uni ishontira bilish;

❖ turli ziddiyatlari vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish;

Masalan: 6-sinf Botanika fanidan "Gul" mavzusini o'rganishda o'quvchi biologiya faniga oid ilmiy (lotincha) atama va tushunchalarning mazmuni bilan tanishadilar. O'simliklarni guliga qarab oilalarini bir-biridan farqlay olishni o'rganadilar. Olma, gilos, o'rik, olxo'ri gulining modellari, na'matak, lola, makkajo'xori, g'o'za gullari aks ettirilgan jadvallar, slaydlar maketlar, xona o'simliklarining gullashi yordamida kuzatadilar va gul tuzilishi va gul formulasini aniqlaydilar. Xilma-xil to'pgullar va gerbariylar bilan ishlaydilar.

#### *II.Axborot bilan ishlash kompetensiyasi*

❖ mavjud axborot manbalaridan (internet, televizor, radio (audio-video yozuv), telefon, kompyuter, elektron pochta va boshq.) foydalana olish;

❖ media vositalardan zarur bo'lgan axborotlarni izlab topa olish, saralash, qayta ishlash, uzatish, saqlash, xavfsizligini ta'minlash va foydalanishda media-madaniyatga rioxalish;

❖ ma'lumotlar bazasini yarata olish, asosiyalarini tanlay olish va ularni tahlil qila bilish;

❖ kundalik faoliyatda uchraydigan hujjatlar bilan ishlay olish (oddiy tabriknomalar yoza olish, anketalarni to'ldirish, mehmonxona ro'yxatida o'zi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayd eta olishi va boshq.)

Masalan: 9-sinf Biologiya fanidan "Hayvon va o'simlik seleksiyasi asoslari" mavzusini o'rghanishda o'quvchilar jahon va O'zbekistonning biolog olimlarining paxtachilik sohasida olib borgan ishlari, asarlari bilan tanishadilar. Darslikdan, o'quv qo'llanmalar, xilma-xil gazeta va jurnallar, qo'shimcha adabiyotlar, lug'atlar, o'simliklar aniqlagichlari, internet resurslaridan biologiya va ekologiya sohasidagi zamonaviy yutuqlar to'g'risida ma'lumotlardan foydalananadilar.

#### *III. Shaxs sifatida o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi:*

❖ shaxs sifatida doimiy ravishda o'z-o'zini rivojlantirish, jismoniy, ma'naviy, ruhiy va intellektual kamolotga intilish;

❖ hayot davomida o'qib-o'rghanish, bilim, tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish;

❖ o'z hatti-harakatini adekvat baholash, o'zini nazorat qila bilish, halollik, to'g'rilik kabi sifatlarga ega bo'lish;

❖ o'qib-o'rganganlari va hayot tajribasidan foydalangan holda kundalik turmushda uchraydigan muammolarni hal eta olish.

Masalan: 6-sinf Botanika fanidan "Mevalarning tabiatda va inson hayotidagi ahamiyati" mavzusini o'rghanish jarayonida o'quvchilar odamlar bilan o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilgan holda, o'zi yashab turgan hududda o'sayotgan o'simliklar (mevali va manzarali) ularni o'stirish, parvarish qilishdan maqsad nima ekanligini o'rGANADILAR.

#### *IV. Ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasi*

❖ Jamiyatda bo'layotgan voqealarni, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va faol ishtirop etish;

❖ o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilishi, unga rioxalish (ya'ni xaridor, saylovchi, mijoz, ishlab chiqaruvchi sifatida faoliyat yurita olish);

❖ mehnat va fuqarolik munosabatlarda muomala, iqtisodiy, huquqiy madaniyatga ega bo‘lish;

❖ kasbiy mavqeining o‘sishiga intilish bilan jamiyat va oilasi manfaatlari uchun xizmat qilish, yordamga muhtojlarga saxovatli bo‘lish.

Masalan: 9-sinf Biologiya fanida “Fotosintez” mavzusini o‘rganish jarayorida o‘simliklar olami tufayli kislrorod bilan ta’minlanadi. O‘simliklarning fotosintez jarayoni Yer yuzida quyosh energiyasini organik birikmalarning kimyoviy energiyasiga aylantiruvchi bordanbir vosita hisoblanadi. Bu jarayonda tirik organizmlar hayoti uchun zarur bo‘lgan kislrorod ajralib chiqadi.

#### *V.Umummadaniy kompetensiyalar*

❖ Vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e’tiqodli bo‘lish;

❖ badiiy va san’at asarlarini tushunish, ta’sirlana olish;

❖ orasta kiyinish, yurish-turishda madaniy meyorlarga va sog‘lom turmush tarziga amal qilish, umumbashariy ahamiyatga ega bo‘lgan qadriyatlarni (urf odatlar, marosimlar, milliy-madaniy an‘analar va h.k.) bilish, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

❖ o‘zgalarga nisbatan mehr-muruvvat, saxiylik, o‘zgalarning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik hususiyatlari, an‘ana va marosimlarini hurmat qilish;

❖ xalqining tarixiy, ma’nnaviy va madaniy merosini avaylab asrash, jamiyatda o‘rnatilgan odob-axloq qoidalariiga rioya qilish.

#### *VI. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyasi:*

❖ aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish;

❖ shaxsiy, ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarda hisob-kitob bilan ish yuritish;

❖ kundalik faoliyatda turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarini o‘qiy olish va foydalanish;

❖ inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumidorligini oshiradigan va qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalana olish.

*Biologiya o'quv fani bo'yicha xususiy kompetensiyalar:*

*I. Biologik jarayon, hodisalarни kuzatish, tushunish va tushuntirish.*

❖ Tabiat va unga xos bo'lgan biologik jarayonlar-o'simliklarning o'sishini kuzatish, ularni tagini yumshatish, o'g'itlash, tirik organizmlarning tuzilishi, faoliyati va tashqi muhitdagi rolini tushunish, biologik jarayonlar to'g'risida aniq tasavvur qilish va anglash layoqatini hosil qilish. Biologik jarayon, hodisalarни kuzatish va tushuntirish.

Masalan: Novda, kurtak, poyaning ichki tuzilishi, o'simliklar ildizi, poyasi, bargining o'sish jarayonlari bo'yicha kuzatishlar o'tkazish;

– gul uning tuzilishi, xillari, to'pgullarni tabiatda kuzatib, ularni farqlay olish; o'simliklarning gul tuzilishiga ko'ra sistematik o'rmini aniqlay olish;

– hayvon organizmining tuzilishi, hayvonlar klassifikatsiyasi;

– odamning sihat-salomatligi har bir odam va jamiyat uchun ahamiyatli ekanligi, odam va uning salomatligi, odam anatomiyasi, fiziologygasi va gigiyenasi fanini tushuntira olish;

– sitologiya-hujayra haqidagi fan ekanligi;

– hujayra tiriklik tuzilishi, funksiyasi va rivojlanishining eng kichik birligi ekanligini bilish va tushuntirish.

*II. Ekologik madaniyat.* Tabiat qonunlarini yaxshi bilish, amalda tatbiq etish, yoshlarni ekologik madaniyat ruhida tarbiyalash, salomatlik, suv, biologik xilma-xillik, atrof-muhit tozaligini, sog'liqlikni mustahkamligini, turmush farovonligini, tabiiy va antropogen ofatlar, chiqindi muammolarini o'rganish va ularni bartaraf etishda o'z hissasini qo'shishga o'rgatish asosida ekologik madaniyatni shakllantirish. Tabiatni qadrlash va unga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lish, o'z sog'ligi va boshqa insonlarning sog'ligini qadrlash, tabiatda o'zini tutish, o'simlik va hayvonlarni muhofaza qilishga o'rgatish.

Masalan: o'simlik va hayvonlarning tabiatdagi va inson hayotidagi ahamiyatini bilish, "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simlik va hayvon turlarini himoya qilish;

– organizmlar, turlar, tabiiy sistemalarga nisbatan ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishning zarurligini bilish va unga amal qilish;

– hujayra organoidlarining tarkibini bilgan holda to'g'ri ovqatlanishga e'tibor berish; sog'lom turmush tarzini olib borishga erishish;

– mehnat va dam olishni to‘g’ri tashkil qilish, sport bilan muntazam shug‘ullanish;

– o‘z organizmiga nisbatan talabchan bo‘lish, tozalik, gigiyena qoidalariga rioya qilish;

– tabiatni qadrlash va muhofaza qilish tarbiyasini shakllantirish.

*III.Tajribalarni o‘tkazish uchun zarur jihozlar bilan ishlay olish.* Biologiyaning asosiy tushuncha va qonuniyatlarini tushuntirishda havfsizlik qoidalari, kimyoviy moddalar, jihozlardan foydalanish hamda ular yordamida mavzularga oid bo‘lgan oddiy tajribalar o‘tkazish layoqatini hosil qilish.

Masalan: kattalashtirib ko‘rsatuvchi asboblar mikroskop, lupa hamda kodoskop, multimedia vositalari, kompyuter va virtual laboratoriya jihozlarini tuzilishi, ularni ishlatilishini bilish;

– kattalashtirib ko‘rsatuvchi asboblardan foydalanib o‘simplik hujayralari va to‘qimalarini ko‘rish;

– hujayraning xilma-xilligini va hayot faoliyatini mikroskop yordamida kuzatib izoh berish; novda, kurtak, poyani ichki va tashqi tuzilishi, o‘sishi;

– poyada oziq moddalar va suv harakati;

– bargning tuzilishi, xillari va shakkari, nafas olishi, organik moddalarning hosil bo‘lishi, suv bug‘lantirishiga oid tajribalarni o‘tkaza olishi, gerbariy tayyorlashni bilish;

– tablitsa va plakatlar yordamida hayvonlarning hujayralari, to‘qimalar, organ va organlar sistemasi to‘g’risida tushunchalarga ega bo‘lib, kuzatishlar olib bora bilish;

– hayvonlarning ahamiyatini bilgan holda foydali hayvonlarni ko‘paytirish yo‘llarini bilish;

– hujayraning shakli, tuzilishi, to‘qimalar epitelial (qoplovchi), biriktiruvchi, muskul va nerv to‘qimalari ustida kuzatish va tajribalar o‘tkazish;

– jismoniy mehnat va sportning inson organizmiga ko‘rsatadigan ijobjiy ta’sirini ko‘rsata bilish;

– biologik obyektlar (o‘simplik va hayvonlar, insonlar) ovqat hazm qilish sistemasi bo‘yicha kuzatish, tajribalar o‘tkazish, tahlil qilish;

– qo‘sishmcha adabiyotlar bilan ishlash, genetikadan magnitli doska yordamida masalalar ishlay bilish.

#### *IV. Biologiyadan olgan bilimlarini amaliyotda qo'llash.*

❖ O'rganilgan bilim va ko'nikmalarni kundalik amaliy hayotda qo'llay olish. Nazariy bilimlarni mustahkamlash uchun o'simliklarni parvarishlash, o'g'itlash, shakl berish, o'simliklarni muhofaza qilish, test topshiriqlarini bajarish, sog'lom turmush tarziga oid mashg'u-lotlarni bilish, kundalik iste'mol mahsulotlarning foydali va zararli tomonlarini farqlash.

Masalan: madaniy o'simliklarni, foydali hayvonlarni parvarish qilish va ko'paytirish;

– g'o'zani chilpish hosildorlikni oshirishga ta'sir qilishi, piyozboshli o'simliklarni ko'paytirish yo'llari haqidagi ma'lumotlardan foydalanib, ularni kundalik turmush jarayonida qo'llay olish;

– o'z organizmining tuzilishini bilish, tozalik, gigiyena qoidalariga rioxva qilish;

– shaxsiy gigiyena, to'g'ri ovqatlanish, jismoniy tarbiya qoidalarini bilish;

– ekologik muhitga ijobiy munosabatda bo'lish;

– kasalliklarning kelib chiqishini o'rganish orqali bilimlarni rivojlantirish;

– mehnat va dam olishni to'g'ri tashkil qilish, sport bilan muntazam shug'ullanish.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma, malakalarini va kompetentlik darajalarini shakllantirish bo'yicha biologiya ta'lim maqsadlarini aniqroq va yaqqolroq belgilovchi quyidagilarni tayanch tushunchalar sifatida berildi:

*Bilish* – o'rganilayotgan biror bir biologik obyektning va mavazu materialini bilib olish, esda saqlash, tabiat va inson hayotidagi ahamiyatini idrok etish, biologik ma'lumotlarni tushunganlik darajasini namoyish etish.

*Tushunish, idrok etish* – o'rganilgan bakteriya, zamburug', o'simlik va hayvonlarni biologik xususiyatlarini tushunib yetish, ularni o'zarobir - biriga bog'liq holda idrok etish. O'zlashtirilgan bilim, ko'nikma, malakalarini amaliyot va hayot bilan bog'lay olish. U yoki bu obyektlarni biologik xususiyatlariga o'z fikrlarini bayon eta olish. Munozaralarda ishtirot eta olish. Tirik organizmlar haqidagi fikrlarini biologiyadan olgan bilimlarga asoslanib himoya qila olish.

*Tatbiq eta olish* – o'rganilgan biologik tushunchalar, nazariyalar, qonunlar va ta'riflardan foydalanib biologik hodisalarga doir muammo va masalalarni yecha olish, biologiyadan egallagan bilim ko'nikma va malakalaridan kundalik turmushda, ekologik muammlarni hal etishda foydalanish qobiliyatlarini tarbiyalash. O'quvchilarda yetakchilik qobiliyatlarini namoyon etish, turli xil ma'suliyatlarni qabul qila olish, guruh bilan hamkorlikda ishlay olish.

*Tahlil qila olish* – o'rtaga qo'yilgan muammoni hal qilish uchun zarur ma'lumotlarni turli ilmiy – ommabop adabiyotlardan toplash, tartibga solish, tahlil qilish, o'rganilgan materialni qismlarga ajratish ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rnatish, tahlil qilish, xususiy natijalardan umumiy natijalar olish va xulosa yarata olish. Tirik organzmlarning tuzilishidagi o'zaro o'xshashlik va farqlarni taxlil qilish, sistematik birliklar va bakteriya, zamburug', o'simlik, hayvonlarning kelib chiqishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash.

Biologiya darslarida o'quvchilar bilim, ko'nikma, malakaviy kompetensiyalarini shakllantirishda o'qituvchi zamонавиу та'lim texnologiyalari va usullari (muaommoli ta'lim, AKT, hamkorlikda o'qitish, modul ta'lim texnologiyalari, loyihalash texnologiyalari, klaster, keys – stadi usuli, nostonart testlar, atamalar zanjiri) kabilardan foydalanish samarali natija beradi.

O'quvchilarda fanga oid kompetensiyaviy yondashuvni shakllantirishda biologiya o'qituvchilari quyidagilarni egallagan bo'lishi kerak:

- pedagogika, ilmiy metodika va tashkiliy boshqaruva vazifalarini hal etish uchun zarur bo'lgan darajada umumiy nazariy fanlar asosini;
- psixologiya-pedagogika siklidagi fanlar: pedagogika, psixologiya, yosh fiziologiyasini, maktab gigienasini, biologiya o'qitish metodikasini, kompyuter bilan ishlash texnikasini;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlari (sinf rahbarining, sinfdan va darsdan tashqari mashg'ulotlarni tashkil etishni, kamolat yoshlar tashkiloti ishlari metodikasini);
- kasbga yo'llash va o'qitishni tashkil etish metodlarini;
- biologiya fanlari asoslarini, anorganik, organik kimyo va biokimyonni, maxsus fanlarni shu jumladan, botanika, zoobiologiya, o'simliklar fiziologiyasini, sitobiologiya, gistobiologiya, odam anatomiyasini, odam va

hayvonlar fiziologiyasini, mikrobiologiya, genetika, ekologiya va boshqalarni;

• tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, tashqi muhitni inson manfaatini ko'zlab o'zlashtirish masalarini;

- ishlab chiqarish asoslarini;
- məktəbda biologiya o'qitishni təşkil etishning məzmunı və prinsiplarını, dasturlar və darslıkları;

- o'quvchilarning har - xil jamoalarini təşkil etish və ularga rəhbərlik qilish masalalarını, məktəb o'quv - təjriba uchastkasını təşkil etishga qo'yiladigan talablarnı, foydalananlayotgan o'qitish vositalarını və ularning didaktik imkoniyatlarını;

- xalq ta'limini və pedagogika fanını rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarını və istiqbollarını, axborot toplash, sistemaga solish, umumlashtirish və undan foydalanan qoidalari və usullarını, mutaxassislik bo'yicha ilmiy tekshirish və metodik ishlər olib borishni, informatsion və ilmiy metodik materialları tayyorlashni bilishi kerak.

*Mutaxassislar esa:*

- biologiya və unga yaqin fanlardan olgan bilimini o'quvchilarning yosh və individual xususiyatlarni hisobga olgan holda bera olishni;


- o'quvchilar jamoasining aniq pedagogik-psixologik xususiyatlarni hisobga olgan holda pedagogika, o'quv-tarbiya və ilmiy-metodik masalalarını hal etishda qo'llay bilishi;

- manaviy-ma'rifiy və tarbiyaviy ishlərni olib bora olishi, o'quvchilar dastur materialini qanchalik o'zlashtırganlıklarını aniqlay olishi;

- o'quvchilarni o'z bilimlərini mustaqil to'ldırıb borishga o'rgata olishi;

- xilma-xil o'qitish usulları, vositaları və şəkillərdən o'quvchilarning o'quv, mehnət, jamoatchılık, sport və badiiy-iiodiy fəoliyatiga rəhbərlik qilishning progressiv usullarından foydalana olishi;

- o'quv – laboratoriya jihozlarından, o'qtishning texnik vositalardan və zəmənaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarından foydalana olishi;



- biologiya xonasini va tirik tabiat burchagini jihozlashni; biologiyadan test, nostandard testlar, klaster, keys-stadi usuli ishlamnalari, tarqatma materiallar tayyorlab, dars jarayonida foydalana olishni;
- o'quv-tajriba uchastkasidagi ishlarni tashkil qilib, metodik jihatdan to'g'ri olib bora olishi, o'simlik va hayvonlarni parvarish qilishni bilishi;
- har-xil tabiat hodisalarini kuzatishni bilishi va o'quvchilarga tushuntira olishni;
- tabiatni muhofaza qilish ishlarini tashkil etib amalga oshira olishi, ular natijasidan o'quv-tarbiya ishlarida foydalana olishi;
- tur, nav va zotlarni aniqlash metodikasini egallay olishi, gerbariy va kolleksiya to'plashni bilishi;
- o'quvchilarning ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy va estetik tarbiyasini amalga oshira olishni;
- ilg'or pedagogik tajribalarni tahlil qilishni, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llay olishni, umumlashtirishni va tatbiq etishni bilishi;
- o'zining kasbiy malakasini doimo oshirib borishi, axborotlar topishni, tanlash va undan foydalanishning qulay usullarini tatbiq etishni;
- qo'shimcha adabiyotlardan foydalana olishni, ilmiy va metodik tadqiqotlarni amalga oshira bilishi kerak.

## BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA MASALALRNING AHAMIYATI

Biologik ta'lif jarayonida masalalar ishlash orqali xilma-xil ta'lifiy vazifalar amalga oshiriladi. Ta'lif jarayonida o'quvchilar tomonidan biologik bilimlarni egallashlarida eng samarali usullardan biri masalalardan foydalangan holda mavzu mazmunini yoritib berishdir. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda masalalarni amaliy ahamiyati nihoyatda muhim sanaladi. Biologik ta'lifning samaradorligini oshirishda va o'quvchi ma'lum darajada o'z oldiga qo'ygan biologik maqsadlarga erishishda, matematik kompetentligini oshirishda masalalar o'ziga xos o'rinni egallaydi. Shuning uchun biologiya darslarida mumkin qadar ko'proq masalalardan foydalanishni yo'lga qo'yish va ulardan foydalanish usullarining ishlab chiqilishi biologiya o'qitish metodikasining dolzarb vazifalaridan biri sifatida ilgari suriladi. Masalalar yechish metodikasini to'g'ri yo'lga qo'yish o'quvchilarda biologik bilimlarni yuqori darajada egallashlarida hamda biologik jarayonlar mexanizmini chuqur anglab olishga yo'llaydi. Biologiya o'qitishda masalalardan foydalanish katta va ko'p tomonlama ahamiyatga ega.

■ *Biologik masalalarning ta'lifiy ahamiyati.* O'quvchilar biologik masalalarning yechish orqali ko'p yangi bilimlarni mazmunini tushunib yetadi, masala shartida berilgan yangi-yangi holatlar bilan tanishadi, zarur bo'lgan masalani yechishda biologik qonun va nazariyalarni qo'llash orqali masalani yechishga oid yangi usullarni o'ylab topadi. Bir so'z bilan aytganda biologik masalalarni yechish orqali inson biologik jarayolar mohiyatini anglab yetadi, biologik bilimlarini oshiradi. Ma'lum tipdagi masalalar yechish usuli va uni bir necha marta takrorlashi orqali o'quvchida ko'nikma va malakalar shakllanishi bilan bir qatorda kompetensiyaviy yondashuv shakllanadi.

■ *Biologik masalalarni tarbiyaviy ahamiyati.* Masala birinchidan matndagi asosiy ma'lumotlarga urg'u qo'ya olishni tarbiyalaydi. Chunki ko'plab biologik masalalar biologik fanlarning zamonga bog'liq holda rivojlanishida urg'u qo'yish o'zgarib boradi. Hozirgacha chop etilgan va keng qo'llanilayotgan masala va mashqlarga oid

to'plamlarda aksariyat holda genetik masala hamda mashqlar bayoni berilgan. Hozirgi zamon biologik masalalarga oid qo'llanmalarda biologiyaning ko'plab tarmoqlari (botanika, zoologiya, anatomiya, fiziologiya, molekulyar biologiya, paleontologiya, ekologiya, seleksiya, genetik injeneriya, biotexnologiya kabilalar)ni qamrab olmoqda. Bu kabi qo'llanmalarda berilgan masalalar mazmunining bayoni o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga, ekologik madaniyat, tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lish o'z Vatani tabiat bilan g'ururlanish hissini, tabiat go'zalliklaridan bahra olish, biologik bilimlarni ishlab chiqarishga tatbiq etish kabi hislarni tarbiyalashga qaratilgan. O'quvchilarni faqat masalani mohiyati emas balki uning mazmuni va qo'llanish usullari tarbiyalaydi. Ta'limgarayonida to'g'ri yo'naltirilgan biologik masalalar o'quvchilarda haqqoniyilik va to'g'ri so'zlik, har qanday qiyinchiliklarni yenga olishga intilish, o'z o'rtoqlarini mehnatiga hurmat bilan qarash kabilarni ham tarbiyalaydi.

■ *Biologik masalalarni amaliy ahamiyati.* O'quvchilar biologik masalalarni yechish moboynida kelgusida, kundalik hayoti davomida amaliyotda zarur bo'lgan vaqtida egallagan bilimlarni qo'llashga tayyor bo'lib boradilar. Deyarli barcha yer osti va yer usti tabiiy resurslarni hisobga olishda, shuningdek ko'p ilmiy tadqiqotlar haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilishda ham biologik masalalarga murojat qilishga to'g'ri keladi. Biologik masalalar fizikada materiallar qarshiligini o'rganishda, elektro va radiotexnikaga oid nazariy asoslarida keng foydalilanildi. Bu shundan dalolat beradiki biologiya ta'limgarayonida o'quvchilar fanlararo bog'lanishlar (fizika, kimyo, matematika, geografiya)ni amalga oshiriladi.

■ *Mantiqiy fikrlashning rivojlantirishda biologik masalalarning ahamiyati.* Biologik masalalar yechish insonni aniq fikrlarini ajrata olish va xulosalar yashash, ma'lumotlar va ilmiy faktlarni aniqlash, ma'lumotlarni mos keltirish va qarama-qarshi qo'yish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Masala yechish bo'yicha A. Ya Xinchin quyidagi fikrlarni bayon etgan. Masala yechishda o'quvchilar to'g'ri fikrlashni, eng muhimi o'quvchilar to'liq argumentlarni egallahiga o'rganadilar. Masala yechishda fikrlar aniq ma'lumotlarga yo'naltirilgan, noqununiy umumlashtirishlarga yo'l qo'yilmagan holda, masalada berilgan faktlarni to'liq qamrab olishni talab etilishi, klassifikatsiya-

lashga to'liq e'tibor berish talab etiladi. Biologik masalalarni yechish davomida o'quvchilarda o'ziga xos fikrlash qobiliyati: ana'naviy fikrlash sxemasidan farq qiladigan fikrlar bayoni, fikrlarni sharxlash, belgilar aniqligi, fikrlash davomida fikrlarni aniq bo'laklarga bo'lib fikrlash shakllanadi.

## BIOLOGIYA FANINI O'QITISH JARAYONIDA MASALALARING ROLI

Har qanday aniq o'quv biologik masala faqat birgina o'quv maqsadini emas balki bir nechta pedagogik va didaktik maqsadlarni nazarda tutadi. Bu maqsadlar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan masalani shartida ham, uning nomlanishida ham aks etishi kerak. O'qituvchi u yoki bu masalani didaktik maqsadi biologiya o'qitish jarayonida masalaning rolini belgilaydi. Biologiya darslarida qo'llaniladigan masalalarning asosiy roli masalani mazmuni va didaktik maqsadi bilan belgilanadi.

➤ *Biologik masalalarni ta'limiy roli.* Biologik masalalarni ta'limiy ahamiyati biologiya va boshqa fanlardan bilim, ko'nikma va malakalarni tizimli o'zlashtirishni shakllantiradi. Biologik masalalarni ta'limiy rolini bir necha turlarga ajratish mumkin.

1. Biologik tushunchalarni o'zlashtirishga qaratilgan masalalar. Biologik tushunchalarni tarkibi va tuzilishini o'zlashtirish uchun tushunchalar ustida tinmay va doimiy mehnat qilishni talab etilishi barchamizga ma'lum. Tushunchalarni o'zlashtirish uni faqat o'qish bilangina amalga oshirib bo'lmaydi, har bir so'z va tushunchaning mohiyatini anglab yetish, o'rganilayotgan tushunchaning tarkibiy qismini aniq bilish talab etiladi. Bu yutuqlar ta'lim jarayonida masala va mashqlardan foydalanish orqali ham amalga oshadi.

2. Biologik simvollar bilan ishlashga oid masalalar. Biologik simvollar bilan ishslash o'quvchilarda biologik tilni shakllanishiga qaratilgan maqsadlardan biridir. Biologik simvollarga oid dastlabki tushunchalar botanika o'quv kursidan (gul formulalari, diagrammalarini) boshlanadi. Bologik simvollarni masala va mashqlar yechish orqali ahamiyatini yoritib berish kerak.

3. O'qitishda isbot talab qiladigan muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan masalalar. Isbotlash orqali ta'lim berish biologiya

o'qitishning muhim maqsadlaridan biridir. Savol-mashqlar va dastlabki ilmiy tadqiqotga asoslangan oddiy tipdag'i masalalar amaliyotda doimo isbotlash orqali boshlanadi. Bunday masalalar savollarga javoblarni qidirib topish va uning haqiqat ekanligini isbotlashga qaratilgan.

Masala – savollar yechimi odatda o'zining yechimini (javobini haqiqat ekanligini isbotlash) bir fikr bilan bayon etish, bir fikri isbotlab ikkinchi fikrga mantiqiy qadam tashlash orqali isbotlab borish demakdir. Murakkab darajalari masalalarni yechishda yoki biologik nazariya va qonunlarni zanjirli reaksiya yordamida izchil isbotlashni amalga oshirish orqali amalga oshiriladi.

Masala – savollardan foydalanishni asosiy maqsadi biologik tu-shunchalarni o'zaro bog'lash, aniqlik kiritish va anglab yetishdir. Masala – savollar biologik til va belgilarni o'zalashtirishda ham muhimdir. Talim jarayonida isbot talab qiladigan mashqlar jumladan tushib qolgan so'zlarni to'ldirishda, matndagi xatoliklarni topishga qaratilgan mashqlar aniq isbotlashga misoldir. Bunday ko'rinishdagi mashqlarni ko'proq botanika, zoologiya darslarida qo'llash yuqori samara beradi.

4. Masala biologik ta'limdi ko'nikma va malakalarni shakllantiradi.

5. Yangi biologik faktlarni, yangi o'rganilayotgan ilmiy qarashlarga o'quvchilar e'tiborini jalb qilishda, biologik tushunchalar va obyektlarni o'rganishda masalalar tarbiyalovchi ta'lim rolini o'ynaydi. Shuningdek o'quvchilar yangi bilim va mavzularni o'zlashtirishi uchun masalalar yordamida yangi tushunchalar va yechish usullari, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirishlar orqali amalga oshiriladi. Bu yerda turli xil biologik masalalarni asosida isbotlash zarur bo'lgan murakkab darajali masalalar o'quvchilar tomonidan isbotlanishi kerak.

Muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va tatbiq etish modda hamda energiya almashinuviga oid tenglamalarni yechishda qo'l keladi. Ildiz va barg sathini, hayvonlarning tana massasini harakatlanish tezligini taqqoslash, irlsiyat va o'zgaruvchanlik, energiya almashinuvi bosqichlari kabi masalalarni eslashni o'zi kifoya.

Biologiya kursidagi turlicha murakkablikka ega biologik qonuniyatlar va mavzularni o'rganishda, qo'llaniladigan masalalar matnini

yaratishda, tirik organizmlar o'rtasidagi oraliq formalarni isbotlash haqidagi ma'lumotlarni shakllantirishda masalalar asosiy rol o'ynaydi.

➤ *Biologik masalalarni yechish orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.*

1. Masala yechish davomida tasavur qilish ijodiy fikrlash ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Biologik masalalrn yechish juda ko'p ijodiy fikrlash: analiz qilish, masala shartida berilgan ma'lumotlarni oldin ishlangan ma'lumotlar bilan taqqoslash, masalada yashiringan g'oyalarni yuzaga chiqarish, biologik masalalar yechishda oddiy matematik modellarni shakllantirish, fikran eksperimentlar o'tkazish, axborot uchun kerakli bo'lgan masalalarni tanlay olish va qisqa va aniq qilib matn ko'rinishida bayon eta olish, fikrlarini turili xil biologik grafik va simvollar ko'rinishida yetkaza olish kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biologiyadan masalalar yechishda zamonaviy psixologiya fani yutuqlarini hisobga olib borish zarur. Psixologlar bitta sinfdagi turli o'quvchilar bir turdag'i masalalarni turlicha qabul qilishlarini ko'rsatib o'tishgan. Matematikaga layoqati bo'lgan o'quvchi har qanday masalani yakka elementlari va kompleks holda yondosha olishi mumkin. O'rtacha bilimga ega o'quvchi esa bu masala yechimiga alohida yechimlar orqaligina boriishi mumkin. Shuning uchun masalalar yechishda masalaning turli elementlar o'rtasidagi bog'lilikni maxsus tahlil qilib borish kerak bo'ladi. Shunday yo'llar bilan masala shartini qayta ishlash yengilashadi.

Masala yechishda har bir o'quvchi o'z xotirasiga ko'proq murojaat qilishi kerak bo'ladi. Masalalar yechishga layoqatli o'quvchilar individual xotirasi umumlashtiruvchi va zarur bo'lgan ma'lumotlarni saqlaydi. Bunday ma'lumotlarni saqlaydigan miya keraksiz ma'lumotlarni qabul qilmaydi, zarur bo'lgan ma'lumotlar esa xotirada uzoq saqlanadi va uni qo'llash oson bo'ladi. Shunday qilib biologiya o'quv fanini o'qitish jarayonida masala yechish nafaqat ijodiy fikrlashni balki xotirani, "umumlashtiruvchi assotsiatsiya"ni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

2. Fikrlashga o'rgatish. Biologik masala va mashqlarni yechishning samaradorligi ko'proq o'quvchilarining ijodiy faolligini uni yechish davomida qanday darajada bo'lishiga bog'liqdir.

Masala va mashqlarning birdan bir eng muhim tomoni o'quvchilarning dars davomida ijodiy fikrlash faoliyatini faollashtirishdan iboratdir. Biologik masalalar birinchilardan o'quvchilar fikrini uyg'otish, ularni kitob bilan ishlashga majbur etish, rivojlantirish, shakllantirishga qaratilishi kerak. O'quvchilarning fikrlash faoliyatini faollashtirish haqida gap ketganda, shuni unutmaslik kerakki, biologik masalalar yechishda o'quvchilar nafaqat organizmlarning tuzilishi bo'yicha balki ularning o'ziga xos tomonlarini esda saqlab qolishini, aniq va ko'p tomonlama fikrlash, bayon etishga, ma'lumotlarni taq-qoslashga, ularning o'xshashalik va farqli tomonlarini aniqlashga, to'g'ri xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

3. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantiruvchi masalalar. O'quv jarayonini samaradorligi ko'p jihatdan biologik masalalar yechishda o'quvchilarning ijodiy faolligiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini faolashtiradigan va ta'lim jarayonida qo'llaniladigan masala va mashqlarni A.F. Esaulov quyidagi turlarga ajratgan: masala, hayolan hisoblashga (bunday masalallarni yechishda xotira va e'tiborga asoslanailadi); masala, yechimi bungacha bo'lgan masalalarni yechishga nisbatan yangi fikr, g'oyalarga olib keladigan ijodiy masalalar. Masala yechish orqali o'vuvchilarning fikrlash qobiliyatlarini faollashtiruvchi va rivojlantiruvchi ayrim qarashlarga to'xtalib o'tamiz.

✓ Ijodiy izlanish elementlarini o'z ichiga oladigan masala va mashqlar. Dastlabki 9-sinf biologiya darsligining organik olam xilmxonalligi mavzularini o'rganishda oddiy izlanishga oid muammolarini masalalar orqali havola qilish taklif etiladi. Keyingi bo'limlarda esa ijodiy izlanish bir necha bosqichlarini o'z ichiga oladigan masalarni yechish talab etiladi. Bunday izlanishga yo'llovchi ko'plab biologik masalalar organizmlarning ko'payishi, rivojlanishi, modda va energiya almashinuvi, tirik organizmlarning hujayraviy tuzilishi, kimyoiyi tarkibi, embrional va postembrional rivojlanishini aks ettiruvchi va boshqalar.

✓ O'quvchilarning ilmiy izlanishlari natijasiga asoslangan masala va mashqlar biologiya kursining barcha bo'limlarida o'z o'rnini topishi mumkin.

a) Biologik ma'lumotlarni isbotlashga qaratilgan masalalar to'g'-ridan to'g'ri o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga

ta'sir ko'rsatadi. Dalillarga asoslangan mantiqiy sxemalarni o'rganishga qaratilaga masala va mashqlar o'quvchlarning mantiqiy fikrlashlarini talab etadi va yuzaga chiqaradi

b) Matnlardagi xatoliklarini qidirish va topishga asoslangan masala va mashqlar o'quvchilarning biologik fikrlashlarini rivojlantirishda ma'lum rol o'ynaydi. Bunday masalalar o'quvchilarning matndagi eng nozik ma'lumotlarga, o'xshash tushunchalarini farqini ajrata olishga, biologik fikrlarga aniq urg'u qo'yishga o'rgatadi. Xatolik bilan ishlashga yo'nalan masalalar dastlab oddiyroq bo'lishi kerak.

Psixologlarni fikricha, bir masalani turli yo'llar bilan yechimini topish ko'proq foydali natija beradi. O'quvchilar tomonidan turli yo'llar bilan ishlangan masallar orqali berilgan masalaning eng qulay yechimlarini aniqlash imkonini beradi. Biror bir biologik masala yoki mashqning turli variantlarda ishlash o'quvchining bor biologik bilimlarini qo'llash imkonini beradi. Shunday qilib masalani turli variantlarda yechish o'quvchilarda tez fikrlash qobiliyatlarini tarbiyalaydi. Birinchi marta ishlanadigan masalaning eng qulay variantini topish qo'shimcha vaqtini talab etadi. Keyin-chalik esa bu qo'shimcha vaqt qoplab ketiladi. Eng qulay variantlar o'quvchining hohishi bilangina vujudga kelmaydi. Buning uchun bir masalani turli yo'llar bilan ishlashni o'quvchiga o'rgatish va ular ichidan eng qulayini tanlash kerak bo'ladi.

*Misol uchun.* O'qituvchi o'quvchilarga quyidagi masalani ishlashni tavsiya etadi.

Hujayrada 4320g glyukozaning anaerob sharoitda parchalanishidan hosil bo'lган jami energiya miqdorini (kJ) hisoblab toping?

Yechilishi: Masala javobini ikki usulda aniqlash mumkin.

**I-usul.** Bu masalani yechish juda oddiy bo'lib, kimyo fanidan olgan bilimlarga tayanamiz. Bir mol glyukozaning ( $C_6H_{12}O_6$ ) molekulyar massasi 180 gramm ya'ni:

1) uglerodning molekulyar masasi 12, vodorodniki 1 va kislo-rodniki 16 ga teng deb qabul qilingan. Shuning uchun har bir element soni (indeks orqali berilgan) ni molekulyar massaga ko'paytirish orqali umumiy molekulyar massa topiladi.

$$12 \cdot 6 + 12 \cdot 16 \cdot 6 = 180 \text{ gramm}$$

2) Energiya almashinuvi mavzusida bayon etilganidek, 180 g glyukoza to'liq parchalansa 2800 kJ energiya hosil bo'ladi. Energiya almashinuvi uch bosqichda amalga oshadi, masala shartida II bosqich (anaerob) dagi energiya miqdori so'ralsan. Energiya almashinuvining II bosqichida har doim umumiy energiyadan (2800 kJ) 200 kJ energiya hosil bo'ladi. Shunga ko'ra proporsiya tuzamiz.

180 g glycokozadan  200 kJ energiya hosil bo'lsa,

4320 g glycokozadan  x = 4800 kJ energiya hosil bo'lsa.

II-usul. 180 g glycokozada 1 mol bo'lsa, 4320 g glycokozada necha mol ekanligini aniqlaymiz. Bu uchun quyidagi amalni bajaramiz.

1)  $4320 : 180 = 24$  molga to'g'ri kelishini aniqlab olamiz.

2) Bir mol glycokozada anaerob sharoitda parchalanganda 200 kJ energiya hosil bo'lsa, 24 molidan qancha energiya hosil bo'lishini aniqlaymiz.

$24 \cdot 200 = 4800$  kJ energiya hosil bo'lsi.

Javob: 4800 kJ energiya hosil bo'lsi.

Dars davomida masalaning bir nechta yechimini o'quvchilar tomonidan ko'rsatiladi va muhokama qilinadi. Bunday masalalarni ishlashning foydali tomoni o'quvchilar munozaralar olib borish natijasida obyektiv bilimga ega bo'ladi.

✓ O'quvchilar tomonidan masalalar tuzish. Biologik adabiyotlarni o'qishga to'g'ri yondoshish va mustaqil masala tuzish, yechimlarini topish o'quvchilarning mantiqiy fikrlashlarini faollashtiradi. Shu sababli, birinchidan mustaqil fikrlash (o'quvchilarda biologik fakt va qonuniyatlarga tayangan holda, o'rganilgan va o'rganilishi kerak bo'ilgan obyektlarni o'ziga xos xususiyatlari va farqli tomonlarini baholash) tarbiyalanadi; ikkinchidan o'quvchilarning ijodiy fikrlash faolligi rivojlanadi. Masalalarni mustaqil ravishda tuzishni bilgan o'quvchi uni yechilishini ham o'rgangan bo'ladi. O'qituvchi va o'quvchi biologik masalalar yechish hamda tuzish jarayonida dastlab masala va mashqlarning qaysi tur yoki darajada ekanligiga e'tibor berishi lozim.

## BIOLOGIYADAN FOYDALANILADIGAN MASALA VA MASHQLARNING TURLARI

Biologiyadan masala va mashqlarni nafaqat yangi materialni o'quvchilar qanday o'zlashtirganliklarini nazorat qilishda, balki darsning boshqa bosqichlarida dastlab olingen bilimlarni mustahkamlashda ham foydalanish mumkin. Masala yechish davomida o'quvchilarda darsda olgan bilimlarning qo'llash ko'nikmalari hosil bo'ladi. O'zlashtirilgan bilimlarga esa ongli yondashiladi va chuqurlashadi.

Masala va mashqlarni darajasi, shakli va ma'nosiga qarab klassifikatsiya qilish mumkin.

O'quvchilarga taklif etilayotgan masala va mashqlar (u darsda yoki olimpiada bo'lishidan qat'i nazar), ularni 5 ta darajaga ajratish mumkin. Ularni bilimlarni o'zlashtirish darajasi bilan chalkash-tirmaslik kerak. Didaktika bilimlarni o'zlashtirishni uch guruhga bo'lishi ma'lum ular reproduktiv o'zlashtirish, standart masalalarni yechish va ijodiy masalalarni yechishni bilish hisoblanadi.

Murakkablik darajalarini turli xil masala va mashqlar misolida ko'rib chiqaylik.

• *Birinchi darajali* masalalarda oddiy bilimlarni taqqoslash bilan bog'liq bo'lishi mumkin bunday masalalar ko'proq o'quvchilarning xotirasini tekshirish uchun qulaydir. Misol uchun: Diploid navli makkajo'xorida urug'lanish jarayonidan so'ng bitta so'tasida 800 ta urug' hosil bo'lган. Darslikdan olgan bilimlaringizga asoslanib, qo'sh urug'lanish jarayonida ishtirok etgan spermiylar sonini hisoblab toping?

*Yechilishi:* Urug'lanish mavzusidan bizga ma'lumki, bitta urug' hosil bo'lishida ikkita spermiy ishtirok etadi. Shu ma'lumotlar asosida masalaning yechimini topamiz.

Ita urug' hosil bo'lishida — 2 ta spermiy ishtirok etsa,

800 ta urug' hosil bo'lishida —  $x=1600$  ta spermiy ishtirok etadi.

Javob: 1600 ta spermiy ishtirok etadi.

• *Ikkinci darajali* murakkablikka ega bo'lган masalalarni yechishda ayrim biologik qonunlarni tatbiq eta olishni va ayrim hodisalarni taqqoslash talab etiladi. Misol uchun: ma'lumki ipak qurtining bitta urg'ochisi o'ragan pilla tolasini uzunligi 1000 metrni

tashkil etadi, erkagi esa urg'ochisiga nisbatan 30 % ko'p tola o'raydi. Pillakorga tarqatilgan ipak qurti tuxumlaridan 10000 dona erkak ipak qurti chiqqan bo'lsa, ular o'ragan pilladagi tolalar uzunligi qancha bo'ladi?

**Yechilishi:** Berilgan ma'lumotlarga asoslanib masalani javobini hisoblab topamiz.

1) Bitta urg'ochi ipak qurti 1000 metr pilla urasa, erkagi unda 30 % ko'p tola o'raydi ya'ni bitta erkak ipak qurti 1300 metr pilla urashini aniqlab olinadi.

2) Olingan natijani erkak ipak qurtlarining soniga ko'paytirilib javob topiladi.

$1300 \text{ m} \cdot 10000 \text{ dona ipak qurtiga} = 13\,000\,000 \text{ metr pilla o'raydi.}$

**Javob:** 13 000 000 metr pilla o'raydi.

• *Uchinchi darajali* masala va mashqlarni yechishda qanday bilimlardan foydalanib javob berish kerakligini aniq bilish kerak. Misol uchun: DNK molekulasini ma'lum bir fragmentida 598 ta fosfodiefir bog' bo'lsa, ushbu DNK fragmenti asosida sintezlangan oqsil molekulasidagi peptid bog'lar sonini toping.

**Yechilishi:** fosfodiefir bog' 598 ta bo'lsa, bu bog' bilan birikkan nukleotidlari soni 600 ta bo'ladi. Bitta triplet bitta aminokislotani kodlashini hisobga olgan holda peptid bog'lar sonini topamiz. Sintezlangan oqsil molekulasi tarkibidagi aminokislotalar soni 100 ta bo'lsa, peptid bog'lar soni esa 99 ta bo'ladi. Chunki birinchi aminokislota bilan ikkinchi aminokislota o'rtasida bitta peptid bog' mavjudligini e'tiborga olib peptid bog'lar sonini aminokislotalar sonidan bitta kam olinadi.

**Javob:** peptid bog'lar soni 99 ta bo'ladi

• *To'rtinchi darajali* masala hamda mashqlarga javob berishda o'quvchilar boshqa fanlardan kimyo, fizika, matematikanib olgan bilimlarini ham safarbar etishni bilishlari kerak. Misol uchun: DNK molekulasining tarkibida 3125 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiyligi nukleotidlarning 25% tashkil qilsa, nukleotidlari orasi 0,34 nm bo'lsa, bu holda DNK uzunligi necha nanometer ekanligini aniqlang?

**Yechilishi:** komplementarlik prinsipiiga binoan masalani yechimi hisoblab topiladi.

1) DNK molekulasi tarkibida 3125 ta A - xuddi shuncha ya'ni 3125 ta T ham bo'ladi.

2) DNK molekulasi tarkibida 3125 ta A-25 % ni tashkil etishini nazarda tutgan holda DNK dagi umumiy nukleotidlarning sonini aniqlaymiz.

$$25 \% = 3125 \text{ ta}$$

$$100 \% = x = 12500 \text{ ta umumiy nukleotid bor ekan.}$$

3) DNK molekulasi ikkita zanjirdan iboratligini hisobga olgan holda umumiy nukleotidlarning sonini ikkiga bo'lamiz va DNK ning bir zanjiridagi nukleotidlarning soni aniqlanadi, bu natija esa DNK ni uzunligini aniqlashda asos hisoblanadi.

$12500 : 2 = 6250$  ta nukleotid DNK ning bir zanjiridagi nukleotidlarning soni.

4) DNK molekulasi zanjirining uzunligini topamiz.

$$6250 \cdot 0,34 = 2125 \text{ nm}$$

**Javob:** DNK molekulasining uzunligi 2125 nm ga teng.

• *Beshinchidarajali* masala va mashqlarni shartlari murakkab bo'lib uning ichida yashiringan tushunchalarni tushunish ancha qiyin bo'lib uni ishlashda biologik qonuniyat va nazariyalarni tatbiq eta olishi hamda kimyo, fizika, matematikadan olgan bilimlarini ham safarbar etishni bilishlari talab etiladi. Misol uchun: DNK molekulasiда guanin va sitozin nukleotidlari orasida uchta, adenin va timin nukleotidlari orasida ikkita vodorod bog'i mavjud. Ma'lum bir DNK molekulasiда 1170 ta vodorod bog'lari bo'lsa, hamda ushbu fragmentda umumiy nukleotidlarning 20 % ini adenin tashkil qilsa, undagi timin va sitozin nukleotidlarning sonini aniqlang?

*Yechilishi:* Bu masalani yechimi ikki xil usulda yechiladi. O'qituvchi va o'quvchi o'zi uchun qulay bo'lgan usulni tanlashi lozim.

**I-usul.** Masalani yechishda komplementar prinsipi asos bo'ladi.

20 % A bilan 20 % T (ikkita H<sub>2</sub> bog'), 30% G bilan 20% C (uchta H<sub>2</sub> bog') bo'lishini nazarda tutib sistema tuzamiz.

$$20 \cdot 2x + 30 \cdot 3x = 1170 \text{ ta vodorod bog'i bor}$$

$$x = 1170 \text{ ta vodorod bog'i bor}$$

$$x = 1170 : 130$$

$$x = 9$$

$$T - 9 \cdot 20 \% = 180 \text{ ta T nukleotidi bor}$$

$$C - 9 \cdot 30 \% = 270 \text{ ta C nukleotidi bor.}$$

**Javob:** 180 ta T va 270 ta C nukleotidlari bo‘ladi.

**II-usul.**

$(A + T)$	$(G + C)$
20% 20%	30% 30%

- 1)  $20 \cdot 2 = 40$  ta vodorod bog‘i bor
- 2)  $30 \cdot 3 = 90$  ta vodorod bog‘i bor
- 3)  $40+90 = 130$  ta vodorod bog‘i bor

4) Yuqoridagi ma’lumotlarga asoslanib proporsiya tuzamiz.

130 ta — 100 ta nukleotid bo‘lsa,

1170 ta —  $x = 900$  ta nukleotid bo‘lishi aniqlanadi.

5) Endi har bir nukleotidlar sonini hisoblab topamiz.

a) 100% — 900 ta umumiyluk nukleotid bo‘lsa,

20% —  $x = 180$  ta T nukleotidi bor.

b) 100% — 900 ta umumiyluk nukleotid bo‘lsa,

30% —  $x = 270$  ta C nukleotidi bor.

Har ikki usulni ham to‘g‘ri ekanligini tekshirish uchun quyidagi amallar bajariladi.

6)  $180 \cdot 2 = 360$  ta ta vodorod bog‘i bor.

7)  $270 \cdot 3 = 810$  ta ta vodorod bog‘i bor

8)  $360+810 = 1170$  ta ta vodorod bog‘i borligi asos qilib olinadi.

**Javob:** 180 ta T va 270 ta C nukleotidlari bo‘ladi.

Masala qanchalik yuqori darajali bo‘lsa shunchalik ko‘proq fikrlashni va murakkab mantiqiy operatsiyalarni bajarishni talab etadi. Biologik masala va mashqlar yechish jarayonida masalalarning mohiyatini tushunib yetishda fanlararo bog‘lanishlarni amalgalash muhim amaliy ahamiyatga kasb etadi.

## MASALA VA MASHQLAR YECHISHDA FANLARARO BOG‘LANISHLAR

XX asrga kelib, barcha fanlar tekshirish obyektlariga ko‘ra diferensiallashgan holda rivojlanishi natijasida, fanlarning yangi tarmoqlari paydo bo‘ldi. XXI asrda esa integratsiyalashgan ta’limga bo‘lgan ehtiyoj vujudga keldi va integratsiyalashgan ta’lim muhim funksiyalarni bajarishi ma’lum bo‘ldi. Chunki fan asoslarini puxta egallash, o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarning mazmun mohiyatini to‘liq tushunib yetish uchun turli fanlar yutuqlaridan foydalanish

lozimligi yoqqol ko'zga tashlanib qoldi. Umumiy o'rta ta'lif makkablarida o'qitiladigan barcha o'quv fanlari kabi biologiya fanini o'qitish jarayonida ham muhim sanaladi. Ayniqsa, Odam va uning salomatligi (8-sinf), biologiya (9-10-11-sinflar) o'quv fanlaridan o'rinni olgan mavzularni o'rganish, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, o'zlashtirgan bilimlardan yangi kutilmagan vaziyatlarda foydalanish, biologik masalalarni yechish kompetentliligini takomillashtirish jarayonlarida fizika, matematika, kimyo va boshqa tabiiy hamda aniq fanlar bilan fanlararo bog'lanishlarni o'rni beqiyosdir.

Misol uchun: Odamning o'rtacha tana og'irligi 60 kg ni tashkil etadi. Tana og'irligini 8% ini qon tashkil etadi, qonning zichligi  $p=1.050 \text{ g/sm}^3$ , 100 ml qon tarkibidagi gemoglobin (Hb) miqdori 14 g ga teng, 1g gemoglobin o'ziga taxminan 1,34 mg kislorodni biriktiradi. Qon tanani bir marta aylanib chiqqanda qancha kislorod tashishini hisoblab toping?

#### *Masalaning tahlili:*

Maqsad: odam organizmdagi gaz almashinuv jarayonida gemoglobinning rolini o'quvchilarga tushuntirib berish. Agar barcha qon o'pka orqali o'tib kislorodga to'yinishini hisobga olgan holda topshiriqdagi savolga javob topish uchun dastlab 60 kg tana og'irligiga ega bo'lgan odam qoni tarkibidagi gemoglobin miqdori va gemoglobin o'ziga qancha kislorod biriktirib olishini hisoblab topish kerak.

Berilgan:

$$(\text{tana og'irligi}) m = 60 \text{ kg}$$

$$\text{qon miqdori} = 8\%$$

$$(\text{qonning zichligi}) p = 1,050 \text{ g/sm}^3$$

$$100 \text{ ml qon tarkibida (Hb)} = 14 \text{ g}$$

$$1 \text{ g gemoglobinga (O}_2\text{)} = 1,34 \text{ mg}$$

$$m(O_2) = ?$$

$$1 \text{ ml} = 1 \text{ sm}^3$$

*Yechilishi:*

1) 60kg tana og'irligiga ega odam organizmdida qancha miqdor qon bo'ladi?

$$m (\text{qon}) = 60(\text{kg}) \cdot 0,08 = 4,8 \text{ kg} = 4800 \text{ g qon bo'ladi.}$$

2) Qonning hajmi qancha ekanligini topishda fizika fanidan olgan bilimlarni safarbar qilish orqali maqsadga yetamiz?  $V=m : p$

$$V = 4800 \text{ (g)} : 1,05 \text{ (g/sm}^3\text{)} = 4571 \text{ sm}^3 = 4571 \text{ ml}$$

3) Shundan so'ng 4571 ml qon tarkibida qancha miqdor gemoglobin bo'lishi aniqlanadi?

100 ml. —— da 14 g gemoglobin (Hb) bo'lsa,

4571 ml. —— da x g gemoglobin (Hb) bo'ladi.

$$x = 4571(\text{ml}) \cdot 14 \text{ (g)} : 100 \text{ (ml)} = 639,94 \text{ g gemoglobin (Hb) bo'ladi}$$

4) Odam tanasini qon bir marta aylanib chiqishida qancha kislorod tashishini aniqlaymiz.

$$m(O_2) = 639,94 \text{ (g)} \cdot 1,34 \text{ (mg/g)} = 857,5 \text{ mg} = 0,857 \text{ g O}_2 \text{ tashiydi.}$$

**Javob:** 60 kg li odam qondagi gemoglobin miqdori 639,94g, qon odam tanasini bir marta aylanib chiqqanda 0,857g kislorod tashiydi.

Kimyoviy masalalar o'quvchilarning biologiya va kimyodan olgan bilimlарини tekshirish uchun kimyo bilan biologiyani bog'lovchi masalalardan foydalanish ularni biologiya va kimyoga bo'lgan qiziqishlarni oshiradi. Bunday masalalar birinchidan bolalarni kimyonni o'rGANIB biologiyaga borganda uni esdan chiqarmaslikka o'rgatadi.

Misol uchun: Odam o'pkasining tiriklik sig'imi o'rtacha  $3500 \text{ sm}^3$  ni tashkil etadi. Agar odam bir minutda o'rtacha 16-20 marta nafas olsa, bir soatda o'pka orqali o'tadigan havo tarkibidagi  $O_2$  va  $CO_2$  miqdorini toping. Havo tarkibida  $O_2$  miqdori 21%,  $CO_2$  miqdori esa 0,03% ni tashkil etishini hisobga olgan holda masala yechimini toping.

#### *Masalaning tahlili:*

Maqsad: odam o'pkasining tiriklik sig'imi o'rtacha  $3500 \text{ sm}^3$  ni tashkil etadi. Agar odam bir minutda o'rtacha 16-20 marta nafas olsa, bir soatda o'pka orqali o'tadigan havo tarkibidagi  $O_2$  va  $CO_2$  miqdorini toping. Havo tarkibida  $O_2$  miqdori 21%,  $CO_2$  miqdori esa 0,03% ni tashkil etishini hisoblab topish kerak. Bu tipdag'i masalani yechishda o'qituvch va o'quvchilar kimyo hamda fizika fanlaridan olgan bilimlarga asoslanishi lozim bo'ladi.

#### *Berilgan:*

$$(O'pka tirig'lik sig'imi)-V = 3500 \text{ sm}^3$$

$$(Vaqt)-t = 1 \text{ soat}$$

$$(Nafas olish soni)-f = 16$$

$$S(O_2) = 21\%$$

$$S(CO_2) = 0,03\%$$

**Avagadro (doimiyligi)soni =**22,4 l/mol

**O<sub>2</sub> miqdori molda =**32g/mol

**CO<sub>2</sub> miqdori molda =** 44 g/mol

**V (CO<sub>2</sub>)=?**

**V(O<sub>2</sub>)=?**

**m (O<sub>2</sub>)=?**

**m (CO<sub>2</sub>)=?**

*Yechilishi:*

1) Bir soat davomida odamni olgan nafas havosining miqdori qancha?

$$V \text{ havo} = 3500(\text{sm}^3) \cdot 16(\text{min}) \cdot 60(\text{min}) = 3360000\text{sm}^3 = 3360 \text{ l}$$

2) Olingan nafas havosi tarkibida qancha miqdor O<sub>2</sub> bor?

$$V(O_2) = 3360 \cdot 0,21 = 705,6 \text{ l}$$

$$m(O_2) = 705,6(\text{l}) \cdot 32(\text{g/mol}) : 22,4 (\text{l/mol}) = 1008 \text{ g}$$

3) Nafas havosi tarkibida qancha miqdor CO<sub>2</sub> gazi bor?

$$V(CO_2) = 3360(\text{l}) \cdot 0,0003 = 1,008 \text{ l}$$

$$m(CO_2) = 1,008(\text{l}) \cdot 44 (\text{g/mol}) : 22,4 (\text{l/mol}) = 1,98 \text{ g}$$

**Javob:** O<sub>2</sub> miqdori 1008 g, CO<sub>2</sub> miqdori 1,98 g ni tashkil etadi.

Nisbatan murakkabroq masalaga quyidagi masalani olish mumkin:

Murakkab biologik masalalar o'z yechimlarini matematikadan olgan bilimlariga asoslangan holda o'z yechimini topadi. Bunday masalalar o'qituvchi yoki o'quvchilarda tayanch kompetentsiyalardan matematik savodxonligini shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Misol uchun: DNK molekulasida guanin va sitozin nukleotidlari orasida uchta, adenin va timin nukleotidlari o'rtaasida ikkita vodorod bog'i mavjudligini e'tiborga olsak, ushbu fragmentda 1400 juft nukleotidlар mavjud. Unda guanin va sitozin juftligi adenin va timin juftligidan 2,5 barobar ko'p bo'lsa, ushbu zanjirdagi vodorod bog'lar sonini toping? Yechilishi:

$$1400 = 2800$$

$$2800 = 2 \times (A \text{ va } T) + 2,5 \cdot 2x (G \text{ va } C)$$

$$2800 = 7x$$

$$x = 400$$

400 adenining 400 ta timin komplementar ular orasida 800 ta vodorod bog' bor.

$$400 \cdot 2,5 = 1000$$

1000 ta guaningu 1000 ta sitozin komplementar ular o'rtasida 3000 ta vodorod bog mavjud.

$$800+3000=3800 \text{ ta}$$

**Javob:** 3800 ta vodorod bog bo'ladi.

Biologiya o'qituvchilari va o'quvchilar darsning barcha bosqichlarida biologik masalalar yechish jarayonida fanlararo bog'lanishni amalga oshirishi kasbiy kompetentligini, ilmiy dunyo qarashi kengayishga, tayanch va fanga oid kompetensiyalarni tarkib topishiga asos bo'ladi.

## BIOLOGIYA (SITOLOGIYA VA GENETIKA ASOSLARI) FANIDAN MASALA VA MASHQLAR

Biologiya (sitologiya va genetika asoslari) fanidan o'qituvchi yoki o'quvchilar masala va mashqlar yechish yoki nostandard topshiriqlarni bajarish uchun dastlab mazkur darslikning:

- biologiyani o'rghanish metodlari va tirik organizmlarning xilmalligi, prokariot va eukariot organizmlarning o'ziga xos tomonlari va ularni taqqoslashga, ko'payish tezligi, ko'payish tezligiga ta'sir ko'rsatadiga omillarni;
- hujayrani kashf etilish tarixi, o'rghanish usullari, hujayra organoidlari, tuzilishi va kimyoviy tarkibi, organoidlar funksiyasini;
- hujayra tarkibiga kiruvchi anorganik moddalar: suv, mikro va makroelementlarning fizik hamda kimyoviy xossalari, ularni tirik organizmlar hayotidagi funksiyalarini;
- tirik organizmlar hujayrasi tarkibida uchraydigan biomolekulalar ya'ni oqsillar, uglevodlar, lipidlar, nuklein kislotalar va boshqalarning tuzilishi, kelib chiqishi, tarkibidagi monomerlar izchilligini, molekulyar massasini o'rghanishga imkon beradigan ilmiy tushunchalarni;
- hujayrada boradigan plastik va energetik almashinuv, ATF, fotosintez mohiyatini anglab yetishga, jarayonlarni to'g'ri tasvirlashga qaratilgan;
- organizmlarning shaxsiy rivojlanishi: embrional va postembrional rivojlanishi, organizmlarning ko'payishi - mitoz va meyoz bosqichlari bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarning mohiyatini;
- organizmlarning urug'lanishi, gametogenez bosqichlari haqidagi bilimlar;

- genetika asoslari, modifikatsion, mutatsion o‘zgaruvchanlikni o‘rgaishga oid bo‘lgan;
- seleksiya asoslari ya’ni o’simlik, hayvon, mikroorganizmlar seleksiyasi va O‘zbekistonda seleksiya yutuqlari doir bilim, ko‘nikma va malakalar hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari muhim hisoblanadi.

## **SITOLOGIYA ASOSLARI BOBINI O‘QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH**

Biologik ta’lim samaradorligini oshirish va o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bevosita o‘qituvchilarning ilmiy - metodik tayyorgarligiga bogliq. Mazkur vazifalarni bajarish jarayonida o‘qituvchi o‘quv yili boshidanoq tizimli ravishda o‘z ustida ishlashi lozim. Hujayra haqidagi bilimlarni kengaytirish va o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishda biologik masala va mashqlardan foydalanish muhim amaliy ahamiyotga ega. Hujayra bobি bo‘yicha masala va mashqlar tuzish hamda nostandard topshiriqlar tuzish va yechish jarayonida o‘qituvchi yoki o‘quvchi:

- sitologiya - hujayra haqidagi fan ekanligi, hujayrani o‘rganish tarixi va bosqichlari, hujayra tirkilik tuzilishi, funksiyasi va rivojlanishining eng kichik birligi;
- hujayra nazariyasi, uning hozirgi zamon asosiy qoidalari va ahamiyati, hujayrani o‘rganish metodlari, hayotning hujayrasiz shakllari - viruslar, ularlarning tuzilishi, xilma-xilligi, kelib chiqishi;
- prokariot hujayralar - bakteriya hujayrasining tuzilishi, bakteriyalardagi hayotiy jarayonlari: oziqlanish, nafas olish, ko‘payish, spora hosil bo‘lishi jarayonlari, bakteriyalarning tabiatdag‘i va inson hayotidagi ahamiyati, ko‘k-yashil suvo‘tlar hamda o‘ziga xos tomonlari;
- eukariot hujayraning tuzilishi, plazmatik membrana, plazmatik membrananing tuzilishi, xususiyatlari, funksiyalarini;
- sitoplazma, hujayraning membranasiz va membranalı organoidlari: endoplazmatik to‘r, ribosomalar, golji majmuasi, mitokondriya, plastidalar, lizosomalar, vakuolalar, hujayra markazi, sitoskelet, hujayraning harakat organoidlari, ularning tuzilishi, funksiyalari, kiritmalar, ularning xilma-xilligi, ahamiyati;

– yadro, uning tuzilishi, funksiyalari, xromosomalar, ularning tuzilishi, somatik va jinsiy hujayralar hamda kariotip, genom haqida tushunchalar;

– prokariot va eukariot hujayralarning tuzilishidagi o'xshashlik va farqlarni, bakteriya, zamburug', o'simlik va hayvon hujayralarning tuzilishidagi o'xshashlik va farqlarni hamda eukariot hujayraning kelib chiqishi haqidagi bilimlarni bilishi lozim.

Sitologiya asoslari bobি bo'yicha biologik bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, o'quvchilar ongida ilmiy tushunchalarni shakllantirish jarayonida mazmun jihatidan tahlil qilinganda ustunlik biologik mashqlar (standart va nostandard topshiriqlar) bajarish, qisman masalalar yechish asosida shakllantirish mumkinligini aniqlandi. Quyida o'qituvchi yoki o'quvchiga ilmiy-metodik tavsiya sifatida ushbu bobি bo'yicha foydalanish mumkin bo'lgan masala va mashlarning zanjiri namuna sifatida berilmoqda.

*Hujayra bobи bo'yicha mustaqil ishlash uchun masala hamda mashqlar:*

1. Sitologiya nima haqidagi fan?
2. Hujayrani birinchi bo'lib qaysi olim tomonidan va qachon kashf etilgan?
3. Hujayrani atroficha o'rghanishga hissa qo'shgan olimlar haqida ma'lumot bering.
4. Hujayra nazariyasiga taalluqli quyidagi mashqni bajaring.

Bosqich	Yillar	Olimlar	Fan rivojiga qo'shgan hissasi
1. Hujayra tuzilishi haqidagi g'oyalarning paydo bo'lishi	1665-1680		
2. Hujayra nazariyasini yaratilishi	1838-1839		
3. Hujayra nazariyasini rivojlantirilishi	1858		
4. Hozirgi zamon hujayra nazariyasini qoidalari			

5. Elodeya o'simligining sitoplazma harakat tezligi  $37^{\circ}\text{C}$  20 mkm/s, valisneriyani ki  $38^{\circ}\text{C}$  40 mkm/s dan tezroq, nitellaning sitoplazmasini harakat tezligi  $30^{\circ}\text{C}$  90 mkm/s dan oshadi. Buning sababini izohlang.

6. Hujayraga oid bilimlaringizga asoslanib ribosoma va mitoxondriyaning vazifalarini taqqoslang. Ikkala organoidning bir-biriga qarama qarshi funksiyasiga yozma javob bering. Eslatma (bu topshiriq agar qiyin bo'lsa) a) hujayrada oddiy organik birikmalar bilan bir qatorda (misol uchun aminokislotalar) murakkab organik birikmalar (oqsillar) bo'ladi. Ribosomada organik moddalar qanday o'zgarishga uchraydi? Mitoxondriyada organik moddalarda qanday o'zgarish kechadi.

7. Hujayra organoidi bo'lgan ribosoma va mitoxondriyani nafas olish va oziqlanishga bog'liq hayotiy jarayonlarini taqqoslang.

a) hujayraning nafas olishi va oziqlanishi mitoxondriyaning qaysi vazifasi bilan bog'liq?

b) hujayraning nafas olishi va oziqlanishi ribosomani qaysi vazifasi bilan bog'liq? Yozma javob bering.

8. Quyida berilgan organoid va jarayonlarning tanlang, tanlagan organoid va jarayonni bir biriga bog'lagan holda ta'riflang.

1. Membrana	6. Hujayraning ko'payishi
2. Sitoplazma va yadro	7. Hujayraning bo'llinishi
3. Ribosoma	8. Hujayraning oziqlanishi
4. Mitoxondriya	9. Hujayraning nafas olishi
5. Xromosoma	10. Hujayraning nobud bo'lishi

9. Hujayralarning kattaligi turlicha, misol uchun tuyaqush tuxumining vazni 100 g dan 1.5 kg gacha boradi. Eritrotsitlarning o'g'irligi esa 0.000000001 g teng. Tuyaqush tuxumi eritrotsitdan qancha og'ir bo'llishini hisoblab topish mumkinmi? Mumkin bo'lsa eritrotsitning vaznidan tuyaqush tuxumi qancha og'ir bo'ladi?

10. Ma'lumki lizosomada oqsil, yog', uglevodlarni parchalovchi fermentlar mavjud. Bu fermentlar qaysi joyda sintezlanishi mumkin: lizosomadami, yoki biror bir boshqa joydami? Nima uchun bunday deb o'ylaysiz? Agar fermentlar boshqa joyda sintezlangan bo'lsa, qanday qilib lizosomaga o'tib qolgan?

11. Hujayra sitoplazmasi tarkibini qaysi moddalar tashkil etadi? Sitoplazma organoidlariga nimalar kirdi?

12. Hujayra membranasi qanday tuzilishga ega, bir qavat va ikki qavat membranalı organoidlar va membranasiz organoidlar haqida ma'lumot bering.

13. Sitoplazma kiritmalarining turlari va ularning hujayra uchun qanday ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib bering.

14. O'simlik va hayvon hujayrası qobig'ining tuzilishi va farqi, vazifalari haqida ma'lumot bering.

15. Ribosoma tuzilishi, hujayraning qaysi qismida sintezlanishi, shakli, kimyoviy tarkibi, turlari va vazifasi haqida ma'lumot bering.

16.  $\text{Na}^+$  va  $\text{K}^+$  ionlarning konsenratsiyasi va konsenratsiyalar farqini hujayra uchun qanday ahamiyati borligini tushuntiring.

17. Endoplazmatik to'r va golji majmuasi haqida ma'lumot bering. Bu ikkala organoidni bir – biridan farqli tomonini aytинг.

18. Hujayraning membranasiz organoidlari mavjudmi? Bo'lsa ularning tuzilishi va funksiyasi haqida ma'lumot bering.

19. O'simlik va hayvon hujayrasining o'xshashlik va farqli tomonlarini bayon eting.

20. Xromosomalar shakliga qarab qanday xillarga bo'linadi? Ularning rasmini chizing va tarkibini, qismlarini ta'riflang.

21. Darsilikdan olgan bilimlaringiz asosida quyidagi mashqni bajaring.

#### Organoidlarning tuzilishi va funksiyasi

Asosiy organoidlar	Tuzilishi	Funksiyasi
Hujayra qobig'i		
Sitoplazma		
Endoplazmatik to'r		
Ribosoma		
Gol'ji majmuasi		
Lizosoma		
Mitokondriya		
Plastida		
Hujayra markazi		
Vakuola		

22. Plastidalarning turlari va ularning o'ziga xos xususiyatilari va vazifalarini hisobga olgan holda quyidagi jadvalni to'ldiring.


Leykoplastlar

Xloroplastlar

Xromoplastlar



23. Quyidagi rasmda hujayra membranasi aks ettirilgan. Membrana qanday qismlardan tashkil topgan. Har bir qavatga ta'rif bering.



24. Endoplazmatik to'r tuzilishiga ko'ra silliq va donadorga ajratiladi. Endoplazmatik bunday ajratilishini sababi nima va ular qanday vazifalarni bajaradi?

25. Donador endoplazmatik to'r qaysi organoidlar bilan o'zaro tutashgan?

26. Mioxondriya qanday tuzilishga ega? Unga tuzilish jihatdan yana qaysi organoid o'xshaydi.

27. Yarim avtonom organoidlar bormi? Bo'lsa ular qaysilar? Nima uchun shunday ataladi? Javobingizni tushuntirib bering.


28.Membranali va membrasiz organoidlarga misollar keltiring.  
Ularning vazifasi nimadan iborat ekanligini tushuntiring.

29.Ikki qavt membranali organidlarni sanang. Ular hujayrada qanday vazifalarni amalga oshirishini ayting.


30.Hujayraning tayanch – harakatlanish tizimini qaysi organoidlar tashkil etadi?

31.Faqat o'simlik hujayrasi uchun xos organidlarni sanang.  
O'simlik hujayrasi bilan bakteriya hujayrasini farqli tomonlarini tushuntirib bering.

32.Sitologiya bobidan olgan bilimlaringizga tayangan holda quyidagi mashqni bajaring va har bir organoidga qisqacha ta'rif bering.




33.Jadvalni to'ldiring. Hujayra organoidlarini nomerlab, nomi va vazifasini ayting.




34.Zamburug' va bakteriya hujayralarining o'zshashlik va farqli tomonlarini ayting.

35.Quyidagi rasmni o'rganib chiqing va hujayra organoidlarini tuzilishiga e'tibor bering. Har bir organoid shakli va vazifasini ta'riflang.




36.Rasmda berilgan hujayra markazidan boshlab tartib bilan organoidlarning nomi, tuzilishi va vazifasi haqida ma'lumot bering




1. \_\_\_\_\_
2. \_\_\_\_\_
3. \_\_\_\_\_
4. \_\_\_\_\_
5. \_\_\_\_\_
6. \_\_\_\_\_
7. \_\_\_\_\_
8. \_\_\_\_\_
9. \_\_\_\_\_

37.O'qituchi rahbarligida ushbu rasmda berilgan hujayra qismlari mitoxondriyadan boshlab tartib bilan yozib chiqing.



38.Tuyaqush tuxumining vazni 100 g dan 1.5 kg gacha bo'lishi ma'lum. Qizil qon tanachalarining vazni qancha? U tuyaqush tuxumidan necha barobar yengil ekanligini hisoblab toping.

39. Quyidagi rasmda berilgan hujayralarni o'zaro taqqoslang.




40. Qaysi hujayralarni oddiy ko'z bilan ko'rsa bo'ladi?

41. Interfaza holatidagi yadro qanday qismlardan iborat? Yadroning qismlari qanday vazifalarni bajarishini tushuntirib bering.

42. Ribosoma qayerda sintezlanadi? Uning tarkibi qaysi mod-dalardan iborat?

43. Quyida qaysi organizmlar hujayrasi berilgan. Unda qaysi organoidlar aks etgan? Javobingizni yozing.



#### 44. O'simlik va hayvon hujayrasini taqqoslang

O'simlik hujayrasi

Hayvon hujayrasi

Oziqlanish usuli

Xlorofil va xloroplast

Vakuol

Hujayra markazi


Zahira uglevod

Mineral tuz

Hujayra bo'linishi

Kislorodsiz parchalanish


#### 45. Qaysi organizmlar hujayrasi aks etilgan? Ularni taqqoslang.



#### 46. Rasmda qaysi organoid aks etgan? Uning tuzilishi va funksiyasi haqida ma'lumot bering.




47. Mitokondriyaning qismlari va ularning vazifalari haqidagi ma'lumotni jadvalga yozing.



48. Darslikdan olgan bilimlar asosida quyidagi mashqni bajaring?  
Jadvalda berilgan sanalarda qanday kashfiyotlar qilingan?

Hujayra haqdagi tasavurlarning shakllanishining  
dastlabki bosqichlari



49.Darslikdan olgan nazariy bilimlar asosida quyidagi mashqni bajaring? O'simlik va hayvon hujayrasining farqli tomonlari.


Belgilar	O'simlik hujayrasi	Hayvon hujayrasi
Plastida		
Oziqlanishi		
ATF sintezi		
ATF parchalanishi		
Hujayra markazi		
Sellyuloza qobiq		
Kiritmalar		
Vakuola		

50.Hujayra organoidlari ularning tuzilishi va vazifasi yoritib bering?

Organoid	Tuzilishi	Vazifasi
Sitoplazma		
Membrana		
Endoplazmatik to'r		
Ribosoma		
Golji apparati		

Vakuola	<hr/> <hr/>
Lizosoma	<hr/> <hr/>

51. Quyidagi rasmida hujayra qismlari va unda kechadigan jarayonlar berilgan. Ularga ta’rif bering.



52. Hujayra markazining tuzilishi va vazifasi haqida ma'lumot bering.



53. Quyidagi mashqni bajaring.

Belgilari	Prokariot hujayra	Eukariot hujayra
Kattaligi		
Anaerob		
Azotni o'zlashtiradi		
Membranalı tuzilma		
Genetik material		
Joylashgan o'rni		
Shakli		
Xromosomasiz DNK		
Gistonli		
Bo'linish tipi		
Oqsil sintezi		
Ribosoma		
Sintez joyi		
Hujayra devori		
Tuzilish elementlari		



54. O'simlik hujayrasi qismlari bo'yicha krassvord. O'simlik hujayrasining qismlarini shunday yozingki o harfi barcha organoidlar uchun bir qatorda ishtirok etsin.

	1	
2		
3		
4		
5		


O


55. Krassvord. Agar krassvordni ishlab chiqsangiz mikroskopning ma'lum qismlari va hujayra organoidi, hamda hujayraning kashf etgan olimni nomi chiqadi.

Agar krassvordni to'g'ri ishlagan bo'lsangiz vertikal bo'yicha **sitologiya** so'zi chiqadi.



7. Birinchi bo'lib hujayrani kashf etgan olim.



56. Quyida plastida tuzilishi va qismlari ko'rsatilgan. Plastida qismlarini qanday ahamiyati borligini tushuntiring.



57. Darslikdan olgan nazariy bilimlar asosida quyidagi mashqni bajaring?

organoidlar organizmlar	Sitoplazma	Yadro	Mitochondriya	Plastida	Lizosoma	EPT	Ribosoma	Golji majmuasi	Hujayra devori	Kiritmalar	Maxsus organoidlar
Prokariotlar											
Bakteriyalar											
Ko'k yashil suvo'tlar											
Eukariotlar (Bir hujayra-lilar)											
Yashi suv o'tlari											

Izoh: + ishorasi organoid mavjudligini, - ishorasi organoidni yo'qligi, ? ishorasi esa bu organoid isbotlanmaganligini bildiradi

## HUJAYRA BO‘YICHA NOSTANDART TESTLAR

1. Quyida berilgan organoidlarning nomi va vazifasi bilan juftlab ko‘rsating.

I		1	Lizosoma	A	Hujayraning bo‘linishida ishtirot etish
II		2	Golji apparati	B	Lizosoma va membrana ni hosil qilish
III		3	Membrana	G	Uglevod va lipidlar sintezida ishtirot etish
IV		4	Silliq endoplazmatik to‘r	D	Moddalarni parchalash
V		5	Sentriola	J	Oqsil sintezlash
VI		6	Mitoxondriya	Z	ATF sintezi
VII		7	Donador endoplazmatik to‘r	K	Yarim o’tkazuvchanlik

**Javob:**


- A) I -3-K, II -4- G, III-5-A, IV-6-Z, V-2-B, VI-7-J, VII-1-D
- B) I -3-D, II -4- G, III-5-A, IV-6-Z, V-2-B, VI-7-J, VII-1-K
- C) I -3-G, II -4- K, III-5-A, IV-6-Z, V-2-B, VI-7-J, VII-1-D
- D) I -3-K, II -4- G, III-5-Z, IV-6-D, V-2-B, VI-7-J, VII-1-B

2. Quyidagi jadvalda berilgan organoidlarni tuzilishi bilan juftlab ko‘rsating.

1	Plastida	A	Devorini mikronaycha tripletlar tashkil etadi
2	Endoplazmatik to‘r	B	Membranasida 40ga yaqin gidrolitik fermentlar joylashgan
3	Sentriola	C	Ikki qavat membranadan tashkil topgan ichki qavat membranasi krista deyeyiladi
4	Lizosoma	D	Ikki qavat membranadan tashkil topgan ichki qavat membranasi stroma deyeyiladi

**Javob:** 1-            2 -            3 -            4 -


3.O'simlik hujayrasining tuzilishida berilgan raqamlarni jadvaldagি mos javoblarga juftlab ko'rsating.



Hujavra qismlari		
A	Donador endoplazmatik to'r	1
B	Yadro qobig'i	2
S	Yog` donachalari	3
D	Fermentativ kanalcha	4
E	Membrana	5
F	Plastida	6
G	Sitoplazma	7
H	Silliq endoplazmatik to'r	8
J	Yadrocha	9
K	Yadro shirasi	10
L	Aleyron donachalar	11
P	Golji majmuasi	12
R	Mitokondriya	13
Z	Vakuola	14
X	Hujayra qobig'i	15

A- | B- | S- | D- | E- | F- | G- | H- | J- | K- | L- | P- | R- | Z- | X-

4. Hayvon hujayrasining tuzilishida berilgan raqamlarni jadvaldagи mos javoblarga juftlab ko'rsating.



Hujavra qismlari		
A	Ribosoma	1
B	Sitoplazma	2
S	Lizosoma	3
D	Yadrocha	4
E	Golji majmuasi	5
F	Silliq endoplazmatik to'r	6
G	Hujayra qobig'i	7
H	Kiritma	8
J	Donador endoplazmatik to'r	9
K	Yadro	10
L	Hujayra markazi	11
P	Mitokondriya	12

A- | B- | S- | D- | E- | F- | G- | H- | J- | K- | L- | P-

5.Darslikdan olgan nazariy bilimlar asosida quyidagi mashqni bajaring? Hujayra organoidlari berilgan ularning nomini jadvalga yozing.



**Javob:**



6. Rasmda berilgan hujayralarni qaysi organizmlarga xos ekanligini aniqlang va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.



1	Ko'k yashil suvo'ti	a		
2	Hayvon	b		
3	Bakteriya	v		
4	O'simlik	g		
Javobi:		1-	2-	3-
		4-		

7. Plazmatik membrananing qismlari va ularning vazifalarini juftlab o'rsating?

1	Lipidning gidrofil boshchasi		A	Retseptorlik
2	Lipidning gidrofil dumchasi		V	Hujayra qoig'ini hosil qilish
3	Oqsil molekulasi		S	Lipid qatlamini yuza qavatini hosil qilish
4	Uglevod		D	Ikkita lipid qatlamni bog'lash
5	Lipid molekulasi		G	Membranani suvda erimasligini ta'minlash
6	Ikki qavatli lipid qavati			
1-	2-	3-	4-	5-
				6-

8. Quyida berilagan fikrlarning qaysilari to‘g‘ri? Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing.

A. Plazmatik membrana faqat ikki qavat oqsil va bir qavat lipiddan iborat.

B. Ribosomaning asosiy vazifasi oqsil sintezlashdir.

C. Hujayra markazi devori to‘qizta triplet naychalardan tashkil topgan.

D. Endoplazmatik to‘r ikki xil bo‘ladi.

E. Mitoxondriyada kislorodsiz parchalanish amalga oshadi.

F. Sitoplazmada kislorodli parchalanish amalga oshadi.

G. Lizosoma tufayli itbaliqning dumii yo‘qoladi.

A	B	C	D	E	F	G

9. To‘g‘ri fikrlarni aniqlang. Javoblar jadvaliga “ha” yoki “yo‘q” so‘zlarini yozing.

1. Hayvon hujayrasi tarkibida shirali vakuol bo‘ladimi?

2. Lizosoma ikki qavat membranali organoidmi?

3. ATF sintezi mitoxondriya va plastidada amalga oshadimi?

4. Ribosoma teng miqdorda lipid va nuklein kislotadan iboratmi?

5. Lizosomaning diametri 0.4 mkm ga tengmi?

6. Interfaza xolatidagi yadro to‘rtta qismidan iboratmi?

7. Golji majmuasi plazmatik membranani yangilaydimi?

8. Golji majmuasi bir qavat membrana, zikh joylashgan qopchalar, vakuola va pufakchalardan tashkil topganmi?

9. Xloroplastlarning ichki qavat membranalari kristalarni hosil qiladimi?

**Javob:**

1	2	3	4	5	6	7	8	9

10. Quyida membranasiz, bir qavatlari va ikki qavat membranali organoidlar berilgan. Ularni siz ajratib ko‘rsating?


1	A	Ribosoma	a	Uglevod va lipidlarni sintezlash
2	V	Lizosoma	b	Oqsil sintezlash
3	G	Golji apparati	s	Plazmatik membranani yangilash
4	D	Hujayra markazi	d	Hujayrani yoshini aniqlash

5	Y	Mitoxondriya	i	Hujayraning bo'linishida ishtirok etadi
6	J	Sitoskelet	l	ATF sintezlash
7	Z	Silliq EPT	k	Fotosintez va ATF sintezi
8	K	Plastida	m	Tavanch harakat
9	L	Vakuola	u	Moddalarni parchalash


Javob: Membranasiz:

Bir qavatlari:	Ikki qavatlari:
----------------	-----------------

### 11. Hujayra organoidlarini raqamlar bilan juftlab ko'rsating.



### 12. Eukariot va prokariot hujayralarning qismlarini raqamlar bilan juftlab ko'rsating



13. Quyida berilgan olimlar hujayra nazariyası sohasında qanday kashfiyatlar qılışghan javoblarlingizni juftlab ko'rsating.


1	R. Guk	A	1839	Diktiosomani	a
2	R. Broun	B	1671	Urug'langan tuxum hujayrani	b
3	A. Levenguk	V	1831	Hujayra nazariyasını	v
4	M. Malpigi, N. Gryu	G	1838	Hujayra ichi suyuqligini	g
5	Y. Purkinje	D	1839	Hujayraning bo'linishini	d
6	T. Shvan, M. Shleydan	J	1665	Hayvon hujayralari	j
7	R. Virxov	Z	1680	O'simlikning hujayraviy tuzilishi	z
8	K. Ber	I	1871	Yadroni kashf etgan	i
9	K. Golji	K	1859	Hujayrani kashf etgan	k
1-	2-	3-	4-	5-	6-
7-	8-	9-			

14. Mitokondriyaning uch o'lchamli fazoviy tuzilishi(A) ko'ndalang kesimi (B) qismlarini nomini yozing va javoblarni juftlab ko'rsating.

A	
1	
2	
3	
Б	
1	
2	
3	
4	
5	
6	

Javob: A 1- 2- 3- Б 1- 2- 3- 4- 5- 6-


15. O'simlik hujayrasining elektron mikroskopda ko'rinishi quyidagi rasmida berilgan. Uning organoidlarini raqamlarga juftlab ko'rsating.




16. Hujayra organoidlarini funksiyalariga moslab "Ha" yoki "Yo'q" so'zlarini yozing.

Oqsil sintezlash	Ribosoma
Fotosintez jarayonida ishtirok etish	Leykoplast
ATF sintezlash	Mitoxondriya
Moddalarni parchalash	Endoplazmatik to'k
Mevalarga ta'm berish	Vakuola
Fagotsitoz va pinotsitoz amalga oshadi	Membrana
Organik moddalarni parchalash	Lizosoma


17. Plastidaning uch o'lchamli fazoviy tuzilishi(A) ko'ndalang kesimi (Б) qismlarini nomini yozing va javoblarni juftlab ko'rsating.




18. Darslikdan olgan nazariy bilimlar asosida quyidagi mashqni bajaring? Endoplazmatik to'rning qismlarini juftlab ko'rsating.



19. Endoplazmatik to'r membranalardagi ribosomaning tuzilishi-dagi raqamlarga uning qismlarini juftlab ko'rsating.



20. Quyida plazmoliz berilgan A- turgor holatdagı hujayra (izotonik eritma); B-plazmolizning boshlanishi (6% KNO<sub>3</sub> eritmasiga solingen hujayra); V- to'liq plazmoliz (10% KNO<sub>3</sub> eritmasiga solingen hujayra) ta'rif bering va hujayra qismlarini raqamlarga juftlab belgilang.



21. Quyidagi jadvalda organoidlar tuzilishi berilgan ularni juftlab ko'rsating.

1	Hujayra umumiy bajmini 30-50%ni tashkil etadi	A	Hujayra markazi
2	Zich joylashgan qopchalar tizimi, vakuolalar va pufakchalardan tashkil topgan	B	Lizosoma
3	Katta va kichik yassi tanachalardan iborat	V	Golji apparati
4	Membranasida gidrolitik fermentlar joylashgan	S	Mitoxondriya
5	Ikki qavat membranalardan iborat, ichki qavat membrasi krista deb ataladi	D	Plastida
6	Ichki qavat membranasi stroma deb ataladi	G	Vakuola
7	Devori to'qqiz triplet naychalardan tashkil topgan	J	Ribosoma
8	Tarkibida organik birkimlar va tuzlardan tashkil topgan	E	Endoplazmatik to'r
1-	2-	3-	4-
5-	6-	7-	8-


22. Darslik va ilmiy ommabob adabiyotlardan olgan nazariy bilimlar asosida quyidagi mashqni bajaring? Quyida jadvalda berilgan organoidlarni kashf etgan olimlar bilan juftlang.

1	Endoplazmatik to'r	1889	A	R.Broun
2	Ribosoma	1955	B	J. Palade
3	Golji majmuasi	1945	V	R. Altman
4	Mitokondriya	1676	G	K. Golji
5	Plastida	1894	D	A. Levenguk
6	Yadro	1831	E	K.Pokter
1-	2-	3-	4-	5-
				6-

23. Quyida berilganlarning javoblarini juftlab ko'rsating.

1	Invaginatsiya nazariyasi	A	Suyuq moddalarni membrana orqali o'tishi
2	Simbioz gipotezasi	B	Qattiq moddalarni membrana orqali o'tishi
3	Ko'p genomli nazariya	V	Yashil pinmentlar, fotosintezda ishtirok etish
4	Xloroplast	G	Har xil rangga ega plastidalar
5	Xromoplast	D	Monosaxarid, disaxaridlar hosil qilishda ishtirok etadi.
6	Leykoplast	E	Membrana orqali moddalarni tashqariga chiqishi
7	Fagotsitoz	J	Eukariot hujayra har xil prokariotlardan kelib chiqqan
8	Pinotsitoz	Z	Eukariot hujayra hujayra qobigining botib kirishi hisobiga hosil bo'ladi
9	Ektotsitoz	L	hujayra genomining ayrim qismlari hisobiga hosil bo'ladi
1-	2-	3-	4-
			5-
			6-
			7-
			8-
			9-

25. Quyida hujayra markazi va sitoplazmaning boshqa organoidlari berilgan. Ularni raqamlarga juftlab ko'rsating



A	Donador endoplazmatik to'r
B	Sentriolaning uzunasiga kesigi
V	Mitoxondriya
G	Golji majmuasi
D	Hujayra markazi
YE	Mikronaycha
J	Satella
Z	Pufakchalar
L	Sentrosfera

1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-	8-	9-
----	----	----	----	----	----	----	----	----

### Sitologiya bobbi bo'yicha bilimni nazorat qilish uchun test topshiriqlari

1. Hozirgi vaqtida hujayra nazariyasiga mos keladigan ta'rifni toping.

1)har bir hujayra bo'linish yo'li bilan ko'payadi; 2)hujayraviy tuzilish irsiy axborotning saqlanish va nasllarga berilishini ta'minlaydi; 3)ko'p hujayrali organizmlar hujayralarining o'xshashligi ularning tuzilishi, funksiyasi bilan kimyoviy tarkibida ham namoyon bo'ladi; 4)hujayra tiriklikning tuzilishi, funksiyasi va rivojlanishining eng kichik birligidir; 5)barcha organizmlar hujayrasi tarkibi 3 ta asosiy qism, ya'ni membrana, sitoplazma va mag'izdan tashkil topgan; 6)ko'p hujayrali organizmlarda har xil ixtisoslashgan hujayralar birgalikda to'qimalarni hosil qiladi; 7)organizm tarkibidagi barcha hujayra va to'qimalarning tarkibi bir xil va funksiyalari ham o'xshash.

- A) 1, 2, 3, 4, 5
- B) 1, 2, 3, 4, 6, 7
- C) 1, 2, 3, 4, 6
- D) 1, 2, 3, 4, 5, 6

2. Quyidagilardan mitoxondriyaga xos xususiyatlarni belgilang.

- 1) ATF sintez qiladi; 2) membranasida ko'p fermentlar bor; 3) ikkala membranasi energiya almashinuvida qatnashadi; 4) sintez jadal boradigan hujayralarda ko'p; 5) barcha hujayralarda minglab uchraydi; 6) kislorod ishtirokisiz ATF sintezlaydi; 7) kislorod ajratadi; 8) o'simlik, hayvon, zamburug' hujayralarida uchraydi; 9) zamburug'larda uchramaydi; 10) quyosh energiyasi hisobiga suvni parchalaydi; 11) quyosh energiyasi hisobiga ATF hosil qiladi; 12) ATF sarflab organik modda hosil qiladi

A) 1,2,6,8

B) 3,5,7,9

C) 1,2,4,8

D) 8,10,11,12

3. Quyidagilardan xloroplastga xos xususiyatlarni belgilang.

- 1) ATF sintez qiladi; 2) membranasida ko'p fermentlar bor; 3) ikkala membranasi energiya almashinuvida qatnashadi; 4) sintez jadal boradigan hujayralarda ko'p; 5) barcha hujayralarda minglab uchraydi; 6) kislorod ishtirokisiz ATF sintezlaydi; 7) kislorod ajratadi; 8) o'simlik, hayvon, zamburug' hujayralarida uchraydi; 9) zamburug'larda uchramaydi; 10) quyosh energiyasi hisobiga suvni parchalaydi; 11) quyosh energiyasi hisobiga ATF hosil qiladi; 12) ATF sarflab organik modda hosil qiladi

A) 1,6,7,9,10,11,12

B) 2,3,4,6,7

C) 5,6,7,9,10,12

D) 3,4,8,11,12

4. Quyidagilardan mitoxondriyaga va xloroplastga xos umumiy xususiyatlarni belgilang.

- 1) ATF sintez qiladi; 2) nukleoproteinli tuzilishi uchraydi 3) ikkala membranasi energiya almashinuvida qatnashadi; 4) sintez jadal boradigan hujayralarda ko'p; 5) barcha hujayralarda minglab uchraydi; 6) kislorod ishtirokisiz ATF sintezlaydi; 7) kislorod ajratadi; 8) o'simlik, hayvon, zamburug' hujayralarida uchraydi; 9) zamburug'larda uchramaydi;

A) 4,5,6

B) 3,7,9

C) 8,12

D) 1,2

5. Elektron va yoru'glik mikroskopiga tegishli belgilarni tegishli ravishda juftlang?

a-Yorug'lik mikroskop; b-Elektron mikroskop;

1-Tasvirni 10-2000 martagacha kattalashtirib ko'rsatadi;

2-Tasvirni 200 000 martagacha kattalashtirib ko'rsatadi;

3-O'rghanilayotgan tasvirni yorug'lik nurlarida hosil qilinadi;

4-O'rghanalayotgan tasvimi elektron oqimi yordamida hosil qilinadi; 5-Uni takomillashtirish orqali uch o'lchamli tasvirlar olishga muvaffaq bo'lindi; 6-U yordamida hujayraning nozik yuzilmalarini ko'rish imkoniyati paydo bo'ldi;

A)a - 1, 3; b - 2, 4, 5, 6;

B)a - 2, 3; b - 1, 4, 5, 6;

C)a - 1, 5; b - 1, 3, 4;

D)a - 2, 3; b - 1, 4, 6;

6. Organoidlarga tegishli to'gri fikrlarni juftlang?

1-Ribosoma 2-Golji majmuasi 3-Lizosoma 4-Mitokondriya

a - 15-35nm b - Sisternalar tizimidan iborat c - 0.4 mkm diametrga ega d - 0.2 dan 15 - 20 mkm kattalikka ega;

A)l - b; 2 - c; 3 - d; 4 - a;

B)l - a; 2 - b; 3 - d; 4 - c;

C)l - a; 2 - b; 3 - c; 4 - d;

D)l - c; 2 - d; 3 - a; 4 - b;

7. Hujayra nazaiyasini yaratgan olimlarni belgilang?

A) B.Braun, Y.Purkine

B)M.Shleyden, T.Shvann

C)T.Shvann, R.Virxov

D)M.Shleyden, T.Shvann, R.Virxov

8. Quyidagi hujayrlarning ular og'irliklari va tegishli fikrlarni aniqlab juftlang?

1-Tuyaqush tuxumi; 2-Eritrositlar; 3-Oddiy ko'z bilan ko'rish mumkin; 4-Eng katta hujayralardan biri;

a - 100g dan 1,5 kg gacha; b -  $10^{-9}$ g (ya'ni, 0, 000 000 001 g) ga teng; c - Tarvuz; d - Qushlarning tuxumi;

A)l - b; 2 - c; 3 - d; 4 - a;

B)l - a; 2 - b; 3 - c; 4 - d;

C)l - a; 2 - b; 3 - d; 4 - c;

D)l - c; 2 - d; 3 - a; 4 - b;

9. Yadro shirasi tarkibiga qanday moddalar kiradi?

1 – Har xil oqsillar; 2 – Uglevodlar; 3 – Erkin nukleotidlar; 4 –  
Yog‘lar; 5 – Aminokislotalar; 6 – Vitaminlar

A) 1, 4, 5 B) 2, 4, 6 C) 5, 3, 6 D) 1, 3, 5

10. Hujayra nazariyasi tufayli organizmlar qanday asosga ega  
ekanligi isbotlanganligini aniqlang?

A) Bir xil anatomik

B) Har-xil morfologik

C) Har xil anatomik

D) Bir xil morfologik

11. Ona bakteriya hujayrasidan ajralgan spora qanday qismlarga ega  
bo‘ladi?

1–Xromosoma; 2–Golji majmuasi; 3–Membrana; 4–Endoplazmatik  
to‘r; 5–Qalin hujayra qobig‘i; 6 – Yadro.

A) 1, 4, 5

B) 2, 4, 6

C) 5, 3, 6

D) 1, 3, 5

12. Glikogen sintezi qanday hujayralarda va qaysi organoid  
tomonidan amalga oshiriladi?

A) Jigar hujayrasi; silliq endoplazmatik to‘r

B) Taloq hujayrasi; donador endoplazmatik to‘r

C) Jigar hujayrasi; donador endoplazmatik to‘r

D) Taloq hujayrasi; silliq endoplazmatik to‘r

13. Ribosomalarda teng miqdorda qanday moddalar mavjud?

A) Uglevod va oqsil

B) Yog‘ va uglevod

C) Oqsil va nuklein kislota

D) Nuklein kislota v uglevod

14. Lizosoma qanday organoidlardan hosil bo‘lishi mumkin?

A) Golji apparati yoki mitoxondriya

B) Endoplazmatik to‘r yoki yadro

C) Golji apparati yoki plastida

D) Golji apparati yoki endoplazmatik to‘r

15. Mitoxondriyaning tashqi va ichki membranasining tuzilishini  
belgilang?

A) Burmali; silliq

B) Burmali; burmali

C) Silliq; burmali

D) Silliq; silliq

16. Sentrifuga asbobi yordamida qaysi organoidlar ayrim – ayrim holda ajratib olingan?

1 – Ribosoma; 2 – Golji majmuasi; 3 – Xloroplast; 4 – Endoplazmatik to'r; 5 – Mitoxondriya; 6 – Yadro.

A) 1, 4, 5

B) 2, 4, 6

C) 3, 5, 6

D) 2, 3, 5

17. Simbioz gipotezasiga ko'ra qaysi organoidlar mustaqil kelib chiqishga ega?

A) Golji apparati, mitoxondriya

B) Mitoxondriya, xloroplast

C) Golji apparati, plastida

D) Endoplazmatik to'r, Golji apparati

18. Tashqi membrana zaxirasi bu - ...

A) Mezasoma

B) Lizosoma

C) Sentrosoma

D) Mikrosoma

19. Barcha hujayralar tarkibida (I), ayrim turdag'i hujayralarda (II) uchraydigan organoidlarni aniqlang?

1) Mitoxondriya; 2) Hujayra markazi; 3) Golji apparati;

4) Miofibrilla; 5) Ribosoma; 6) Kiprikcha; 7) Endoplazmatik to'r;

A) I-1, 2, 3, 4, 5, 6; II-7

B) I-1, 2, 3, 5, 7; II-4, 6

C) I-4, 6, 7; II-1, 2, 3, 5

D) I-1, 3, 5, 7; II-2, 4, 6

20. Yadro tarkibiga yadrochadan tashqari yana qanday tuzilmalar kiradi?

A) Bo'linish urchig'i, yadro shirasi

B) Yadro shirasi, xromatin

C) Yadro qobig'i, yadro shirasi

D) Xromatin, mikronaycha

21.Ko‘p genomli gipotezaga binoan qaysi tuzilmalar yoki hujayra tarkibiy qismlarining plastik jarayonlari bir – biriga o‘xshash bo‘ladi?

- A)Yadro va yadrocha
- B)Yadro va xloroplast
- C)Sitoplazma va lizosoma
- D)Yadro va sitoplazma

22. Protoplazma tushunchasini fanga kim kiritgan?

- A)R.Guk
- B)Y. Purkine
- C)M.Shleyden
- D)T.Shvann

23.R.Virxov asos solgan nazariyaga mansub bo‘lmagan tushunchani belgilang?

- A)Hujayrasiz hayot yo‘q
- B)Hujayraning tarkibiy qismi yadro
- C)Hujayra faqat hujayradan ko‘payadi
- D)Hujayra tarkibiy qismi sitoplazma

24.Invaginatsiya gipotezasi qaysi organoidlar tuzilishini va kelib chiqishini osonlik bilan tushuntirib beradi?

1–Ribosoma; 2–Goljji majmuasi; 3–Xloroplast; 4–Mitoxondriya;  
5–Endoplazmatik to‘r; 6 – Yadro.

- A) 1, 4, 5
- B) 3, 4, 6
- C) 5, 3, 6
- D) 1, 3, 5

25.Katta va kichik bo‘lakchalardan iborat yassi tanachalarga ega bo‘lgan organoidni aniqlang?

- A)Goljji majmuasi
- B)Endoplazmatik to‘r
- C)Ribosoma
- D)Lizosoma

26.Yumaloq (I), yulduzsimon (II), o‘simtasimon (III), amyobasimon (IV) shaklga ega bo‘lgan hujayralarni ajratib ko‘rsating?

a)Yog‘ hujayrasi; b)Biriktiruvchi to‘qima hujayralari; c)Tuxum hujayra; d)Nerv hujayrasi; e)Leykotsitlar

- A) I - a, c; II - b; III - d; IV - b, e
- B) I - a, c; II - b; III - e; IV - d

C) I - c; II - b; III - a, d; IV – e

D) I - d; II - a, c; III - b; IV – e

27. Shakllanish darajasi har xil bo'lgan ribosomalar va r-RNK to'plamidan iborat tuzilma bu-...

A)Yadro shirasi

B)Yadrocha

C)Xromatin

D)Mitoxondriya

28.Qaysi plasitada meva va o'simliklarga rang beruvchi karotinoidlarni saqlaydi?

A)Leykoplast

B)Xloroplast

C)Xromoplast

D)Fikotsian

29. Golji apparati tarkibiga nimalar kiradi?

1–Vakuola; 2–To'rsimon tuzilmalar; 3–Katta va kichik bo'lak-chalar; 4–Kichik pufakcha; 5–Sisternalar; 6–O'tkazuvchi kanallar

A)1, 4, 5

B)2, 4, 6

C)5, 3, 6

D)1, 3, 5

30.Xlorella suvo'tining infuzoriya bilan birga hayot kechirishini tushuntiruvchi gipoteza bu - ...?

A)Simbioz

B)Invaginatsiya

C)Ko'p genomli

D)Evoultsion

31.Eukariot hujayraning asosiy tarkibiy qismlari to'g'ri berilgan javobni belgilang?

A)Tashqi sitoplazmatik membrana, sitoplazma va ribosoma

B)Ichki sitoplazmatik membrana, sitoplazma va yadro

C)Tashqi sitoplazmatik membrana, sitoplazma va yadro

D)Mezasoma, sitoplazma va yadro

32.Ko'pchilik mikroorganizmlarning tarkibida qaysi organik moddalar zaxira sifatida to'planadi?

A)Polisaxaridlar, polifosfat, yog'lar;

B)Difosfatlar, oddiy yog'lar, momosaxaridlar;

- C) Difosfat, oddiy yog'lar, polisaxaridlar;  
D) Mikroorganizmlar tarkibida organik moddalar to'planmaysi;
33. Xromosomlar shakli nimaga bog'liq?  
A) r-RNKga  
B) Sentromera  
C) Setoskletga  
D) Spirallashish darajasiga
34. Bakteriyalarning hayot faoliyati jarayonlari bilan bog'liq fermentlar... biriktirilgan bo'ladi?  
A) Sitoplazma bo'ylab tarqalib ketgan yoki membranalarning tashqi tomoniga  
B) Sitoplazma markazida yoki membranalarning ichki tomoniga  
C) Sitoplazma bo'ylab tarqalib ketgan yoki membranalarning ichki tomoniga  
D) Yadro bo'ylab tarqalib ketgan yoki membranalarning ichki tomoniga
35. Quyidagi javoblardan yumaloq hujayralarni belgilang?  
A) Leykotsitlar va ayrim biriktiruvchli to'qima hujayralari  
B) Tuxum va yog' hujayralari  
C) Biriktiruvchi to'qima hujayralari  
D) Nerv hujayralari
36. Olimlar va ularning kashfiyotlarini mos ravishda juftlab bering?  
1) Y.Purkine; 2) A.Levenguk; 3) R.Virxov; 4) M.Shleyden va T.Shvannlar  
a) Birinchi bo'lib hujayra nazariyasining qoidalarini taklif qilgan;  
b) Eritrotsitlarni o'rgangan; c) Hujayrasiz hayot yo'qligi va hujayra faqat hujayradan ko'payishini isbotlagan; d) Protoplazmani aniqlagan.  
A) 1-d, 2-b, 3-c, 4-a  
B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-a  
C) 1-b, 2-d, 3-b, 4-a  
D) 1-c, 2-d, 3-a, 4-a

## HAYOTIY JARAYONLARNING KIMYOVIY ASOSLARIGA OID MASALA VA MASHQLAR

Mazkur mavzularni o'qitishdan maqsad tirik organizmlarning elementar tarkibi, hujayra tarkibiga kiruvchi elementlar, tirik organizm hujayrasidagi vazifalari, hujayra tarkibidagi anorganik moddalar, ularning bajaradigan funksiyalari, suv va uning hujayra hayotiy faoliyatidagi ahamiyati, mineral tuzlar hamda ularning hujayra hayotiy faoliyatidagi ahamiyati bilan o'qituvchi yoki o'quvchilarni ilmiy dunyoqarashini kengaytirish hisoblanadi.

Hayotning molekulyar asoslari, hujayradagi biopolimerlarning tuzilishi va funksiyalarining xususiyatlari, ularning hujayralarning strukturasi hosil bo'lishidagi hayot faoliyati jarayonlaridagi, hujayralar bo'linishidagi, irlsiy belgilarning shakllanishi va nasldan naslga o'tishdagi roli haqidagi bilimni chuqurlashtirishdan iborat.

Molekulyar biologiyaga asoalariga oid barcha mavzularning materialini shartli ravishda ikki qismga bo'lish mumkin:

1. Makromolekulalarning fizik – kimyoviy xususiyatlari va funksiyalari.

2. Hujayradagi makromolekulalar funksiyasiga bog'liq bo'lgan jarayonlar.

Ushbu bobdan o'rin olgan mavzularni o'rganish davomida biologik masala va mashqlardan foydalanish mavzularning eng qiyin tomonlarini tushunib, ular haqida mulohaza yuritishga yordam beradi. Molekulyar biologiyadan masala va mashqlar tuzishda uni hujayralardagi makromolekulalarni fizik kimyoviy xususiyatlari hamda ular bilan bog'liq bo'lgan jarayonlar haqidagi fan ekanligini hisobga olish kerak.

Hujayra tarkibiga kiruvchi birikmalarni shartli ravishda ikki guruhga: anorganik moddalar va organik moddalarga bo'lish mumkin.

Hujayraning kimyoviy tarkibiga kiradigan anorganik moddalarga oid mavzularni o'qitishda o'quvchilar o'zlashtirgan bilimlarini nazorat qilish jarayonida biologik masalalarga emas balki mashqlar bajarishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. O'quvchi mavzular mazmunini to'liq mohiyatini tushunib yetish jarayonida anorganik va organik kimyo, fizika, matematika fanlaridan olgan bilimlaridan yangi kutulmagan vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.



Barcha organik moddalar tarkibiga kiruvchi hujayraning 98% ini tashkil etuvchi kimyoviy elementlar

Element	% uchrashi	Nimalar tarkibida uchrashi va vazifasi
Kislorod	65—75	
Uglerod	15—18	
Vodorod	8—10	
Azot	2—3	

### Makroelementlar

Element	% uchrashi	Nimalar tarkibida uchrashi va vazifasi
Kalsiy	0,04—2,00	
Fosfor	0,2—1,0	
Kaliy	0,15—0,4	
Sera	0,15—0,2	
Xlor	0,05—0,1	
Natriy	0,02—0,03	
Magniy	0,02—0,03	

### Mikroelementlar

Mikroelementlarga vanadiy, germaniy, yod (qalqonsimon bez gormoni tiroksin tarkibida) kobalt (vitamin B<sub>12</sub>), marganes, nikel,

ruteniy, selen, ftor (tish emali), mis, xrom rux, molibden (atmosferadagi azotni toplashda), bor (o'simliklarda o'sish jarayoniga ta'sir qiladi) kiradi. Ular hujayra massasini 0.001% dan 0.000001% gachani tashkil etadi.

### **Ultramikroelementlar**

Ultramikroelementlar hujayraning 0,0000001 % ini tashkil etadi, ularga oltin, kumush kabilar kiradi, simob buyrak kanalchalarida siydkning qayta so'rilihiga va fermentlar faoliyatiga ta'sir qiladi. Shuningdek ultramikroelementlarga platina va seziy kabilar ham kiradi. Ultramikroelementlar vazifasi juda kam o'rganilgan.

## **HUJAYRANING KIMYOVİY TARKIBİGA BO'YİCHA MASHQLAR**


1. Hujayra tarkibini 98% ini tashkil etadigan kimyoviy elementlarni yozing.

2. Hujayra tarkibini 1.9% ini tashkil etadigan kimyoviy elementlarni yozing.

3. Bir sekund davomida kalmarning nerv hujayralari membranasining  $1\text{sm}^2$  yuzasidan 100 mlrd natriy ionlari o'tadi, buning uchun hujayrada hosil bo'lgan energiyaning 20% i sarf bo'ladi. Hisoblangchi 1 minut davomida membranadan qancha natriy ioni o'tishi mumkin.

4. Darslikdan olgan bilimlaringiz asosida quyida berilgan mashqni bajaring.

Hujayra tarkibida uchraydigan organik moddalar uning qaysi qismida uchrashini aniqlang.




#### 5.Jadvalni to'ldiring.

Hujayra moddaları	Elementar tarkibi	Molekulyar massasi	Muhim xususiyati	Hujayradagi roli
Suv				
Oqsil				
Uglevod				
Lipid				
Nuklein kislota				
ATF				

6.Quyida berilgan kimyoviy elementlar va birikmalarini shunday tanlangki ular tarkibiga tanlangan elementlar kirsin. Organik moddalarning vazifalarini ayting.

1. O	7. CO <sub>2</sub>
2. N, O	8. Suv
3. N, H	9. Yog'
4. C, H, O	10. Oqsil
5. C, H, O, N	11. Uglevod
6. Tuzlar	12. Nuklein kislota


7. Darslikdan olgan bilimlaringiz asosida quyida berilgan mashqni bajaring.



8. Quyida oqsil strukturalari berilgan. Ularga ta'rif bering.



9. Quyida keltirilgan tasvirlarda qanday birikmalar tasvirlangan. Javobingizni izohlang.



10. Jadvalni o'rganib chiqing makro, mikro, ultramikroelementlar haqida ma'lumotga ega bo'ling.

Tirik organizmlar hujayrasi tarkibiga kiradigan elementlar % da

Makroelementlar (0,001% gacha)	Mikroelementlar (0,001 dan 0,000001% gacha)	Ultramikroelementlar (0,000001% dan kam)
Kislorod (65-75%)	Bor	Uran
Uglerod (15-18%)	Kobalt	Radiy
Azot (1.5-3)	Mis	Oltin
Vodorod (8-10)	Molibden	Simob

Fosfor (0.2-1.00)	Rux	Berilliy
Kaliy (0.15-0.4)	Vanadiy	Seziy
Oltингugurt(0.15-0.15)	Iod	Selen
Temir (0.01-0.15)	Brom	
Magniy (0.02-0.03)		
Natriy (0.02-0.03)		
Kalsiy (0.04-2.00)		

11. Quyida berilgan kimyoviy elementlar organizmda qanday vazifalarni bajaradi?

Na, K, Cl \_\_\_\_\_

Ca va P \_\_\_\_\_

Fe \_\_\_\_\_

Mg \_\_\_\_\_

I \_\_\_\_\_

Zn \_\_\_\_\_

Co \_\_\_\_\_

12.Tana og'irligi 15 kg bo'lgan yashil o'simlik hujayralarining necha kg suvgaga to'g'ri kelishini hisoblab toping.

13.Agar hujayra tarkibini 0.02%ini mikroelementlar tashkil etsa, qolgan qismmini qaysi elementlar tashkil etadi? Ularning nomini taxminiy foizini ayting.

14. Agar bitta tish emalining vazni 2.1 grammni tashkil etsa, uning tarkibini necha foizini suv tashkil etishini hisoblab toping.

15. $H_2PO_4$  va  $HPO_4$  anionlari hujayrada qanday jarayonlarni boshqaradi?

16. $H_2CO_3$  va  $HCO_3$  anionlari hujayrada qanday jarayonlarni boshqaradi?

## HUJAYRANING KIMYOVİY TARKIBI BO'YICHA NOSTANDART TESTLAR

1. Quyida berilgan elementlarning xususiyatlarini raqamlar bilan juftlab ko'rsating.

1	S, N, O, N	A	Qon hosil qilishda ishtirok etadi				
2	Na, K, Cl	B	Tiroksin hosil bo'lishida ishtirok etadi				
3	Ca va R	V	Jinsiy gormonlar faolligini oshiradi				
4	Fe	G	Fotosintezda ishtirok etadi				
5	Mg	D	Kislorodni tashishda ishtirok etadi				
6	Zn	J	Suyak to'qimalarini hosil qilishda ishtirok etadi				
7	I	Z	Membranalardan orgali moddalarni o'tishini ta'minlaydi				
8	Co	I	Barcha organik birikmalar tarkibiga kiradi				
1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-	8-

2. Quyida berilgan elementlar nima tarkibiga kirishini juftlab ko'rsating.

1	Ca va P	A	Barcha organik birikmalar				
2	Fe	B	Aminokislotalar				
3	Mg	V	B <sub>12</sub> vitamini				
4	I	G	Bir qator fermentlar				
5	Zn	D	Tiroksin gormoni				
6	Co	J	Suyak to'qiması				
7	N	Z	Xlorofill				
8	C,H,O,N	I	Gemoglobin				
1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-	8-

3. Quyidagi jadvalda berilgan hujayra tarkibini necha %ini tashkil etishini raqamlar bilan juftlab ko'rsating.

1	S,H,O,N	A	0.02%			
2	P, S,K,Na,Ca,Mg,Cl,Fe	B	10%			
3	Mikroelementlar	V	1.9%			
4	Tish emali hujayrasida suv	G	90%			
5	O'simlik hujayrasida suv	D	80%			
6	Ko'p hujayralilarda suv	J	20-30%			
7	Hujayra biomolekulalari	Z	98%			
1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-

**4. Makroelementlar hujayra tarkiba necha % bo'lishini juftlab ko'rsating**

1	Kislorod	A	(65-75%)							
2	Uglerod	B	(15-18%)							
3	Azot	V	(1.5-3)							
4	Vodorod	G	(8-10)							
5	Fosfor	D	(0.2-1.00)							
6	kaliy	J	(0.02-0.03)							
7	Oltингugurt	Z	(0.15-0.4)							
8	Temir	L	(0.15-0.15)							
9	Magniy	K	(0.02-0.03)							
10	Natriy	M	(0.01-0.15)							
11	Kalsiy	N	(0.04-2.00)							
1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-	8-	9-	10-	11-

5. Quyida berilganlar hujayrada qanday vazifalarni bajarishini juftlab ko'rsating.

1	H <sub>2</sub> O	A	Qon hosil qilishda ishtirok etadi				
2	K <sup>+</sup> , Na <sup>+</sup> , Ca <sup>2+</sup>	B	Hujayra ichi buferligini ta'minlaydi				
3	H <sub>2</sub> PO <sub>4</sub> <sup>-</sup> va HPO <sub>4</sub> <sup>2-</sup>	V	Suyak to'qimaları hosil qiladi				
4	Ca va P	G	Qo'zg'aluvcchalikni ta'minlaydi				
5	OH <sup>-</sup> va H <sup>+</sup>	D	Hujayradan tashqaridagi buferligini ta'minlaydi				
6	H <sub>2</sub> CO <sub>3</sub> va HCO <sub>3</sub>	J	Fotosintez qilishda ishtirok etadi				
7	Co	Z	Turli xil molukulalarning erkin valentligiga birikadi				
8	Mg	L	Moddalarning erituvchanlik				
1-	2-	3-	4-	5-	6-	7-	8-

6. Fermentlar katalizlaydigan reaksiyalarga qarab quyidagi sinflarga bo'linadi ularni xususiyatlariiga qarab juftlab ko'rsating.

1	Oksidoreduktazalar	A	Guruhlarni ko'chiruvchi fermentlar		
2	Transferazalar	B	Gidrolitik parchalanish fermentlar		
3	Gidrolazalar	V	Oksidlovchi-qaytaruvchi fermentlar		
4	Liazalar	G	Turli xil izomeratsiya reaksiyalarini tezlatuvchi		
5	Izomerazalar	D	Ikki molekulani bir-biriga bog'lovchi fermentlar		
6	Ligazalar	J	Molekuladan guruhlarni suv ishtirokisiz ajratadigan va biriktiradigan fermentlar		
1-	2-	3-	4-	5-	6-

7. Quyida berilgan aminokislotalar qaysi guruhlarga mansubligini juftlab ko'rsating.

1 Glitsin, alanin	A	Dikarbon kislotalar
2 Aspartat, asparagin	B	Iminokislotalar
3 Lizin, arginin	V	Monoaminokarbon kislotalar
4 Fenialanin, tirozin	G	Aromatik aminokislotalar
5 Gistidin, triptofan	D	Geterotsiklik aminokislotalar
6 Prolin, oksiprolin	J	Diaminiokislotalar

1-

2-

3-

4-

5-

6-

8. Oqsillarning vazifalarini raqamlar bilan juftlab ko'rsating.

1 Qurilish	A	Hujayrada boradigan reaksiyalarni tezlashtirish
2 Harakat	B	1gr oqsil parchalanganda 4.1 kkal energiya ajralib chiqadi.
3 Transport	V	Hujayra strukturalarini qisqarishi
4 Signal	G	Kislorodni tashish
5 Mudofa	D	Muhit ta'sirlarini qabul qilib olish
6 Retseptorlik	J	Ko'rish pigmenti rodopsin, membrana insulinini
7 Toksin	Z	Ilon zahari tarkibida 60dan ortiq aminokislota qoldig'i uchraydi
8 Tejam	K	Bug'doyda gliadin, makkajo'horida zein to'planadi
9 Energetik	L	Antitanalar immunitet hosil qiladi
10 Fementativ	N	Hujayraning barcha qismlarini hosil qilish

1-

2-

3-

4-

5-

6-

7-

8-

9-

10-

9. Quyida jadvalda berilganlar mos javoblarni juftlab ko'rsating.

1 Aminokislota tarkibida azot miqdori	A	90%
2 Hujayradagi biomolekulalar miqdori	B	5-15%
3 Hayvon hujayralarida uglevod miqdori	V	95%
4 O'simlik hujayralarida uglevod miqdori	G	1-2% yoki 5%
5 Hujayradagi yog' miqdori	D	20-30%
6 Yog' to'qimalari hujayralaridagi yog'ning miqdori	J	16%

1-

2-

3-

4-

5-

6-

10. Quyidagi jadvalda berilganlarga mos javoblarni juftlab ko'rsating.

1	Uglevod so'zini fanga kiritgan olim	A	F. Misher	
2	Nuklein kislotalarni kashf etgan olim	B	Uotson va Krik	
3	DNKning qo'sh spiralligini kashf etgan olim	V	K. Shmid	
4	Membrana tarkibiga kiradi	G	Mum	
5	Oddiy lipidlar misollar keltiring	D	Tuxum oqsili	
6	Albuminlar	J	Qon tarkibidagi oqsillar	
7	Globulinlar	Z	Fosfolipidlar	
1-	2-	3-	4-	
		5-	6-	7

11. Quyida oqsilning tuzilish strukturalari berilgan ularni raqamlarga juftlab ko'rsating

1	<chem>-Gly-Val-Tyr-Gln-Ser-Ala-Phe-Asp-Lys-Ala-</chem>	A	To'rtlamchi
2		B	Uchlamchi
3		V	Ikkilamchi
4		G	Birlamchi
1-	4-	5-	6-

**Hayotiy jarayonlarning kimyoviy asoslariga bo'yicha bilimlarni nazorat qilish uchun test topshiriqlari**

1. Azot elementi mavjud bo'lgan moddalarni aniqlang.

- 1) glikogen; 2) adenin; 3) transpazon; 4) EcoRI; 5) nukleaza;  
6) interferon; 7) maltoza; 8) kletchatka; 9) fruktoza

A) 2,3,6 B) 1,7,9 C) 4,5,8 D) 6,9,8

2. Azot elementi mavjud bo‘lmasligi moddalarni aniqlang.

1) glikogen; 2) adenin; 3) transpazon; 4) EcoRI; 5) nukleaza;

6) interferon; 7) maltoza; 8) kletchatka; 9) fruktoza

A) 2,3,6 B) 1,7,9 C) 4,5,8 D) 6,9,8

3. O’simliklar tarkibidagi karbonsuvlarni belgilang.

1) kraxmal; 2) riboza; 3) glikogen; 4) dezoksiriboza; 5) serin;

6) moy; 7) yog‘; 8) uzum shakari; 9) mum

A) 1,3,8 B) 8,6,9,1 C) 1,2,4,8 D) 5,6,7

4. Hayvonlar tarkibidagi karbonsuvlarni belgilang.

1) kraxmal; 2) riboza; 3) glikogen; 4) dezoksiriboza; 5) serin;

6) moy; 7) yog‘; 8) uzum shakari; 9) mum

A) 1,3,8 B) 8,6,9,1 C) 3,2,4,8 D) 5,6,7

5. Quyida keltirilgan % ko‘rsatkichlarning qaysilari noto‘g‘ri ifodalangan?

1) hujayradagi yog‘ning miqdori o‘rtacha 5-15% ni tashkil qiladi;  
2) hayvon hujayralarida uglevdolarning miqdori 1-2%, ba’zan 5% ni tashkil qiladi; 3) glukozaning qondagi miqdori odamlarda 0,1-0, 2%;  
4) oqsillar tarkibida azotning miqdori 17%; 5) oqsillar tarkibidagi uchraydigan 20 xil aminokislotalardan halqasiz vakillari siklik vakillaridan 40% ga ko‘proq; 6) tirik organizmlar hujayrasining o‘rtacha 15-20% ini organik birikmalar tashkil qiladi. A) 1,3,6 B)  
2,4,5 C) 3,4,6 D) 1,3,4,5

6. Biogen makroelementlarni belgilang?

1 – C; 2 – H; 3 – P; 4 – Na; 5 – Mg; 6 – Zn; 7 – F; 8 – Mn;

A) 1, 3, 5, 7; B) 2, 4, 6, 8; C) 2, 3, 5, 7; D) 1, 2, 3, 4, 6;

7. Disaxaridlarni belgilang?

A) Glukoza, maltoza

B) Fruktoza, glukoza

C) Laktoza, maltoza

D) Saxaroza, fruktoza

8. Tirik organizm tarkibiga kiruvchi makroelementlar (I) va mikroelementlar (II) ni aniqlang?

1) Zn; 2) Ca; 3) Fe; 4) J; 5) Co; 6) Mo; 7) Cu; 8) Mg; 9) Cl

A) I - 2, 3, 8, 9; II - 1, 4, 5, 6, 7

B) I - 1, 4, 5, 6, 7; II - 2, 3, 8, 9

C) I - 2, 3, 7, 8, 9; II - 1, 4, 5, 6

D) I - 2, 3, 9; II - 1, 4, 5, 6, 7, 8

9.DNK (a) va RNK (b) tarkibidagi azotli asoslarni juftlab ko'rsating.

1)Adenin; 2) ATF; 3) ADF; 4) Guanin; 5)Sitozin; 6)Timin;  
7) Uratsil

- A) a - 1, 2, 4, 5; b - 1, 3, 4, 5
- B) a - 1, 2, 4, 5; b - 1, 4, 5, 7
- C) a - 1, 4, 5, 6; b - 1, 4, 5, 6
- D) a - 1, 4, 5, 6; b - 1, 4, 5, 7

10.Quyida keltirilgan moddalarni oqsil (I), lipid (II), uglevod (III) larga ajratib ko'rsating?

a)Xitin; b)Insulin; c)Jinsiy gormonlar; d)Gemoglobin; e)Selluloza;  
f)Mum

- A) I - b, d; II - c, f; III - a, e
- B) I - b, c; II - a, f; III - d, e
- C) I - c, d; II - b, e; III - a, f
- D) I - b, d; II - a, f; III - c, e

11.Ion holda uchraydiganlar orasida quyidagi qaysi ionlarning tuzlari muhim ahamiyatga ega. Chunki ular tirik organizmlarga xos bo'lган xususiyat- $qo'zg'atuvchanlikni$  amalga oshirishni ta'minlaydi?

- A)  $Mg^{2+}$ ,  $Na^+$ ,  $Ca^{2+}$
- B)  $K^+$ ,  $Na^+$ ,  $Ca^{2+}$
- C)  $K^+$ ,  $Na^+$ ,  $Cl^-$
- D)  $Fe^{2+}$ ,  $Na^+$ ,  $Ca^{2+}$

12.Quyidagi kimyoviy elementlarni ularning bajaradigan vazifalari bilan juftlab bering. 1) Ca; 2) Fe; 3) Mg; 4) Zn; 5) Co;

a)Qonning normal ivishini ta'minlaydi; b)Suyak to'qimalarini hosil qiladi va ularning mustahkamligini ta'minlaydi; c)Gazlarni tashiydi;  
d)Biokimyoviy reaksiyalarni tezlashtiradi; e)Xlorofill tarkibiga kiradi;  
f)Jinsiy gormonlarning faolligini oshiradi; j)Qon hosil bo'lishida ishtirot etuvchi  $B_{12}$  vitamin tarkibida bo'ladi

- A) 1-a, b; 2-c; 3-d, e; 4-j; 5-f
- B) 1-a, b; 2-c; 3-d, e; 4-f; 5-j
- C) 1-b; 2-a, c; 3-d, e; 4-j; 5-f
- D) 1-a, b; 2-c, d; 3-j; 4-e; 5-f

13. Molekular massasi ularning turiga qarab har xil bo'ladi. RNK turlarini aniqlang?

- A)t-RNK, i-RNK, k-RNK
- B)t-RNK, s-RNK, r-RNK
- C)t-RNK, i-RNK, r-RNK

D)t-RNK, i-RNK, n-RNK

14. Polisaxaridlarni belgilang?

- A) Sellyuloza, maltoza
- B) Fruktoza, kraxmal
- C) Kraxmal, sellyuloza
- D) Saxaroza, fruktoza

15. Magniy elementining o'simlik va hayvon organizmidagi qaysi jarayonlarda qatnashishini belgilang?

- A) Fotosintez, biokimyoviy reaksiyalarda
- B) Assimiliatsiya, dissimilatsiyada
- C) Oksidlanish-qaytarilish, xemosintezda
- D) Embriogenet, sitogenezda

16. Biopolimerlarning organizmida vazifasiga ko'ra birinchi guruhga qanday moddalar kiradi?

- A) Polisaxarid, polifosfat
- B) Oqsil, yog'
- C) Nuklein kislota, oqsil
- D) Polisaxarid, va ayrim oqsil

17. Albuminlarni belgilang?

- A) Tuxum oqsili, o'simlik oqsili
- B) Bug'doy oqsili, qon tarkibidagi oqsillar
- C) Bug'doy oqsili, no'xat oqsili
- D) No'xat oqsili, o'simlik oqsili

18. Halqali aminokislotalarni belgilang?

1) Glitsin 2) Alanin 3) Serin 4) Gistidin 5) Prolin 6) Valin  
7) Arginin 8) Tirozin

- A) 3, 6, 7 B) 1, 2, 3 C) 4, 5, 8 D) 3, 4, 6

19. Monosaxaridlarni belgilang?

- A) Glukoza, maltoza
- B) Fruktoza, glukoza
- C) Laktoza, maltoza
- D) Saxaroza, fruktoza

20. Hujayralarda sodir bo'ladigan jarayonlar moddalar almashinuvining qaysi bosqich deb ataladi.

- A) Dastlabki B) Oraliq C) Oxirgi D) Tayyorgarlik

21. Mikroelementlarni belgilang?

- 1) Uglerod; 2) Yod; 3) Oltingugurt; 4) Molibden; 5) Temir; 6) Mis

A)1, 4, 5 B)3, 4, 6 C)5, 3, 6 D)2, 4, 6

22. Quyidagi to'g'ri fikrlarni juftlang?

1.Tish emali hujayrasida 1 foiz suv; 2.O'simlik hujayralarida 80 foiz; 3.Ko'p hujayrali organizmda 90 foizni tashkil etadi; 4.Tish emali hujayrasida 10 foiz suv; 5.O'simlik hujayralarida 90 foiz; 6.Ko'p hujayrali organizmda 80 foizni tashkil etadi; 7.Suvning ko'p xususiyatlari uning fizik va kimyoviy belgilariiga bog'liq; 8.Suvning ko'p xususiyatlari uning dipoliliga bog'liq

A)1, 3, 5, 7; B)2, 4, 6, 8; C)4, 5, 6, 7; D)1, 2, 3, 4, 6;

23.Eritrositlar gemoglobini tarkibiga kiruvchi elementni belgilang?

A)Kalsiy B)Magniy C)Rux D)Temir

24. Lipoproteinlar qanday vazifani bajaradi?

A)Transport va qurilish

B)Qurilish va himoya

C)Himoya va energetik

D)Qisqarish va garmon

25.Hujayra ichki muhitini mo'tadil darajada kuchsiz ishqoriy muhitda saqlash qobiliyati bu – ?

A)Buferlik

B)Dipol

C)Depolyarziatsiya

D)Gameostaz

26.Biopolimerlarning qaysi guruhi transport vazifasini bajaruvchi oqsillar hisoblanadi?

A)Birinchisi B)Ikkinchisi C)Uchinchisi D)To'rtinchisi

27.Oqsillar tarkibida qaysi elementning miqdori o'zgarmas bo'ladi?

A)Oltingugurt B)Uglerod C)Azot D)Vodorod

28. Gormon vazifasini bajaruvchi oqsilni belgilang?

A)Gemoglobin B)Leykosit C)Insulin D)Kletchatka

29.Yog' va oqsildan iborat murakkab murakkab oqsilni belgilang?

A)Nukleoprotein

B)Xromoprotein

C)Lipoprotein

D)Glikoprotein

30.Sut shakarini belgilang?

A)Saxaroza

B)Laktoza

C)Maltoza

D)Galaktoza

31. Metabolik suv qaysi modda parchalanishidan hosil bo‘ladi?

A)Oqsillar

B)Uglevodlar

C)Yog‘lar

D)Vitaminlar

32. Tolasimon oqsillarni aniqlang?

A)Hayvonlaming junistagi, va ipak qurtining ipagidagi oqsillar

B)Odam socliidagi va katalizatorlik vazifasini bajaruvchi oqsillar

C)Katalizatorlik vazifasini bajaruvchi oqsillar va qondagi  
gemoglobin oqsillar

D)Odam socliidagi va qondagi gemoglobin oqsillar

33. Mikroelementlar biologik faolligi yuqori bo‘lgan qanday  
moddalar tarkibiga kiradi?

A)Oqsillar, fermentlar, vitaminlar

B)Gormonlar, fermentlar, vitaminlar

C)Gormonlar, fermentlar, yog‘lar

D)Uglevodlar, fermentlar, vitaminlar

34. DNK hujayra yadrosida, shuningdek mitoxondriya va yana  
qayirda bo‘lishini belgilang?

A)Ribosomada B)Xloroplastlarda C)Golji majmuasida D)Hujayra  
markazida

35. Moyli o‘simliklarni to‘g‘ri belgilang?

1. Kungaboqar 2. Zig‘ir 3. Soya 4. Sholi 5. Xurmo 6. Maxsar 7.

G‘o‘za

A) 1, 2, 3, 4, 5

B) 1, 2, 3, 4, 5, 6

C) 1, 2, 3, 5, 7

D) 1, 2, 3, 6, 7

36. Guanin bilan sitozin o‘rtasida nechta vodorod bog‘ borligini  
belgilang?

A)Bitta

B)Ikkita

C)Uchta

D)To‘rtta

## HUJAYRA TARKIBIGA KIRUVCHI ORGANIK BIRIKMALARGA OID MASALALAR

Barcha tirik organizmlar tarkibida asosan to'rt xil makromolekulali organik birikmalar: uglevod, oqsil, nuklein kislota va lipidlar uchraydi. Bulardan oqsil, nuklein kislota va uglevodlar biopolimerlar deb ataladi. Chunki ular bir-biriga o'xshash tuzilishga ega bo'lgan monomerlardan, ya'ni aminokislota, nukleotid va monosaxaridlardan iboratdir. Lipidlar bundan istisnodir. Bulardan eng muhimlari oqsillar va nuklein kislotalardir. Uglevodlar bilan lipidlar hujayrani energiya bilan ta'minlovchi biomolekulalar hisoblanadi.

Oqsillar biopolimer sifatida yuqori molekulyar massaga ega bo'lishi bilan harakterlanadi (6000 dan 1000000 gacha va undan yuqori). Bunday oqsillar 50 dan 8000 va undan ko'p aminokislotlar qoldig'idan iborat bo'ladi. Oqsil tarkibidagi aminokislotalarni topish uchun oqsil molekulyar massasini aminokislotaning molekulyar massasiga bo'lish orqali topish mumkin. Aminokislotalarning o'rtacha molekulyar massasini 100-120 atrofida olish mumkin.

Hujayra tarkibiga kiruvchi organik birikmalar bo'yicha masala va mashqlar yechish davomida quyidagi bilimlarni egallashlari lozim.

- oqsillar biopolimer ekanligi, oqsilning molekulyar massasi va o'lchamini yirik maydaligini, aminokislotalar oqsil molekulasini monomeri ekanligini, ular tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, amfoter xossalarni;
- oqsil molekulasidagi aminokislotalar izchilligini, zanjirlari sonini, oxirgi gruppalarini va radikallarini aniqlash usullarini, amnokislotalarning polipeptid zanjirga birikishini. Peptid bog' va oqsilning birlamchi, ikkilamchi, uchlamchi, to'rtlamchi struk-turalarini bu strukturalarni belgilaydigan kimyoviy bog'larni;
- oddiy va murakkab oqsillarni o'ziga xos xususiyatlarini, oqsil molekulasi denaturatsiyasi hamda renaturasiyasini haqidagi bilimlarni;
- shuningdek, oqsil sintezlanishining sitoplazmada va endoplazmatik to'rda borishi. Oqsil sintezlanishining ko'p bosqichliligi, DNK, i-RNK va t-RNK ning oqsillar sintezlanishidagi roli. Transkripsiya jarayoni. Ribosoma – oqsil molekulalari sintezlana-digan organoid, uning kimyoviy tarkibi, konformatsiyasi va harakatlanish xususiyati. Oqsil molekulalari yig'iladigan markaz. Polisomalar hosil bo'lishini;

▪ translyatsiya va uning bosqichlari. Oqsil molekulasining yig'iliши, бунда кодон билан антикодоннинг роли. Полипептид занжирининг узайishi, oqsil sintezlanishining oxiri. ATFning oqsil sintezidagi roli. Oqsilning vazifalarini bilishi va o'zlashtirishi lozim;

▪ bitta aminokislota 2 va undan ortiq kod yordamida ifodalanishi, kodlarning umumiy soni 64 ( $4^3 = 4 \cdot 4 \cdot 4$ ) taga tengligi, shundan 3 ta kod oqsil sintezining boshlanishi va tugallanishini bildiradi UAA, UAG, UGA, ular terminator tripletlar deb atalishini, 20 ta aminokislotani ifodalash uchun 61 ta tripletli koddan foydalananishi;

▪ albatta, hosil bo'ladigan kombinatsiyalar soni 64 ( $4^3$ ) kodlanadigan aminokislotalar sonidan ancha ko'p, lekin ma'lum bo'ldiki, 20 ta aminokislotadan 18 tasi bittadan ortiq 2, 3, 4 va 6 kodon bilan kodlana oladi.

▪ genetik kod barcha tirik organizmlar uchun universal hisoblanishi, mikroorganizmlardan odamgacha bir xildir ekanligini;

▪ molekulyar biologiyaning rivojlanishiga oid ma'lumotlar. F.Misher tomonidan nuklein kislotalarning kashf etilishi, DNK strukturasining Uotson va Krik tomonidan tushuntirib berilishi;

▪ nuklein kislotalar, oqsil molekularining o'zaro funksional bog'liqligini nuklein kislotalarning irlsiy axborotni nasldan naslga o'tkazishdagi rolini;

▪ nuklein kislotalarning tarkibiy qismlari - azot asoslari, uglevodlar, fosfat kislota. Nukleozid va nukleotid. Chartgaf qoidasi. DNK, uning strukturasi, massasi va o'Ichami. DNK molekulalari hosil bo'lishidagi komplementarlik prinsipi. Qo'sh zanjirli makromolekula hosil bo'lishi va spirallanishi. DNK zanjirlarining bir biriga qarama qarshi yo'nalganligini;

▪ DNK replikatsiyasi. Molekulalarini chalkashuvi. DNK kodi, DNK sintezlanishining matritsa prinsipi. RNK molekulalari strukturasining xususiyatlari, ularning tarkibi. RNK molekulalarining DNK molekulalaridan farqi. RNK sintezlanishi. RNK tiplarini;

▪ Informatsion RNK (i-RNK) molekulalarining fizik kimyoiyihususiyatlari va hujayradagi roli. Transport RNK (t-RNK) molekulalarining massasi, antikodon va uning funksiyalari, t-RNKning aminokislotalar tashishdag'i roli. Ribosom RNK (r-RNK) molekulalarini tuzilish hususiyati, ularning oqsil sintezidagi roli kabi bilimlarga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

## OQSIL VA OQSIL BIOSINTEZIGA OID MASALALAR VA MASHQLAR YECHISH METODIKASI

Oqsil tuzilishi to‘g‘risidagi axborot DNK da nukleotidlardan ketma-ketligi ko‘rinishida saqlanadi. DNKnинг oqsil strukturasi haqida axborotni o‘zida saqlaydigan qismi gen deb ataladi. DNK dagi aminokislotalar ketma - ketligini belgilaydigan nukleotidlardan izchilligiga genetik kod deb ataladi.

1965 yilda X.Korana, M.Nirenberg, S.Ochooaning sayi-harakati tufayli barcha aminokislotalarni tripletlari aniqlandi va ularga asoslanib genetik kod jadvali tuzildi. Genetik koddagi nukleotidlardan izchilligini aniqlash ikki xil metod asosida amalga oshirildi. G.Korana o‘z shogirdlari bilan genni laboratoriyada kimyoviy yo‘l bilan sintez qildi, so‘ngra polidezoksiribonukleotid asosida hujayradan tashqarida qaysi triplet qanday aminokislani polipeptid bog‘ tarkibiga kiritishini aniqladi. M.Nirenberg va P.Leder esa qaysi tRNK qanday aminokislani tanib ribosomaga tashishini o‘rgangan.


Oqsil biosintezi to‘g‘risidagi masalalarni yechishda genetik koddan foydalananish zarur. Bitta nukleotidning molekulyar massasi esa – 345.

Genetik kod					Oqsil tarkibiga kiradigan aminokislotalar	
Birinchi nukleotidlardan	Ikkinchi nukleotidlardan				Uchinchi nukleotidlardan	
	U (A)	S (G)	A (T)	G (S)		
U (A)	Fen	Ser	Tir	Sis	U (A)	
	Fen	Ser	Tir	Sis	S (G)	
	Ley	Ser	-	-	A (T)	
	Ley	-	-	Tri	G (S)	
S (G)	Ley	Pro	Gis	Arg	U (A)	
	Ley	Pro	Gls	Arg	S (G)	
	Ley	Pro	Gln	Arg	A (T)	
	Ley	Pro	Gln	Arg	G (S)	
A (T)	Ile	Tre	Asn	Ser	U (A)	
	Ile	Tre	Asn	Ser	S (G)	
	Ile	Tre	Liz	Arg	A (T)	
	Met	Tre	Liz	Arg	G (S)	
G (S)	Val	Ala	Asp	Gli	U (A)	
	Val	Ala	Asp	Gli	S (G)	
	Val	Ala	Glu	Gli	A (T)	
	Val	Ala	Glu	Gli	G (S)	

Aminokislota	Qisq.nomi
Alanin	Ala
Arginin	Arg
Asparagin	Asn
Asparagin k.	Asp
Valin	Val
Gistidin	Gis
Glisin	Gli
Glutamin	Gln
Glutamin k.	Glu
Izoleytin	Ile
Leytin	Ley
Lizin	Liz
Metionin	Met
Prolin	Pro
Serin	Ser
Tirozin	Tir
Treonin	Tre
Triptofan	Tri
Fenilalanin	Fen
Sistein	Sis

Oqsillar tarkibida aminokislotalar o'zaro peptid bog' hosil qilib birikadi. Shuning uchun oqsillar polipeptidlari deb ham yuritiladi. Bunda qo'shni aminokislotalarning birikishidan bir molekula suv ajraladi. Aminokislotalarning o'rtacha molekular massasi 138 ga, oqsil tarkibidagi aminokislota qoldig'ining o'rtacha molekular massasi 120 ga teng deb olish mumkin.



Oqsillarning molekulyar massasini hisoblash formulasi:

$$M_{\min} = \frac{a}{v} \cdot 100\%$$

$M_{\min}$  – oqsilning minimal molekulyar massasi,

a – komponentning atom yoki molekulyar massasi,

v – komponent foizi

**1-masala.** Odam qoni tarkibidagi gemoglobin tarkibida 0.34 % temir bo'ladi. Gemoglobinning minimal molekulyar massasini toping.

Yechilishi:

Temirning atom massasi 56 ga teng. Gemoglobin o'z tarkibida bir atom temir saqlaydi. Shundan kelib chiqqan holda proporsiya tuzish orqali gemoglobinning minimal molekulyar massasini topish mumkin.:

$$0.34 \text{ Fe} - 100 \text{ gemoglobin}$$

$$56 \text{ Fe} - x$$

$$M.m = (56 \cdot 100) : 0.34 \text{ yoki birdaniga formula asosida}$$

$$M.m = 56 : 0.34 \cdot 100 \% = 16470 \text{ ga teng.}$$

**Javob:** gemoglobinning molekulyar massasi 16470 ga teng.

**2-masala.** Oqsil tarkibida 0.5 % glitsin mavjud. Bu oqsilning minimal molekulyar massasi qancha va unda nechta aminokislota

mavjud? Agar glitsinning minimal molekulyar massasi 75 ga teng bo'lsa?

*Yechilishi:*

$$M.m = 75 : 0,5 \cdot 100 \% = 15000$$

$$15000 : 120 = 125 \text{ ta}$$

**Javob:** 125 ta aminokislota.

**3-masala.** Odam qoni plazmasidagi albuminning molekulyar massasi 68400 ga teng. Uning tarkibidagi aminokislotalar sonini toping.

*Yechilishi:*

aminokislotalarning o'rtacha molekulyar massasi 120 deb olsak unda:

$$68400 : 120 = 570 \text{ aminokislota}$$

**Javob:** albumin molekulasi 570 ta aminokislota bor.

**4-masala.** Tarkibida 158 ta aminokislota bo'lgan oqsil sinteziga javobgar genning uzunligini toping. DNK molekulasiagi nukleotidlari orasidagi masofa 3,4 nm teng.

*Yechilishi:* Har bir aminokislota uchta nukleotiddan hosil bo'lishini nazarda tutib, umumiy berilgan aminokislotali uchga ko'paytiriladi va nukleotidlarning yig'indisi topiladi.

$$1) 158 \text{ ta} \cdot 3 \text{ ta} = 474 \text{ ta nukleotidlari yig'indisi.}$$

2) Endi nukleotidlari yig'indisini nukleotidlari orasidagi masofaga ko'paytiramiz va oqsil sinteziga javobgar genning uzunligi topiladi.

$$474 \cdot 3,4 \text{ nm} = 1611,6 \text{ nm.}$$

**Javob:** oqsil sinteziga javobgar genning uzunligi 1611,6 nm.

**4-masala.** Faglar tarkibidagi nuklein kislotsining molekulyar massasi  $10^7$  atrofida bo'ladi. Agar o'rtacha bitta oqsil molekulasi 400 ta aminokislotalidan iborat bo'lib, nukleotidlarning molekulyar massasi 345 ga teng bo'lsa. Bu fagning nuklein kislotsida nechta oqsil kodlangan?

*Yechilishi:* Tarkibida 400 ta monomeri bo'lgan oqsil 1200 ta nukleotid yordamida kodlanadi. Genning kodlaydigan uchaskasining molekulyar massasi 345 ga teng ya'ni bitta nukleotidning molekulyar massasi (345). Nukleotidalarning molekulyar masassi

$$1) 345 \cdot 1200 = 414000 \text{ ga teng ekanligini aniqlanadi.}$$

$$2) 10^7 : 414000 = 241,5 \text{ ta.}$$

**Javob:** 241,5 ta oqsil kodlangan bo'lishi mumkin.

**5-masala.** Ma'lum oqsilning molekulyar massasi: a)36000; b)48000; v)72000 tashkil etadi. Bu oqsillar tarkibidagi aminokislolar sonini aniqlang.

*Yechilishi:* aminokislolarning o'rtacha molekulyar massasi 120 deb olsak unda:

- a)36000 : 120 = 300 ta;
- b)48000 : 120 = 400 ta;
- v)72000 : 120 = 600 ta.

**Javob:** a) 300 ta; b) 400 ta; v) 600 ta aminokislota bor ekan.

**6-masala.** Odam qoni tarkibidagi gemoglobin oqsilining 2 ta  $\alpha$  zanjiri bo'lib, har birida 141 ta va  $\beta$  zanjiri ham 2 ta zanjiridan iborat bo'lib, ularning har birida 146 tadan aminokislota joylashgan. Ushbu gemoglabin oqsilining zanjirini sintezlanish jarayonida necha molekula suv ajralganligini aniqlang?

*Yechilishi:* a)biz birinchi navbatda gemoglabin oqsilini tarkibida jami nechta aminorislota borligini aniqlaymiz.

- 1) $\alpha$  zanjirda  $141 \cdot 2 = 282$  ta aminokislota.
- 2) $\beta$  zanjirda  $146 \cdot 2 = 292$  ta aminokislota.
- 3) $282 + 292 = 574$  ta aminokislotadan iborat.

b)umumiy aminokislolar soni aniqlangandan so'ng, ikki aminokislota o'zaqro pepted bog' orqali birikishi natijasida bir molekula suv ajralib chiqishini hisobga olgan holda javobni topamiz.

- 4) $282 - 2 = 280$  molekula.
- 5) $292 - 2 = 290$  molekula.
- 6) $280 + 290 = 570$  molekula suv ajralishi aniqlandi.

**Javob:** 570 molekula suv ajralishi aniqlandi.

**7-masala.** Odam qoni tarkibidagi gemoglobin oqsilining 2 ta  $\alpha$  zanjiri bo'lib, har birida 141 ta va  $\beta$  zanjiri ham 2 ta zanjiridan iborat bo'lib, ularning har birida 146 tadan aminokislota joylashgan. Ushbu gemoglabin oqsilining zanjirini sintezlanish jarayonida necha peptid bog' hosil bo'ishini aniqlang?

*Yechilishi:* a)biz birinchi navbatda gemoglabin oqsilini tarkibida jami nechta aminorislota borligini aniqlaymiz.

- 1) $\alpha$  zanjirda  $141 \cdot 2 = 282$  ta aminokislota.
- 2) $\beta$  zanjirda  $146 \cdot 2 = 292$  ta aminokislota.
- 3) $282 + 292 = 574$  ta aminokislotadan iborat.

b)umumiylar aminokislolar soni aniqlangandan so'ng, ikki aminokislota o'zagro peptid bog' orqali birikishi natijasida bitta peptid bog' hosil bo'lishini hisobga olgan holda javobni topamiz.

$$4) 282 \cdot 2 = 280 \text{ ta peptid bog'}$$

$$5) 292 \cdot 2 = 290 \text{ ta peptid bog'}$$

$$6) 280 + 290 = 570 \text{ ta peptid bog' hosil bo'lishi aniqlandi.}$$

**Javob:** 570 peptid bog' hosil bo'lishi aniqlandi.

**8-masala.** Odam qoni tarkibidagi gemoglobin oqsilining 2 ta  $\alpha$  zanjiri bo'lib, har birida 141 ta va  $\beta$  zanjiri ham 2 ta zanjiridan iborat bo'lib, ularning har birida 146 tadan aminokislota joylashgan. Ushbu gemoglobin oqsilining molecular massasini aniqlang?

*Yechilishi:* a)biz birinchi navbatda gemoglobin oqsilini tarkibida jami nechta aminokislota borligini aniqlaymiz.

$$1) \alpha \text{ zanjirda } 141 \cdot 2 = 282 \text{ ta aminokislota.}$$

$$2) \beta \text{ zanjirda } 146 \cdot 2 = 292 \text{ ta aminokislota.}$$

$$3) 282 + 292 = 574 \text{ ta aminokislotadan iborat.}$$

b)Darslikdan olgan bilimlarga asoslanib aminokislotalarning o'rtacha molekular massasi 138 Dga, oqsil tarkibidagi aminokislota qoldig'ining o'rtacha molekular massasi 120 Dga teng deb olish mumkin. Shunga ko'ra biz javobni topamiz.

$$4) 574 \cdot 120 = 68640 \text{ D ga teng ekan.}$$

**Javob:** 68880 D ga tengligi aniqlandi.

**9-masala.** Gen og'irmi yoki oqsil?

*Yechilishi:*

Tasavvur qilaylik, oqsil tarkibida  $x$  – miqdorda aminokislota, oqsil massasi –  $100x$ ; bitta aminokislotani molekulyar massasi -120.

Kod triplet - gendagi nukleotidlar miqdori –  $3x$ , bu genning massasi –  $345 \cdot 3x$ . (bitta nukleotidning molekulyar massasi – 345 ).

$$120x < 345 \cdot 3x$$

**Javob:** oqsilga nisbatan gen og'ir.

**10-masala.** DNK qo'sh zanjiridagi genning molekulyar massasi qanchaga teng? Agar bitta zanjirida molekulyar massasi 2400 keladigan oqsil kodlangan bo'lsa.

*Yechilishi:*

1)  $2400 : 100$  (bitta aminokislotani molekulyar massasi) = 24 ta aminokislota oqsil tarkibida mavjud.

$$2) 24 \cdot 3 = 72 \text{ DNKnинг bitta zanjirida nukleotid bor.}$$

3)  $72 \cdot 345 = 24840$  – DNKnинг битта занжирдаги генning молекуляр массаси 24840 га, ош занжирда esa генning молекуляр массаси  $24840 \cdot 2 = 49680$  га тeng.

**Javob:** DNK ош занжирдаги генning молекуляр массаси 49680 га тeng.

**11-masala.** DNKnинг bir занжирини узунлиги 34155 га тeng. DNK bu uchastkasiga kodlangan oqsil monomerlari sonini toping.

*Yechilishi:*

1)  $34155 : 345$  (345 битта нуклеотиднинг молекуляр массаси) = 99 нуклеотид DNKnинг bu uchastkasiga to'g'ri keladi.

2)  $99 : 3 = 33$  t RNK 33 ta.

**Javob:** 33 ta aminokislota kodlangan.

**12-masala.** Molekulyar массаси 48000 bo'lgan oqsil sintezini o'zida kodlagan генning узунлигини toping.

*Yechilishi:*

1)  $48000 : 100 = 480$  aminokislota;

2) Oqsil to'g'risidagi dasturni o'zida saqlagan genda 480 triplet yoki  $480 \cdot 3 = 1440$  nukleotid bor.

3) DNKnинг bu занжирини узунлиги –  $1440 \cdot 0,34 \text{ nm} = 489,6 \text{ nm}$  xuddi shunday узунлик гenga ham to'g'ri keladi.

**Javob:** генning узунлиги – 489,6 nm.

**13-masala.** Insulin oqsili sintezi to'g'risidagi axborotni o'zida saqlagan генning boshlang'ich qismidagi nukleotidlar izchiligi quyidagicha boshlangan A–A–A–C–A–C–C–T–G–C–T–T–G–T–A–G–A–C

Bunga mos aminokislotalar ketma ketligini yozing.

*Yechilishi:*

Genetik kod yordamida javoblar topiladi.

**Javob:** fen – val – asp – glu – gis – ley

**14-masala.** i-RNK fragmentidagi nukleotidlar ketma – ketligi quyidagicha UUCUUACCCCAUCGCAACGGU. Bu izchillikka mos keladigan aminokislotalar ketma – ketligini aniqlang. Har bir aminokislotalaga mos keladigan t-RNKning antikodanidagi tripletlarni toping.

*Yechilishi:*

1) Aminokislotalar ketma ketligi Fen – Ley – Pro – Gis – Arg – Asn – Gli iborat

**Javob:** 2) t-RNK anikodonidagi tripletlar: AAG, AAU, GGG, GUA, GCG, UUG, CCA

3) DNK dagi tripletlar ketma ketligi: AAGAATGGGGTAGCGTT GCCA

**15-masala.** DNK molekulasi fragmenti CGTTGGGCTAGGCTT ketma - ket keladigan nukleotidlardan iborat. t-RNK dagi nukleotidlari izchilligini va t-RNK tashib beradigan aminokislotalarini toping. t-RNKda uchinchi tripletga qaysi aminokislota to'g'ri kelishini aniqlang. Javobningizni izohlang.

*Yechilishi:*

1) i-RNK - GCAACCCGAUCCGAA

2) Antikodonda CGA (uchinchi triplet) i-RNKdagi GCU ga to'g'ri keladi;

3) Genetik kodda bu kodonga t-RNK tashib beradigan alanin to'g'ri keladi.

**Javob:** CGA (uchinchi triplet) i-RNKdagi GCU ga to'g'ri keladi; Genetik kodda bu kodonga t-RNK tashib beradigan alanin to'g'ri keladi.

**16-masala.** Polipeptid biosintezida UAC, UUU, GCC, CAA antikodonlarga ega t-RNK qatnashgan. Shunga mos i-RNK va DNK dagi nukleotidlari hamda aminokislotalar ketma - ketligini genetik kod tablisasi bo'yicha aniqlang.

*Yechilishi:*

i-RNK: AUGAACGGGUU

DNK: TACTTGCCCCAA

**Javob:** aminokislotalar: met-liz-arg-val.

**17-masala.** Polipeptid biosintezida UUA, GGC, CGC, AUU, CGU antikodonlarga ega t-RNK qatnashgan. DNKnинг har bir zanjiridagi nukleotidlari izchiligini toping. Qo'sh zanjirdagi adenin (A), timin (T), guanin (G), sitozin (C) sonini aniqlang.

*Yechilishi:*

1. t-RNK antikodon i-RNK ga, i-RNK DNKga komplementar.

**Javob:** 2. DNK fragmentini bitta zanjiri – TTAGGCCGCATTGTT, ikkinchi zanjirida – AATCCGGCGTAAGCA nukleotidlari

3. Nukleotidlari soni: A – 7, T – 7, G – 8, C – 8.

**18-masala.** Buqa timusidan ajralgan giston bo'lagining zanjiridagi aminokislotalar ketma-ketligi Ala - Apr - Tre - Liz -. Bunga

komplementar i-RNK va DNK qo'sh zanjiridagi nukleotidlari ketma-ketligini toping?

*Yechilishi:*

Genetik kod tablitsasiga asoslanib giston bo'lagidagi aminokislotalar sinteziga javobgar tripletlar izchilligi GCC-CGC-ACC-AAG. Bu uchastkaga mos keladigan DNK molekulsidagi tripletlar ketma-ketligini komplementarlik bo'yicha topamiz.

**Javob:** i-RNK: GCC - CGC - ACC - AAG

1 - zanjir DNK: CGG - GCG - TGG - TTC

2 - zanjir DNK: GCC - CGC - ACC - AAG

**19-masala.** O'roqsimon anemiya bilan kasallangan odam gemoglobinidagi glutamin kislota valin bilan almashgan. Sog'lom odam DNKsi bilan kasal odam DNKsi bir-biridan nimasi bilan farq qiladi?

*Yechilishi:*

Glutamin kislota va valinni kodlaydigan i-RNK tripletini topamiz va u asosida DNK nukleotidlari tarkibini topamiz:

aminokislotlar Glu Val

kodon i-RNK GAAGUU

DNK tarkibi CTT CAA

**20-masala.** DNK molekulasi ma'lum bir uchastkasi GATGAA TAGTGCTC dan iborat. 6-nukleotid A adeninni sitozinga o'zgarishidan hosil bo'lgan kamida uchta jarayonni ta'riflang.

*Yechilishi:*

1) gen mutatsiyasi amalga oshadi – ikkinchi aminokislotani kodoni o'zgaradi.

2) oqsilda bir aminokislot o'miga ikkinchisi kelishi mumkin, natijada birlamchi struktura o'zgaradi.

3) oqsilning qolgan barcha strukturasi o'zgarishi mumkin, natijada organizmda yangi belgi namoyon bo'ladi.

**21-masala.** DNK molekulasiдан bitta tripletni tushib qolishimi yoki bitta nukleotidni tushib qolishi oqsil strukturasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Nima uchun?

*Yechilishi:*

Misol uchun DNKnинг biror bir peptid sinteziga javobgar qaysidir uchastkasini olamiz va uning tuzilishini tahlil qilamiz.

a) DNK ning normal tuzilishida zanjir tuzilishi quyidagicha:

DNK zanjir: AGG- TGG- CTC-CTG -G...

i-RNKzanjir: UCC-ACC-GAG-GAC-C...

Peptid: Ser - Tre - Glu - Asp -

b) DNKdan bitta nukleotid tushib qolsa, misol uchun ikkinchi tripletdagi birinchi nukleotid (T).

DNK: -AGG-GGC-TCC-TGG ...

i-RNK: -UCC-CCG-AGG-ACC...

Peptid: - Ser - Pro - Apr - Tre -

v) agar ikkinchi triplet DNK molekulasidan tushib qolsa (-TGG-).

DNK: -AGG - CTC - CTG - G ...

i-RNK: -UCC - GAG - GAC - C ...

Peptid: - Ser - Glu - Asp -

**Javob:** Shunday qilib DNK molekulasidan bitta nukleotid tushib qolsa to'liq aminokislota tarkibi o'zgaradi. Bitta tripletni tushib qolishi faqat bitta aminokislotani yo'qolishiga sabab bo'ladi. Qolgan aminokislotalar ketma-ketligi saqlanadi.

**22-masala.** Translyatsiya jarayonida 30 ta t-RNK ishtirok etgan. Bu oqsil molekulasini kodlashda ishtirok etgan tripletlar va nukleotidlari, aminokislotalar tarkibi va sonini aniqlang.

*Yechilishi:*

1) Yuqorida aytigandan kelib chiqqan holda bitta aminokislotani bitta t-RNK tashib berishii ma'lum. Bundan ko'rinish turibdiki 30 t-RNK bo'lgandan so'ng aminokislotalar ham 30 ta bo'ladi.

2) Har bir aminokislota bitta triplet bilan kodlanadi 30 ta aminokislota albatta 30 ta triplet bilan kodlanadi.

3)  $30 \cdot 3 = 90$  nukleotid.

**Javob:** Oqsil 30ta aminokislotadan iborat, uni sintezlaydigan gen 30 ta triplet yoki 90 nukleotiddan iborat.

**23-masala.** Oksitotsin gormoni oqsil tabiatga ega. Uning molekulasini translyatsiyasida 9 molekula t-RNK ishtirok etgan. Bu oqsilni kodlaydigan nukleotidlari, tripletlar va oqsil tarkibiga kiradigan aminokislotalar sonini toping. Javobngizni izohlang.

*Yechilishi:*

1) Bitta t-RNK bitta aminokislotani tashiydi, shuningdek 9 ta t-RNK.

2) DNKdagi tripletlar soni 9 teng, bitta triplet bitta aminokislotani kodlaydi.

3) Nukleotidlari soni – 27, ( $9 \cdot 3$ )

**Javob:** 9 ta t-RNK; bitta triplet bitta aminokislotani kodlaydi; nukleotid soni – 27

**24-masala.** Agar insulin 51 ta aminokislotadan iborat bo‘lib, DNK zanjiridagi nukleotidlari 0,34 nm ni egalagan. Insulinning birlamchi strukturasi kodlagan DNK uchastkasini uzunligini toping. Bu aminokislotalarni oqsil sintezlanadigan joyga tashish uchun nechta t-RNK kerak.

*Yechilishi:*

1)Bitta aminokislotani kodlash uchun 3ta nukleotid zarur. 51 aminokislotani kodlash uchun 153 ta nukleotid kerak.

2)153 ta nukleotiddan iborat DNK qismi 52 nm ga teng ( $0,34 \cdot 153$ );

3)Oqsil sintezida 51 molekula t-RNK ishtirok etgan.

**25-masala.** i-RNK 120 ta nukleotiddan iborat. Bu i-RNK sintezlaydigan oqsil tarkibiga kiradigan aminokislotalar, uni kodlaydigan gen tarkibidagi tripletlar va t-RNKLAR sonini toping. Olingan natijalarni tushuntiring.

*Yechilishi:*

1)Aminokislotalarni tripletlar kodlaydi, oqsil tarkibida

$120 : 3 = 40$  aminokisloti bor;

2)Bitta t-RNK bitta aminokislotani tashiganligi sababli, translyatsiya uchun 40 t-RNK kerak bo‘lgan.

3)i-RNK sintezlangan oqsil uchun matritsa vazifasini o’tagan shuning uchun gen tarkibida  $120 : 3 = 40$  triplet bor.

**Javob:** 40 aminokisloti bor; 40 triplet bor; 40 t-RNK kerak bo‘lgan.

**26-masala.** Polipeptid zanjiri 20 ta aminokislotadan tashkil topgan. Bu polipeptidni sintezlaydigan gendagi nukleotidlari, i-RNKdagi kodonlar va bu aminokislotalarga mos keladigan va oqsil biosintezida ishtirok etadigan t-RNK lar sonini toping (bitta t-RNK bitta aminokislotani ribosomaga tashib berishini hisobga oling).

*Yechilishi:*

a)Genetik kod tripletlardan iborat, shuning uchun polipeptid zanjirini kodlagan DNK uchaskasidagi genda 20 ta aminokisloti mavjud.

$20 : 3 = 60$  nukleotid

b)i-RNK ning axborot saqlagan qismi 20 ta kodondan tashkil topgan.

d) Ushbu polipeptid zanjirini sintezi uchun 20 ta t-RNK zarur.

**27-masala.** 900ta aminokislotadan iborat oqsil sintezida ishtirok etadigan i-RNK va t-RNK lar sonini toping. i-RNK dagi nechta nukleotid bu oqsilning birlamchi strukturasiga javobgar.

*Yechilishi:*

1) Biosintez jarayonida bitta oqsil sintezida bitta i-RNK ishtirok etadi.

2) Bitta aminokislota molekulasi bitta t-RNK ribosomaga olib keladi. 900 ta aminokislotani 900 molekula t-RNK tashib beradi;

3) Har bir aminokislotaga mos triplet mavjud bitta triplet – uchta nukleotid, 900 ta aminokislota 2700 ta nukleotid demakdir.

**28-masala.** Oqsil 100 ta aminokislotadan tashkil topgan bo'lsa. Bu oqsilni sintezlaygan gen uchastkasini molekulyar massasi oqsilning molekulyar massasidan qancha og'ir, agar aminokislotani o'ttacha molekulyar massasi 100 ga, nukleotid molekulyar massasi esa 345 ga teng bo'lsa. Javobngizni izohlang.

*Yechilishi:*

1)Genetik kod tripletdan iborat, shuning uchun 100 ta aminokislotadan iborat oqsilni 300 ta nukleotid kodlaydi.

2)Oqsilning molekulyar massasi  $100 \cdot 100 = 10000$ ; genning molekulyar massasi  $300 \cdot 345 = 103500$

3)DNK uchastkasi ya'ni gen oqsildan 10 barobar og'ir ( $103500 : 10000 = 10,35$ )

**29-masala.** D NK molekulasining qo'sh zanjiridan bittasi tarkibida 300ta adenina (A), 100 nukleotid timinga (T), 150 nukleotid guanininga (G) va 200 nukleotid sitozinga (C) to'g'ri kelgan. DNKnинг qo'sh zanjiri tarkibida A,T,G,C nukleotidlar qancha? DNK molekulasi uchaskasiga to'g'ri keladigan oqsil nechta aminokislotadan iborat?

*Yechilishi:*

1) Komplementarlik prinsipiiga asosan DNKnинг ikkinchi zanjirida T – 300, A – 100, C – 150, G – 200 bo'ladi.

2) DNKnинг qo'sh zanjirida nukleotidlar miqdori: A – 400, T – 400, C – 350, G – 350.

3) DNKnинг har bir zanjirida oqsilning birlamchi strukturasiga to'g'risidagi axborotni saqlaydi. DNKnинг bir zanjiridagi nukleotidlar soni:  $300+100+150+200=750$ , bitta aminokislotani bitta triplet kodlaydi, shu sababli oqsilda  $750:3=250$  aminokislota bor.

**30-masala.** Genda 21000 juft nukleotid saqlangan. Bu gendagi spirallarning to'liq aylanishlari soni va unda kodlangan aminokislotalar sonini toping.

*Yechilishi:*

1) DNKnинг то'лиқ бир мarta spiral bo'lib buralishi 10 juft nukleotidlardan iborat. Gen nechta to'liq spirallardan tashkil topganligini aniqlang.  $21000 : 10 = 2100$  buralgan spiraldan iborat.

2) Bitta aminokislota uchta nukleotid yordamida kodlanadi. Genda kodlangan aminokislotalar soni  $21000 : 3 = 7000$  taga teng.

**Javob:** 2100 buralgan spiraldan iborat; 7000 ta aminokislota ga teng.

**31-masala.** Gen eukariot hujayraning A oqsilini kodlagan. Bu genda beshta ekzondan, (140 juft nukleotiddan iborat) va uchta introndan (720 juft nukleotiddan iborat). Shakllangan i-RNK va shakllanmagan pro-i-RNK tarkibidagi nukleotidlari sonini toping.

*Yechilishi:*

Ekzon oqsil sintezi to'g'risidagi axborotni o'zida saqlaydigan qism. Intron-kodlamaydigan uchastka.

1) Shakllanmagan pro-i-RNK barcha DNK uchastkasidagi informatsiyani o'zida saqlaydi. Ya'ni 5 ta ekzon va 3ta introni. Shakllanmagan pro-i-RNK dagi nukleotidlari soni:  $5 \cdot 140 + 3 \cdot 720 = 2860$  nukleotiddan iborat.

2) pro-i-RNK ning shakllanish davrida undan intronlar uzilib qoladi shu sababli pro-i-RNK faqat 5ta ekzondan iborat bo'lib qoladi. Bundan ko'rinish turibdiki, shakllangan pro-i-RNK nukleotidlari soni –  $5 \cdot 140 = 700$  taga teng.

**32-masala.** DNK zanjirining fragmenti 3000 ta nukleotiddan iborat bo'lib, bu fragmentning 50% ini intron tashkil etadi. Shakllangan i-RNK dagi nukleotidlari sonini toping.

**Javob:** 1500 nukleotid

**33-masala.** DNK zanjiri fragmenti 4800 ta nukleotidlardan iborat bo'lib, uning 30% ini intron tashkil etadi. Ushbu DNK fragmentida kodlangan oqsil molekulasi tarkibidagi aminokislotalar soni va shakllangan i-RNK dagi nukleotidlari sonini toping.

*Yechilishi:*

1)Intron jami nukleotidlarning 30% ini tashkil etgan bo'lsa, unga 1440 nukleotid to'g'ri keladi.

2)Shakllangan i-RNK molekulasidagi intronlar (1440 nukleotid) tushib qoladi, umumiy nukleotidlar soni  $4800 - 1440 = 3360$ .

3)Triplet kodi:  $3360 : 3 = 1120$  aminokislotadan iborat.

**34-masala.**Shakllanmagan i-RNK (pro-RNK) uzunligi 102000 nm, ekzonlar jami nukleotidlarning 45% izini tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda shakllangan i-RNK ni uzunligini, undagi nukleotidlar va aminokislotlar sonini toping.

**Javob:** 1) 165000 nukleotid; 2) 55000 aminokislot

**35-masala.**Insulin oqsili to'g'risidagi axborotni o'zida saqlaydigan genning boshlang'ich qismidagi nukleotidlar ketma ketligi quyidagicha:  
AAACACCTGCTTGTAGAC

Insulin oqsilini sintezini boshlanishidagi aminokislotalar ketma ketligini yozing.

*Yechilishi:*

bu vazifa genetik kod tablitsasi yordamida bajariladi

**Javob:** fenilalanin – valin – asparagin kislota – glutamin kislota – gistidin – leytsin

**36-masala.**DNK molekulasida 1380 ta H bog'i mavjud bo'lib, undagi C nukleotid soni 180ta, Shu DNK asosida sintezlangan oqsildagi aminokislotar sonini aniqlang

Sitozin soni 180 ta bo'lsa unga 180 Guanini komplementar bo'ladi. Ular o'rtaasida 3 ta vodorod bog'i bo'lsa

$$180 \cdot 3 = 540 \text{ ta}$$

$$1380 - 540 = 840 \text{ ta}$$

840 ta vodorod bog'i A bilan T o'rtaasida bo'ladi.

$$840 : 2 = 420 \text{ ta}$$

$$420 + 180 = 600 \text{ ta}$$

DNK asosida sintezlangan oqsil uchun 600 ta nukleotid ishtirok etgan.

$$600 : 3 = 200 \text{ ta.}$$

**Javob:** aminokislotalar soni 200 ta.

## **Mustaqil yechish uchun masala va mashqlar**

1.DNK fragmenti quyidagi CGGTCAACTTAGCT nukleotidlari ketma - ketligidan iborat. Bunga mos i-RNK dagi nukleotidlari ketma - ketligi va polipeptid zanjirdagi aminokislotalari ketma - ketligini toping.

2.Oqsil molekulasining ma'lum bir qismi quyidagi aminokislotalari ketma - ketligidan asparagine-izoleysin-prolin-triptofan-lizindan iborat. D NK molekulasi idagi bu aminokislotalarni kodlaydigan nukleotidlari ketma-ketligini toping.

3.Oqsil molekulasining ma'lum bir qismi quyidagi aminokislotalari ketma-ketligidan serin – glutamin – asparagine – triptofandan iborat. i-RNK molekulasi idagi nukleotidlari ketma - ketligini aniqlang.

4.i-RNK molekulasi fragmenti quyidagi nukleotidlari ketma - ketligidan UGCAAGCUGUUUAUA iborat. Oqsil molekulasi idagi aminokislotalari ketma – ketligini toping.

5.i-RNK molekulasi fragmenti quyidagi nukleotidlari ketma - ketligidan GCAUGUAGCAAGCGCdan iborat. Oqsil molekulasi idagi aminokislotalari ketma – ketligini va uning molekulyar massasini toping.

6.DNK geni 450 juft nukleotiddan iborat. Uning uzunligi, molekulyar massasi qancha va unda qancha aminokislota kodlangan?

7.DNK fragmenti 414000 g/molga ega D NK fragmentini uzunligini va unda kodlangan aminokislotalari sonini toping.

8.DNK zanjirining kodlangan qismini molekulyar massasi 182160 g/mol ga teng. Unda kodlangan aminokislotalari sonini toping.

9.DNK zanjirining kodlangan qismini molekulyar massasi 238050 g/mol ga teng. Unda kodlangan aminokislotalari soni va oqsilning molekulyar massasini toping.

10.DNKning o'ng zanjiridagi nukleotidlari ketma ketligi CTATAG TAACAA bo'lsa. Chap zanjirdan transkripsiya asosida hosil bo'lgan oqsil fragmentidagi aminokislotalari ketma-ketligini toping.

11.DNK fragmentining bir zanjiridagi nukleotidlari ketma - ketligi: GGTACGATGTCAAGAdan iborat. Bu zanjirda kodlangan oqsilning birlamchi strukturasini, qo'sh zanjirda joylashgan nukleotidlari foizini va uning uzunligini toping.

12. Agar genda 135ta aminokislota kodlangan bo'lsa u nechta nukleotiddan iborat? Bu genning molekulyar massasi va uzunligi qancha?

13. Agar genning molekulyar massasi 1500 g/mol bo'lsa uning uzunligi va unda kodlangan oqsilning molekulyar massasi qancha bo'ladi?

14. Oqsil molekulasi tarkibida 125 ta aminokislota mavjud. i-RNK va DNK dagi nukleotidlar soni, shuningdek oqsil sintezida ishtirok etgan t-RNKLar sonini toping.

15. Oqsil molekulasini sintezlashda 145 molekula t-RNK ishtirok etgan. i-RNKdagi nukleotidlar soni shuningdek DNK genidagi nukleotidlar va sintezlangan oqsil molekulasi tarkibidagi aminokislotalar miqdorini toping.

16. i-RNKdagi nukleotidlar ketma-ketligi quyidagicha GGGUGG UAUCCCAACUGU izchillikka ega. DNKdagi nukleotidlar ketma - ketligi, t-RNK antikodonini va DNK-ning ushbu fragmentiga to'g'ri keladigan aminokislotalar ketma - ketligini toping.

17. Oqsil biosintezida quyidagi antikodonga ega t-RNK lar ishtirok etgan GUC,CGU,UUC,GAU,AUG. DNK fragmentidagi nukleotidlar ketma-ketligi va sintezlangan oqsil tarkibidagi aminokislotalar ketma-ketligini aniqlang.

18. Xemotripsinogen fermentiga javob beradigan DNK fragmentida adeninli nukleotidlar soni 291 ga teng bo'lib, u umimiy nukleotidlarning 20% izini tashkil etadi. Fragmentdagagi aminokislotalar sonini aniqlang.

19. Xemotripsinogen fermentiga javob beradigan DNK fragmentida guaninali nukleotidlar soni 441 ga teng bo'lib, u umimiy nukleotidlarning 30% izini tashkil etadi. Fragmentdagagi aminokislotalar sonini aniqlang.

20. Xemotripsinogen fermentiga javob beradigan DNK fragmentida adeninli nukleotidlar soni 441 ga teng bo'lib, u umimiy nukleotidlarning 30% izini tashkil etadi. Fragmentdagagi aminokislotalar sonini aniqlang. Qo'shni nukleotidlar orasidagi masaofa 0.34 nm bo'lsa DNK fragmentining uzunligini (nm) toping.

21. Xemotripsinogen fermenti 245 ta aminokislotadan iborat. Shu fragment sintezi uchun javobgar DNK qo'sh zanjirida adeninli nukleotidlar umumiy nukleotidlarning 20% ni tashkil etadi. Adenin va

timin nukleotidlar orasida 2 ta vodorod bog', guanin va sitozin o'rtasida 3 ta vodorod bog' bo'lishi ma'lum bo'lsa. Ushbu DNK bo'lagidagi adenin va timin o'rtasidagi vodorod bog'lar sonini toping.

22. Agar DNK fragmentidagi tripletlar izchilligi ACA ATA AAA GTT CGT.... ga mos keladigan oqsilning birlamchi strukturasidagi aminokislotalar ketma - ketligini toping.

23. Genning ma'lum bir uchastkasi: CGGCGCCAAAACG nukleotidlar ketma - ketligidan iborat. Bu gen uchastkasida saqlanadigan oqsil uchastkasini toping. Agar gendagi 4 - nukleotid yo'qolsa oqsil molekulasi qanday o'zgarish ketishi mumkin?

24. DNKdagi nukleotidlar ketma - ketligi quyidagicha - AATGCAGGCACCATG-. Mutatsiya natijasida 2 va 5 - nukleotidlar bir vaqtida yo'qolgan. Mutatsiyadan so'ng hosil bo'lgan DNK zanjiridagi nukleotidlar ketma - ketligini toping. Unga asoslanib i-RNK dagi nukleotidlar va u asosida sintezlanadigan aminokislotalar ketma - ketligini toping.

25. DNK fragmentidagi nukleotidlar ketma - ketligi quyidagicha:-ATAAGTATGCCT-. Bu asosida i-RNK dagi nukleotidlar ketma - ketligi va polipeptid zanjiridagi aminokislotalar ketma- ketligini toping. Agar mutatsiya natijasida ikkinchi triplet nukleotidlari tushib qolsa oqsil sintezida qanday o'zgarish yuz beradi?

26. Mioglobin oqsili 155 ta aminokislordan iborat. Bu oqsilni sintezlaydigan DNK uchaskasini uzunligi qancha? Agar bitta nukleotid DNK zanjirida 0.34 nm masofani egallasa.

27. Polipeptid zanjirining birlamchi strukturasini o'zida kodlagan DNKnинг ma'lum bir uchastkasi 15 nukleotiddan iborat. Bunga mos aminokislotalarni kodlaydigan i-RNK nukleotidlar sonini, nechta aminokislota ekanligi va t-RNK sonini toping. Javobngizni tushuntiring.

28. Translyatsiya jarayonida 50 molekula t-RNK ishtirok etgan. Oqsil molekulasi o'zi sintezlanadigan i-RNK molekulasidek necha marta yengil. Aminokislarning o'rtacha molekulyar massasi 100, nukleotidniki – 345 ga teng. Javobngizni izohlang.

29. Hayvon oqsilining boshlang'ich qismi quyidagi aminokislotalar izchilligidan iborat bolgan: lizin-glutamin-treonin-alanin-alanin-alanin-lizin.... Bu oqsil sinteziga javobgar gen qanday nukleotidlardan boshlangan bo'lishi mumkin?

30.Ribonukleaza fermentining ma'lum bir fragmenti quyidagi aminokislotalardan iborat. Glu-Gli-Asp-Pro-Tir-Val-Pro-Val-Pro-Val-Gis-Fen-Asn-Ala-Ser-Val. Ushbu ribonukleaza fermentidagi aminokislotalarga mos DNK zanjirining tuzilishini toping.

31.Agar oqsil molekulasi dagi aminokislotalar prolin-valin-arginin-prolin-leytsin- valin-arginin ketma - ketligida bo'lsa, unga mos DNK zanjiridagi nukleotidlari izchilligini toping?

32.Insulin molekulasining kichik bir qismi quyidagi aminokislotalar bilan yakunlansa leytsin-tirozin-asparagin-tirozin-sistein-asparagin. DNKdagi qanday nukleotidlari ketma - ketligi uni kodlaydi?

33.DNK molekulusidagi nukleotidlari ketma - ketligi CCTAGT GTGAACCATTCA bo'lsa u asosida qanday aminokislotalar sintezlanadi?

34.DNK molekulusidagi nukleotidlari ketma - ketligi: ACG CCC ATG GGT ACC bo'lsa unda qanday polipeptidga ega bo'lgan oqsil molekulasi sintezlanadi. Agar rentgen nurlari ta'sirida beshinchi nukleotid yo'qolgan bo'lsa oqsil molekulasida qanday o'zgarish vujudga keladi?

35.Oqsil molekulusidagi aminokislotalar DNKnинг TGA TAA GTT TAT GCG CCC nukleotidlari bilan kodlansa, lekin kimyoiy ta'sirlar yordamida 9 va 13 – nukleotidlari olib tashlansa oqsil zanjiri qanday o'zgarishga uchraydi?

36.Quyidagi DNA molekulasi fragmentiga to'g'ri keladigan aminokislotalar ketma- ketligini toping. Agar DNA molekulusidagi bireinchi nukleotid tushib qolsa oqsil zanjriga qanday ta'sir qiladi va aminokislotalar ketma - ketligida qanday o'zgarishlar yuz beradi? TCT CCC AAA AAG ATA AGG CAT

37. Sistinuriya bilan kasallangan odam siyidigi bilan i-RNKdagi CUU, GUU, CUG, GUG, UCG, GUC, AUA kodonlarga to'g'ri keladigan aminokislotalar ajraladi. Sog'lom odam siyidigida alanin, serin, glutamin kislota, glitsin bo'ladi? Sistinuriya bilan kasallangan odamlarda qanday aminokislotalar siyidik bilan ajraladi?

38.Ma'lumki gemoglobin Aning to'rtinchı peptidining 8 ta aminokislotsasi quyidagi ketma - ketlikda bo'ladi. Val-Gis-Ley-Tre-Pro-Glu-Glu-Liz.Gemoglobin B da oltinchi aminokislota (glutamin) o'rniغا valin bilan almashsa, gemoglobin C dagi - llizin bilan, a gemoglobin G dagi yettinchi aminokislota (glutamin) glitsin bilan

almashsa. DNK molekulasidagi mutatsiya gemoglobin sintezidagi aminokislotalar ketma - ketligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

39. Gemoglobin A a va b polipeptid zanjirlardan tashkil topgan. Har bir polipeptid zanjirda 140 aminokislota mavjud bo'lsa, bu oqsilni sinteziga javobgar DNK molekulasidaning qismida necha juft nukleotidlар bo'lishи mumkin?

40. 51ta aminokislordan iborat insulin oqsilini sintez qiluvchi DNK molekulasini uzunligi qancha bo'ladi? Agar bitta nukleotid  $3.4\text{ A}^0$  ga teng bo'lsa?  $1 \text{ A} = 0,1 \text{ nm}$  (nanomet) =  $0,0001 \text{ mkm}$  (mikromet) =  $0,0000001 \text{ mm} = 0,0000000001 \text{ m}$ .

41. Insulinning boshlang'ich uchaskasi Fen-Val-Asp-Gln-Gis-Ley-Sis-Ley-Sis-Gli-Ser-Liz aminokislotalardan tashkil topgan. Bu aminokislotalarni kodlaydigan DNK zanjiridagi nukleotidlар miqdorini toping.

42. Mioglobin oqsili tarkibida 155 ta aminokislordan iborat bo'lib, nukleotidlар orasidagi masofa  $3.4 \text{ A}^0$  ga teng bo'lsa, uni kodlaydigan DNK molekulasini uzunligini toping.

43. Quyida berilgan aminokislotalarni i-RNKdagi qaysi tripletlar ketma- ketligi kodlaydi? i-RNK bo'yicha tripletlar ketma- ketligini toping.

- a) fenilalanin – prolin – prolin – serin
- b) treonin – triptofan – tirozin – valin
- v) treonin – triptofan – valin – serin
- g) alanin – asparagin – glutamin kislota – gistolidin
- d) leytsin – prolin – gistolidin – fenilalanin.

44.i- RNKning ma'lum uchaskasidagi nukleotidlар ketma- ketligi quyidagicha

- a) CCC GCC ACC UGC GGG AUC CAC
- b) AGC AGU AGA UUC UUU CUU GAC
- v) GCC UCC ACC GGG CGC AGA AGU
- g) CGG GGC UUC UAG AAC GAU GAG
- d) CGC CAC CAG GAC GAG AGA AGU

bu tripletlar qanday aminokislotalarni kodlaydi? Genetik kod asosida aminokislotalar ketma - ketligini toping.

45. Oqsil molekulasi 158 ta aminokislordan tashkil topgan, ushbu oqsil moleklusini sinteziga javobgar gen uzunligini toping. Nukleotidlар orasida mavofa  $3.4\text{A}$  ga teng.

46.900 aminokislordan iborat oqsilning molekulyar massasi kattami yoki genning molekulyar massasimi? Agar aminokislolar molekulyar massasi 120, nukleotidlar molekulyar massasi 300 ga tengligini inobaqtga olgan holda javobingizni izohlang.

47. Gipofizning oldingi bo'lagidan ajraladigan adrenokortikotrop gormoni uchastkasi: - Ser - Tir - Ser - Met- aminokislardan iborat. Berilgan aminokislarda mos t-RNK antikodonini toping.

48. Insulin oqsilida aminokislolar quyidagi ketma - ketlikda: fenilalanin-valin-asparagin-glutamin kislota – gistidin - leytsin. DNKdagi insulin oqsili haqidagi informasiyani saqlaydigan nukleotidlar ketma-ketligini yozing.

49. Genning ma'lum bir uchastkasi quyidagi nukleotidlar ketma - ketligidan iborat: CGG CGC TCA AAA TCG ... . Shu gen uchastkasiga mos oqsil bo'lagini toping. Agar gendan to'rtinchı nukleotid olib tashlansa. Oqsil tuzilishi qanday o'zgarishga uchraydi?

50. Translyatsiyada hosil bo'lgan oqsil 400 ta aminokislaga ega bo'lsa, shu jarayonda qatnashgan genetik kodlar sonini aniqlang.

51.30720 D og'irlikdagi oqsil sintezida necha dona nukleotid ishtirok etgan. 1 dona aminokislota 120 D deb olinsin.

52.46080 D og'irlikdagi oqsil sinteziga javobgar DNK tarkibidagi fosfodiefir bog'lar sonini toping.

53.DNK molekulasiда guanin va sitozin nukleotidlari orasida uchta, adenin va timin nukleotidlari orasida ikkita vodorod bog'i mavjudligini e'tiborga olsak, ushbu frag'mentda 1400 juft nukleotidlar mavjud. Unda guanin va sitozin juftligi adenin va timin juftligidan 2,5 barobar ko'p bo'lsa ushbu zanjirdagi vodorod bog'lar sonini aniqlang?

54.Oqsil tarkibida 1509 ta peptid bog' bo'lsa, bu zanjirda nechta aminokislota bo'ladi?

55.Agar vazopressinning i-RNK molekulasiда 9 ta kodon bo'lsa, u nechta nukleotiddan tashkil topgan bo'ladi?

56.Translyatsiyada hosil bo'lgan oqsil 400 ta aminokislaga ega bo'lsa, shu jarayonda qatnashgan t-RNK sonini toping.

57.Oqsilning tarkibi 60 ta aminokislordan iborat. Agar nukleotidlar orasi  $0,34 \text{ A}^{\circ}$  bo'lsa, yuqoridaq oqsilni sintezlovchi genning uzunligi necha angstromga teng bo'ladi?

58. Translyatsiyada hosil bo'lgan oqsil 400 ta aminokislotaga ega bo'lsa, shu oqsil haqida axborot saqllovchi DNK dagi nukleotidlar sonini aniqlang.

59. DNK molekulasining tarkibida 1230 guanin bor. Shu molekula tarkibida nechta sitozin bor?

60.Organizmda uchrovchi gammaglobulin oqsili ikkita katta va ikkita kichik subbirliklardan iborat bo'lib, har bir katta subbirlikda 440 ta va har bir kichik subbirlik 220 ta aminokislotadan iborat. Ushbu oqsilga javobgar bo'lgan DNK fragmentini uzunligini aniqlang. Har bir nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ga teng.

61.51 ta aminokislotadan iborat bo'lgan insulin oqsilining genida nechta nukleotid borligini aniqlang?

62.30 ta nukleotiddan tashkil topgan DNK ning: 1)molekulyar massasini; 2) zanjirining uzunligini; 3) nechta aminokislotadan tashkil topganligini aniqlang?

63.Agar vazopressin oqsilining i-RNK molekulasida 9 ta kodon bo'lsa, uning uzunligini ( $A^\circ$ ) toping (nukleotidlar orasidagi masofa 3,4  $A^\circ$  ga teng).

65.Organizmda uchrovchi gammaglobulin oqsili ikkita katta va ikkita kichik subbirliklardan iborat bo'lib, har bir katta subbirlikda 440 va har bir kichik subbirlik 220 ta aminokislotadan iborat. Ushbu oqsilga javobgar bo'lgan DNK fragmentidagi nukleotidlar miqdorini aniqlang.

66.Insulin gormoni bir-biridan farq qiluvchi A va B polipeptidlardan tuzilgan bo'lib, B polipeptid sinteziga javobgar i-RNK 30,6 nm uzunlikka ega. B polipeptid sinteziga javobgar i-RNK, A polipeptid sinteziga javobgar i-RNK dan 1,43 marta uzunligi ma'lum bo'lsa, A va B polipeptidlari gidroliz qilinganda hosil bo'ladigan aminokislotalar sonini aniqlang. (nukleotid orasidagi masofa 0,34 nm)

67.Insulin gormoni bir-biridan farq qiluvchi A va B polipeptidlardan tuzilgan bo'lib, B polipeptid sinteziga javobgar i-RNK 30,6 nm uzunlikka ega. B polipeptid sinteziga javobgar i-RNK, A polipeptid sinteziga javobgar i-RNK dan 1,43 marta uzunligi ma'lum bo'lsa, A polipeptidlari gidroliz qilinganda hosil bo'ladigan aminokislotalar sonini aniqlang. (nukleotid orasidagi masofa 0,34 nm)

## **Hujayra tarkibiga kiruvchi organik birikmalarga bilimlarni nazorat qilish uchun test topshiriqlari**

1. 19200 D og'irlikdagi oqsil tarkibidagi aminokislotalar sonini aniqlang.

A) 160 B) 320 C) 80 D) 20

2. 110 ta aminokislotadan iborat oqsil zanjirini sintezlashda necha molekula suv ajraladi?

A) 109 B) 110 C) 111 D) 112

3. Quyidagi ketina-ketlikka ega bo'lgan DNK zanjiridagi vodorod bog'lar sonini toping.

ATTGCCTAGG

TAACGGATCC

A) 20 B) 22 C) 24 D) 25

4. Agar nukleotidlар orasidagi masofa 0,34 nm ekanligini hisobga olsak, 90 ta aminokislotadan iborat oqsilni kodlovchi DNK fragmentidagi nukleotidlар sonini va DNK uzunligini toping.

A) 270 ta, 91,8 nm

B) 540 ta, 91,8 nm

C) 270 ta, 94 nm

D) 90 ta, 91,8 nm

5. Agar DNK uzunligi 183,6 nm ga teng bo'lib, undagi qo'shni nukleotidlар orasidagi masofa 0,34 nm ga teng bo'lsa, ushbu DNK fragmentida nechta nukleotidlар bo'ladi va ular nechta aminokislotalarni kodlaydilar?

A) 540 ta, 180 ta

B) 1080 ta, 180 ta

C) 536 ta, 1800 ta

D) 5480 ta, 180 ta

6. 5 yilda odam o'rtacha qancha (tonna) O<sub>2</sub> va oziqa o'zlashtiradi?

A) 1,5 B) 3,0 C) 6,0 D) 7,5

7. 5 kunda odam o'rtacha qancha (gramm) O<sub>2</sub>(a) va tuz (b) o'zlashtiradi?

A) a - 430, b - 50

B) a - 4800, b - 500

C) a - 4300, b - 500

D) a - 500, b - 4300

8.Nechta triplet aminokislotalarni kodlashda ishtirok etadi?

A)3 B)20 C)61 D)64

9. Quyidagi jarayonlarning qaysi birida 40 kJ energiya ajraladi?

A) 1 g oqsilning oksidlanishida

B) 1 g yog'ning oksidlanishida

C) ATPning ADFgacha parchalanishida

D) 1 molekula glukozanинг parchalanishida

10.Oqsilning tarkibi 90 aminokislordan iborat. Agar nukleotidlar orasi 0,34 nm bo'lsa, yuqoridaq oqsilni sintezlovchi DNK fragmentida nechta nukleotid bor va uning uzunligi qancha?

A)270; 91,8 nm B)540; 918 nm C)270; 30,6 nm D)540; 91,8 nm

11.Axborot tashuvchi RNK tarkibida nukleotidlar quyidagi nisbatda uchraydi: guanin-31, uratsil-19, sitozin-21, adenin-29. Mazkur i-RNK molekulasi asosida uning sintezida ishtirok etgan DNK molekulasining tarkibidagi nukleotidlar miqdorini aniqlang.

A) T=48; A=48; G=52; C=52

B) T=29; A=19; G=21; C=31

C) T=29; A=29; G=31; C=31

D) T=19; A=29; G=21; C=31

12.DNK molekulasining tarkibida 3125 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiy nukleotidlarning 25% tashkil qilsa, nukleotidlar orasi 0,34 nm bo'lsa, bu holda DNK uzunligi necha nanometr?

A) 4250 nm B)2125 nm C)1062,5 nm D) 6250 nm

13.DNK molekulasi muayyan fragmentining uzunligi 33,32 nm, DNK molekulasiidagi nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm ga teng. Ushbu DNK 4)fragmentida nechta nukleotid bor?

A)196 B)98 C)89 D)133

14.DNK molekulasining tarkibida 3125 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiy nukleotidlarning 20%-ini tashkil qilsa, bu holda timin nukleotidining soni nechaga teng?

A)3125 B)6250 C)4320 D)9375

15.DNK molekulasining tarkibida 1222 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiy nukleotidlarning 26%-ini tashkil qilsa, bu holda guanin nukleotidining soni nechaga teng?

A)1128 B)1222 C)2444 D)2256

16.Qaysi moddalaming parchalanishida 36 va 38 molekula ATF hosil bo'ladi?

- A)Sut kislota, spirt                    B)Glukoza, spirt  
C)Sut kislota, glukoza                D)Pirouzum kislota, glukoza

17.DNKning bir spiralida nukleotidlari AAATTGCCAGACAAC izchilikda joylashgan bo'lsa, ikkinchi spiralidagi nukleotidlari qanday joylashadi?

- A)AAATTGCCAGACAAC  
B)TTTAACGGTCTGTT  
C)TTTAAAGGTCTGTT  
D)TTTAACGGTCTGTTG

18.Agar DNK molekulasi A-800, G-2800 ta bo'lsa, ushbu molekulaning reduplikatsiyasida qancha va qanday nukleotidlari ishtirok etadi?

- A)800-A, 2800-G                    B)800-A, 800-G  
C)800-T, 2800-C                    D)1800-C, 5600-T

19.DNKning bir spiralida nukleotidlari ATTTTGCCAGGCAAC izchilikda joylashgan bo'lsa, undan transkripsiyalangan i-RNKning nukleotidlari qanday izchillikda joylashgan bo'ladi?

- A)UUUAACGGUCCGUUG  
B)UAAAACGGUCCGUUG  
C)TTTAACGGTCTGTTG  
D)UAAAACAAUCCGUUG

20.Glikoliz jarayonida 2800 kJ energiya ajralib chiqgan bo'lsa shu energiyaning necha foizi ATF tarkibida to'planadi?

- A)1680 B)1120 C)1330 D)1850

21.DNK molekulasining tarkibida 2444 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiyligi nukleotidlarning 26%-ini tashkil qilsa, bu holda guanin nukleotidining soni nechaga teng?

- A)1128 B)1222 C)2444 D)2256

22.Agar DNKdagi qo'shni nukleotidlari orasidagi masofa 0,34 nm ekanligini hisobga olsak, 90 ta aminokislotadan iborat oqsilni kodlovchi DNK fragmentidagi nukleotidlari sonini va DNK uzunligini toping.

- A)270 ta, 91,8 nm                    B)540 ta, 91,8 nm  
C)270 ta, 94 nm                      D)90 ta, 91,8 nm

23. Axborot tashuvchi RNK tarkibida nukleotidlar quyidagi nisbatda uchraydi: guanin-31, uratsil-19, sitozin-21, adenin-29. Mazkur i-RNK molekulasi asosida uning sintezida ishtirok etgan DNK molekulاسining tarkibidagi nukleotidlar miqdorini aniqlang?

- A)T=48; A=48; G=52; C=52
- B)T=29; A=19; G=21; C=31
- C)T=29; A=29; G=31; C=31
- D)T=19; A=29; G=21; C=31

24.DNK molekulасining tarkibida 3125 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiyluk nukleotidlarning 25% tashkil qilsa, nukleotidlar orasi 0,34 nm bo'lsa, bu holda DNK uzunligi necha nanometr?

- A) 4250 nm
- B) 2125 nm
- C) 1062,5 nm
- D) 6250 nm

25. DNK molekulasi muayyan fragmentining uzunligi 33,32nm, DNK molekulасидаги nukleotidlar orasidagi masofa 0,34nmga teng. Ushbu DNK fragmentida nechta nukleotid bor?

- A)196
- B) 98
- C) 89
- D) 133

26.DNK molekulасining tarkibida 3125 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiyluk nukleotidlarning 20%-ini tashkil qilsa, bu holda timin nukleotidining soni nechaga teng?

- A)3125
- B) 6250
- C) 4320
- D) 9375

26.DNK molekulасining tarkibida 1222 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiyluk nukleotidlarning 26%-ini tashkil qilsa, bu holda DNK ning tarkibida umumiyluk nukleotidlarning soni nechaga teng?

- A)2350
- B) 3540
- C)4700
- D) 13500

27.DNK molekulasi muayyan fragmentining uzunligi 73,1 nmga teng. DNK molekulасидаги nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nmga teng bo'lsa, ushbu fragmentda nechta nukleotid bor?

- A) 215
- B)430
- C) 305
- D) 21,5

28.Oqsil tarkibida 1250 ta aminokislota bo'lsa, bu zanjirda nechta peptid bog' bo'ladi?

- A)1251
- B) 625
- C) 1250
- D)1249

29.Glikolizning kislородсиз sharoitda sut kislotagacha parchalanishi tufayli ajralib chiqayotgan energiyaning necha foizi ATF tarkibida to'planadi?

- A)40
- B)30
- C)60
- D)70

30.Ikki molekula sut kislotaning kislородли шароитда то'лиқ parchalanishida nechta molekula ATF hosil bo'ladi?

A)2 B)36 C) 38 D) 10

31.Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. DNK molekulasida 598 ta fosfodiefir bog'i bo'lsa, hamda adenin umumiy nukleotidlari sonining 20 % ini tashkil qilsa guanin va timinlar sonini toping?

A)120:360 B)360:120 C)240:360 D)180:120

32.Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. DNK molekulasida 598 ta fosfodiefir bog'i bo'lsa, ushbu DNK asosida sintezlangan oqsildagi peptid bog'lar sonini aniqlang?

A)199 B)99 C)100 D)200

33.DNK molekulasida guanin va sitozin nukleotidlari orasida uchta, adenin va timin nukleotidlari orasida ikkita vodorod bog'i mavjud. Ma'lum bir DNK molekulasida 1170 ta vodorod bog'lari bo'lsa, hamda ushbu fragmentda umumiy nukleotidlarning 30 % ini guanin tashkil qilsa, undagi guanin va adenin nukleotidlarining sonini aniqlang?

A)540;360 B)270;180 C)351;234 D)135;90

34.Yorug'lik energiyasi hisobiga 1140 ta ATF sintezlangan bo'lsa, shu vaqtning o'zida aerob sharoitda sintezlangan ATF miqdorini aniqlang?

A)38 B)32 C)30 D)36

35.Dissimilatsiya jarayonida bir nechta molekula glyukoza to'liq parchalandi. Natijada 95 molekula ATF sintezlandi. Parchalangan glyukozaning miqdorini aniqlang?

A)3 B)2,5 C)5 D)2.63

36.DNK molekulasining qo'sh qavat spiralida vertikal o'q bo'yicha joylashgan qo'shni nukleotidlari orasidagi masofa  $34 \cdot 10^{-11}$  ga teng. 287 ta aminokislotadan iborat normal gemoglobin molekulasining biosintezida ishtirok etuvchi genning uzunligini toping?

A) $861 \cdot 10^{-9}$  m      B) $21,3 \cdot 10^{-4}$  m  
C) $29,3 \cdot 10^{-8}$  m      D) $25,3 \cdot 10^{-7}$  m


## UGLEVODLAR VA LIPIDLARGA OID MASALA VA MASHQLAR

Uglevodlar hujayraning eng muhim organik birikmalarini hisoblanadi. Uglevodlarning umumiy formulasi  $C_n(H_2O)_m$ . O'simliklarning quruq moddasi massasining 80% ga yaqini, hayvonlarning quruq moddasi massasining 2% ga yaqinini uglevodlar tashkil etadi. Tarkibiga ko'ra uglevodlar uchta guruhga: **monosaxaridlar, disaxaridlar va polisaxaridlarga** bo'linadi.

Monosaxaridlar kichik tarkibiy qismlarga gidrolizlanmaydigan biomolekulalardir. Ularning nomi tarkibidagi uglerod atomi soniga bog'liq. Trioza larda uglerod atomining soni 3 ta ( $C_3H_6O_3$ ), tetrozalarda 4 ta ( $C_4H_8O_4$ ), pentoza larda 5 ta ( $C_5H_{10}O_5$ ), geksozalarda 6 ta ( $C_6H_{12}O_6$ ). Monosaxaridlarning hammasi suvda yaxshi eriydigan shirin ta'mga ega rangsiz moddalardir. Trioza larga moddalar almashinuvining mahsulotlari bo'lgan sut kislota ( $C_3H_6O_3$ ), pirouzum kislota ( $C_3H_4O_3$ ) kiradi. Eng ko'p tarqalgan monosaxaridlarga besh uglerod atomli pentoza – riboza va dezoksiriboza va olti uglerod atomli geksozalar – glukoza, fruktoza misol bo'ladi. Riboza bilan dezoksiriboza nuklein kislotalari va ATF tarkibiga kiradi.

Ikkita monosaxariddan tashkil topgan birikma disaxaridlar deb ataladi. Bularga saxaroza (qand lavlagi shakari), maltoza (don shakari), laktosa (sut shakari) misol bo'ladi. Disaxaridlardan biri shakar, ya'ni saxarozadir. Saxaroza bir molekula glukoza bilan bir molekula fruktozadan tuzilgan, sut shakari esa bir molekula glukoza bilan bir molekula galaktozadan tashkil topgan.

Polisaxaridlar monomeri monosaxaridlardan tashkil topgan gomopolimer moddalardir. Ularning monomerlari o'zaro glikozid bog'lar orqali birikkan.



Polisaxaridlarga kraxmal, kletchatka selluloza, glikogen, xitin va pektin kiradi. Kraxmal, kletchatka, sellulozaning monomerlari glukozadir.

Uglevodlar hujayraning asosiy energetik manbai hisoblanadi. 1 gramm uglevod parchalanganda 4,1 kk yoki 17,6 kJ energiya ajralishi aniqlangan.

Suvda erimaydigan organik birikmalar **lipidlar** yoki **yog'lar** deb ataladi. Yog'larning hujayradagi asosiy vazifasi energiya manbai sifatida namoyon bo'lishidir. Yog'larning kaloriyasi uglevodlarga nisbatan 1,5–2,0 barobar yuqori bo'ladi. 1 gramm yog'ning to'liq parchalanishi natijasida 9,3 kk yoki 38,9 kJ energiya ajralib chiqadi. 1 kg yog' oksidlanganda 1,1 litr suv hosil bo'ladi.

Oddiy lipidlar kimyoiy jihatdan glitserin va yog' kislotasidan iborat. Oddiy lipidlarning yana bir vakili mumlardir. O'simlik va hayvonlar bu moddadan suvni yuqtirmaslik maqsadida foydalanadi. Mumdan, asalarilar uya quradi. Tirik organizmlarning hujayralarida murakkab lipidlar ham muhim ahamiyatga ega. Murakkab lipidlar tarkibida glitserin va yog' kislotasidan tashqari qo'shimcha birikmalar bo'ladi. Bularidan biri fosfolipidlar bo'lib, hujayra membranalari tarkibiga kiradi. Ular membranalarni hosil bo'lishida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Lipidlar oqsillar bilan birikib lipoproteinlarni hosil qiladi. Lipoproteinlar transport (tashish) va qurilish (membranalarni) vazifasini bajaradi. Murakkab lipidlarga glikolipidlar ham taalluqlidir. Bular hujayra membranalari tarkibida uchraydi. Lipidlarga yana bir guruh moddalar steroidlar ham kiradi. Ular o'simlik va hayvon organismlarida keng tarqalgan. Organik kislota va ularning tuzlari, jinsiy gormonlar, vitaminlar, xoliostirol va boshqalar shular jumlasidandir.

Ugelvodlar va lipidlar bo'yicha masalalr yechish jaroyonida o'qituvchi yoki o'quvchilar yuqridagi bilimlarni puxta egallagan bo'lishlari lozim. Quyida uglevod, lipid hamda oqsillarga doir masalalar yechish bo'yicha bir qancha namuna keltirsak.

## **UGLEVODLAR VA LIPIDLARGA OID MASALA VA MASHQLAR YECHISH METODIKASI**

**1-masala.** Sut tarkibida 28 gr oqsil, 35 gr yog', 45 gr uglevod bor. Shu moddalar parchalanganida necha kk energiya hosil bo'lishini hisoblab topping?

*Yechilishi:* mazkur masalani yechish juda oddiy, bu uchun quyidagi amallarni bajarish kifoya:

$$1) \text{Oqsil } 28 \text{ gr} \cdot 4.1 \text{ kk} = 114.8 \text{ kk};$$

$$2) \text{Yog'} 35 \text{ gr} \cdot 9.3 \text{ kk} = 325.5 \text{ kk};$$

3)Uglevod  $45 \text{ gr} \cdot 4.1 \text{ kk} = 184.5 \text{ kk}$ .

4)Yuqoridagi mahsulotlardan hosil bo'lgan energiyalarning yig'indisini topamiz.

Oqsil  $114.8 \text{ kk} + \text{yog'} 325.5 \text{ kk} + \text{uglevd} 184.5 \text{ kk} = 624.8 \text{ kk}$  energiya hosil bo'ladi.

**Javob:** 624.8 kk

**2-masala.**Muhammadamin bir kecha-kunduzgi ovqati tarkibida 100 g oqsil, 80 g yog', 460 g uglevod va 10 g tuz is'temol qildi. Ovqat tarkibidagi biomolekulalardan ajralgan energiya miqdorini kkal da aniqlang?

*Yechilishi:* ushbu masalani yechish jarayonida darslikdan olgan nazariyaga asoslanib, organizmda kishlorod ta'sirida parchalanganda qaysi muddalar energiya hosil qilishini bilishimiz muhim sanaladi:

1)oqsil  $100 \text{ gr} \cdot 4.1 \text{ kk} = 410 \text{ kk}$ ;

2)Yog'  $80 \text{ gr} \cdot 9.3 \text{ kk} = 744 \text{ kk}$ ;

3)Uglevod  $460 \text{ gr} \cdot 4.1 \text{ kk} = 1886 \text{ kk}$ ;

4)tuz parchalanganda energiya hosil qilmaydi.

5)parchalangan mahsulotlardan hosil bo'lgan energiyalarning yig'indisini topamiz.

Oqsil  $410 \text{ kk} + \text{yog'} 744 \text{ kk} + \text{uglevd} 1886 \text{ kk} = 3040 \text{ kk}$  energiya hosil bo'ladi.

**Javob:** 3040 kk

**3-masala.**Muhammadamin bir kecha-kunduzgi ovqati tarkibida 100 g oqsil, 80 g yog', 460 g uglevod va 10 g tuz is'temol qildi. Ovqat tarkibidagi biopolimerlardan ajralgan energiya miqdorini kkal da aniqlang?

*Yechilishi:* masalani yechish jarayonida o'qituvchi yoki o'quvchi fanlararo (ichki) bog'lanishlarni amalga oshirish kompetentligiga ega bo'lishi lozim. Chunki odam va uning salomatligi darsligida yuqorida keltirilgan muddalarning bir gramni parchalanganda ajraladigan energiyani miqdori, Biologiya (sitobiologiya va genetika asoslari) darsligida esa bu muddalarning qaysilari biopolimer ekanligi yoritilgan. Mazkur masalani javobi shu ikki ilmiy ma'lumotni uyg'unlashtirgan holda to'g'ri javob aniqlanadi. Dastlab bu muddalardan qaysilari biopolimer ekanligini aniqlanadi:

Ma'lumotlarga asoslanib, oqsil va uglevod biopolimer ekanligini e'tiborga olgan holda ular organizmda kislorod ta'sirida parchalanganda qancha energiya hosil qilishini hisoblaymiz:

- 1)Oqsil  $100 \text{ gr} \cdot 4.1 \text{ kk} = 410 \text{ kk}$ ;
- 2)Uglevod  $460 \text{ gr} \cdot 4.1 \text{ kk} = 1886 \text{ kk}$ .

Parchalangan mahsulotlardan hosil bo'lgan energiyalarning yig'indisini topamiz.

2)Oqsil  $410 \text{ kk} +$  uglevod  $1886 \text{ kk} = 2296 \text{ kk}$  energiya hosil bo'ladi.

**Javob:** 2296 kk

**4-masala.**Muhammadamin bir kecha-kunduzgi ovqati tarkibida 100 g oqsil, 80 g yog', 460 g uglevod va 10 g tuz is'temol qildi. Ovqat tarkibidagi biopolimerlardan ajralgan energiya miqdorini kJ da aniqlang?

*Yechilishi:* Ushbu masalani yechish jarayonida o'qituvchi yoki o'quvchi biopolimer atamasiga e'tibor berish lozim. Biologiya (sitologiya va genetika asoslari) darsligida yuqoridagi moddalarning qaysilari biopolimer ekanligi yoritilgan. Mazkur masalani javobi oqsil va uglevodning organizmda kislorod ta'sirida parchalanganda qancha energiya hosil qilishini hisoblagan holda aniqlanadi chunki yog' va tuz biopolimer hisoblanmaydi: (izoh: 1gr oqsil va uglevod kislorod ta'sirida parchalanganda 17.6 kJ, 1 gr yog' esa 38.9 kJ energiya hosil qiladi) shunga ko'ra, quyidagi amallar bajariladi:

- 1)Oqsil  $100 \text{ gr} \cdot 17.6 \text{ kJ} = 1760 \text{ kJ}$ ;
- 2)Uglevod  $460 \text{ gr} \cdot 17.6 \text{ kJ} = 8096 \text{ kJ}$ .

Parchalangan mahsulotlardan hosil bo'lgan energiyalarning yig'indisini topamiz.

Oqsil  $1760 \text{ kJ} +$  uglevd  $8096 \text{ kJ} = 9856 \text{ kJ}$  energiya hosil bo'ladi.

**Javob:** 9856 kJ

**5-masala.**Muhammadamin bir kecha-kunduzgi ovqati tarkibida 100 g oqsil, 80 g yog', 460 g uglevod va 10 g tuz is'temol qildi. Ovqat tarkibidagi biomolekulalardan ajralgan energiya miqdorini kJ da aniqlang?

*Yechilishi:* masalani yechish jarayonida o'qituvchi yoki o'quvchi biomolekula atamasiga e'tibor berish lozim. Biologiya (sitologiya va genetika asoslari) darsligida yuqoridagi moddalarning qaysilari biopolimer ekanligi yoritilgan. Mazkur masalani javobi oqsil, yog' va

uglevodning organizmida kislorod ta'sirida parchalanganda qancha energiya hosil qilishini hisoblagan holda aniqlanadi chunki tuz biomolekula hisoblanmaydi hamda energiya hosil qilmaydi: (izoh: 1gr oqsil va uglevod kislorod ta'sirida parchalanganda 17.6 kJ, 1 gr yog' esa 38.9 kJ energiya hosil qiladi) shunga ko'ra, quyidagi amallar bajariladi:

$$1) \text{Oqsil } 100 \text{ gr} \cdot 17.6 \text{ kJ} = 1760 \text{ kJ};$$

$$2) \text{Yog'} 80 \text{ gr} \cdot 38.9 \text{ kJ} = 3112 \text{ kJ};$$

$$3) \text{Uglevod } 460 \text{ gr} \cdot 17.6 \text{ kJ} = 8096 \text{ kJ}.$$

Parchalangan mahsulotlardan hosil bo'lgan energiyalarning yig'indisini topamiz.

Oqsil 1760 kJ + yog' 3112 kJ + uglevd 8096 kJ = 12968 kJ energiya hosil bo'ladi.

**Javob:** 12968 kJ

**6-masala.** Bunyodning bir sutkadagi oziq ratsionidagi moddalar parchalanishidan hosil bo'lgan eregiyadan 1200 kkal. si uning asosiy moddalar almashinuviga sarlanganligi ma'lum bo'lsa:

a) uning tana massasi necha kg ekanligi;

b) uning ovqat hazm qilishga qancha energiya sarflaganini aniqlang.

*Yechilishi:* Ushbu masalani yechish uchun o'qituvchi yoki o'quvchi quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim. Odam organizmida bir kecha-kunduz davomida sarflanadigan energiya uch qismidan iborat:

1. Asosiy moddalar almashinuvini ta'minlash uchun sarflanadigan energiya. (bir soatda bir kg tana massa uchun bir kk sarflanadi). ( $70 \text{ kg} \cdot 24 \text{ soat} = 1680 \text{ kk}$ )

2. Ovqatni hazm qilishga sarflanadigan energiya asosiy moddalar almashinuviga sarflangan energiyaning 10 % i ovqat hazm qilishga sarflanadi ( $1680 : 10 = 168 \text{ kk}$ )

3. Odam bir kecha-kunduzda bajaradigan ishiga sarflanadigan energiya. (kasbi va bajaradigan ishiga)

a) Bir soatda bir kg tana massasi uchun bir kkal energiya sarf bo'lishini hisobga olgan holda quyidagi amallarni bajaramiz:

$$1200 \text{ kkal} : 24 \text{ soat} = 50 \text{ kg}.$$

b) asosiy moddalar almashinuviga sarflangan energiyaning 10 % i ovqat hazm qilishga sarflanadi. Shunga asosan proporsiya tuzamiz.

$$1200 \text{ kkal} - 100 \%$$

$$x = \text{kkal} - 10 \% x = 120 \text{ kkal}$$

**Javob:** a- tana massasi 50 kg; b-120 kkal energiya sarflangan.

**7-masala.**Tana massasi 70 kg bo'lgan odamning bir kunlik qabul qilgan oziq moddalarining parchalanishidan hosil bo'lgan energiya miqdori 3000 kkal ni tashkil etsa, asosiy moddalar almashinuvini ta'minlash uchun sarflangan energiya miqdorini kkal aniqlang.

*Yechilishi:* Bir soatda bir kg tana massasi uchun bir kkal energiya sarf bo'lishini hisobga olgan holda quyidagi amalni bajaramiz:

$$70 \text{ kg} \cdot 24 \text{ soat} = 1680 \text{ kk}$$

8.Tana massasi 70 kg bo'lgan odamning bir kunlik qabul qilgan oziq moddalarining parchalanishidan hosil bo'lgan energiya miqdori 3000 kkal ni tashkil etsa, shu odamning bir kecha kunduzda bajaradigan ishiga va ovqat hazm qilishga sarflangan energiya miqdorini kkal aniqlang?

*Yechilishi:* Bir soatda bir kg tana massasi uchun bir kkal energiya sarf bo'lishini hisobga olgan holda shu odamning bir kecha kunduzda bajaradigan ishiga va ovqat hazm qilishga sarflangan energiya miqdori aniqlanadi:

1)  $70 \text{ kg} \cdot 24 \text{ soat} = 1680 \text{ kk}$  asosiy moddalar almashinuviga sarflangan;

2) bir kunlik qabul qilgan oziq moddalarining parchalanishidan hosil bo'lgan energiya miqdoridan asosiy moddalar almashinuviga sarflangan energiya miqdori ayirsak, masalaning javobi kelib chiqadi:

$$3000 \text{ kk} - 1680 \text{ kk} = 1320 \text{ kk}$$
 energiya sarflagan.

**Javob:** 1320 kk.

**9-masala.** Tana massasi 70 kg bo'lgan odamning bir kunlik qabul qilgan oziq moddalarining parchalanishidan hosil bo'lgan energiya miqdori 3000 kkal ni tashkil etsa, shu odamning asosiy moddalar almashnuvi uchun sarflanmagan energiya necha % ni tashkil etadi?

*Yechilishi:* Odam organizmida bir kecha-kunduz davomida sarflanadigan energiya uch qismidan iborat:

1. Asosiy moddalar almashinuvini ta'minlash uchun sarflanadigan energiya.

2. Ovqatni hazm qilishga sarflanadigan energiya asosiy moddalar almashinuviga sarflangan energiyaning 10 % i ovqat hazm qilishga sarflanadi

3. Odam bir kecha-kunduzda bajaradigan ishiga sarflanadigan energiya.

Bir soatda bir kg tana massasi uchun bir kkal energiya sarf bo'lishini hisobga olgan holda quyidagi amallarni bajaramiz:

1)  $70 \text{ kg} \cdot 24 \text{ kk} = 1680 \text{ kk}$  energiya asosiy moddalar almashnuvi uchun sarflangan;

2) bir kunlik qabul qilgan oziq moddalarining parchalanishidan hosil bo'lgan energiya miqdoridan asosiy moddalar almashinuviga sarflangan energiya miqdori ayiramiz:

$3000 \text{ kk} - 1680 \text{ kk} = 1320 \text{ kk}$  energiya asosiy moddalar almashinuviga sarflanmagan;

3) Endi bu energiya umumiy energiyaning necha foizni tashkil etishini aniqlaymiz:

$3000 \text{ kk} — 100\% \text{ bo'lsa}$

$1320 \text{ kk} — x = 44\% \text{ ni tashkil etadi.}$

**Javob:** 44 %

**10-masala.** Tana massasi 70 kg bo'lgan odamning bir kunlik qabul qilgan oziq moddalarining parchalanishidan hosil bo'lgan energiya miqdori 3000 kkal ni tashkil etsa, shu odamning asosiy moddalar almashnuvi uchun ketgan kkal energiya necha % ni tashkil etadi?

*Yechilishi:* Bir soatda bir kg tana massasi uchun bir kkal energiya sarf bo'lishini hisobga olgan holda quyidagi amallarni bajaramiz:

1)  $70 \text{ kg} \cdot 24 \text{ kk} = 1680 \text{ kk}$  energiya asosiy moddalar almashnuvi uchun sarflangan;

2) bu energiya umumiy energiyaning necha foizni tashkil etishini aniqlaymiz:

$3000 \text{ kk} — 100\% \text{ bo'lsa}$

$1680 \text{ kk} — x = 56\% \text{ ni tashkil etadi.}$

**Javob:** 56 %

**11-masala.** Qaysi javobda 110 kg li odamning bir kunlik ovqat hazm qilishiga sarflangan energiyaning miqdori to'g'rini hisoblab toping?

*Yechilishi:* Bir soatda bir kg tana massasi uchun bir kkal energiya sarf bo'lishini hisobga olgan holda quyidagi amalni bajaramiz:

a)  $110 \text{ kg} \cdot 24 \text{ soat} = 2640 \text{ kk}$  energiya asosiy moddalar almashnuvi uchun sarflangan;

b) asosiy moddalar almashinuviga sarflangan energiyaning 10 % i ovqat hazm qilishiga sarflanishini hisobga olgan holda masalaning javobi aniqlanadi:

2640 kk : 10 % = 264 kk energiya ovqat hazm qilishiga sarflangan.

**Javob:** 264 kk

**12-masala.** Agar bir sutkada oziq moddalarning parchalanishi natijasida organizmida 3600 kkal energiya hosil bo'lsa, uning qanchasi tana haroratining doimiyligini ta'minlash uchun (1), qanchasi to'qima va organlar hayotiy jarayonlarining normal o'tishi va ish bajarishi uchun (2) sarflanadi?

*Yechilishi:* **Izoh:** Oziq moddalar parchalanishidan hosil bo'ladigan energiyani uchdan ikki qismi to'qima va organlar hayotiy jarayonlarining normal o'tishi va ish bajarishi uchun, uchdan bir qismi esa tana haroratining doimiyligini ta'minlash uchun sarflanadi.

1) 3600 kk : 3 ga = 1200 kk;

2) 3600 kk - 1200 kk = 2400 kk;

**Javob:** a-1200 kk, b-2400 kk energiya sarflanadi.

**13-masala.** Azizbek bir sutkadagi iste'mol qilgan ovqatidan 4200 kk energiya hosil bo'lgan. Bu energiyaning necha kk si (maksimal foiz bilan hisoblanganda) tushki ovqatdan hosil bo'lgan?

*Yechilishi:* masalani yechimini aniqlashda ovqatlanishning rejimi qoidasini bilish talab etiladi:

- *ertalabki nonushta* - bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining 25-30 % ini tashkil etadi (soat 7-7:30 da);

- *tushki ovqat* - bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining 35-40 %ini tashkil etishi kerak (ertalab o'qiydiganlar uchun matabdan keyin, ya'ni soat 14-15 da; kunning ikkinchi yarmida o'qiydiganlar uchun soat 12-12:30 da);

- *kechki ovqat*-bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining 15 - 20 % ini tashkil etadi (soat 19-20:00 da).

- Yuqorida ko'rsatilgan uch marta asosiy ovqatlanishdan tashqari, qo'shimcha ovqatlanish ham ko'zda tutiladi. Bu bir kecha kunduzgi ovqatning 10-15 % ini tashkil etadi. Shunga ko'ra:

4200 kk — 100 % bo'lsa

1680 kk — = x 40 % qancha.

**Javob:** 1680 kk.

**14-masala.** Umida bir sutkadagi iste'mol qilgan ovqatidan 3000 kk energiya hosil bo'lgan. Bu energiyaning necha kksi (maksimal foiz bilan hisoblanganda) qo'shimcha ovqatdan hosil bo'lgan?

*Yechilishi:* masalani yechimini aniqlashda ovqatlanishning rejimi qoidasini bilish talab etiladi:

- *ertalabki nonushta* - bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining 25-30 % ini tashkil etadi (soat 7-7:30 da);
- *tushki ovqat* - bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining 35-40 %ini tashkil etishi kerak (ertalab o'qiydiganlar uchun mактабдан keyin, ya'ni soat 14-15 da; kunning ikkinchi yarmida o'qiydiganlar uchun soat 12-12:30 da);
- *kechki ovqat*-bir kecha-kunduzgi ovqat kaloriyasining 15 - 20 % ini tashkil etadi (soat 19-20:00 da).

▪ Yuqorida ko'rsatilgan uch marta asosiy ovqatlanishdan tashqari, qo'shimcha ovqatlanish ham ko'zda tutiladi. Bu bir kechakunduzgi ovqatning 10-15 % ini tashkil etadi. Shunga ko'ra:

3000 kk — 100 % bo'lsa

450 kk — =x 15 % qancha.

**Javob:** 450 kk.

**15-masala.** Azimjon bir sutka davomida qabul qilgan ovqati ratsionida yog' va oqsilning miqdori teng, uglevod miqdori oqsil miqdoridan 4,5 marta ko'p. To'qima va organlar hayotiy jarayonlarining normal o'tishi va ish bajarishi uchun 2548 kkalni tashkil etgan bo'lsa, uning ovqat ratsionidagi yog'ning (a) miqdori (gramm) va uglevodning parchalanishidan hosil bo'ladigan energiya (b) miqdorini (kkal) aniqlang?

*Yechilishi:* Mazkur masalani yechishda o'qituvchi yoki o'quvchi matematika fani bilan bog'liq bilimlariga tayangan holda to'g'ri javobni topishi mumkin. **Izoh:** oziq moddalar parchalanishidan hosil bo'ladigan energiyani uchdan ikki qismi to'qima va organlar hayotiy jarayonlarining normal o'tishi va ish bajarishi uchun, uchdan bir qismi esa tana haroratinining doimiyligini ta'minlash uchun sarflanadishunga va 1gr oqsil va uglevod kislorod ta'sirida parchalanganda 4.1 kk, 1 gr yog' esa 9.3 kk energiya hosil qiladi shunga ko'ra, quyidagi amallar bajariladi:

1)  $2548 \text{ kk} = 2 \text{ qismi tashkil etsa,}$

$3822 \text{ kk} = x = 3 \text{ qismi esa}$

2) Berilgan moddalardan hosil bo'ladigan energiya miqdorini topish uchun sistemaga solamiz:

$$4.1 \text{ kk oqsil } x + 9.3 \text{ kk yog' } x + 4.1 \text{ kk uglevod} \cdot 4.5 = 3822 \text{ kk}$$

$$(4.1 \text{ kk} \cdot 4.5 \text{ kk} = 18.45 \text{ kk uglevod.})$$

$$3) 4.1 \text{ x} + 9.3 \text{ x} + 18.45 \text{ x} = 3822 \text{ kk}$$

$$4) 31,85 \text{ x} = 3822 \text{ kk}$$

$$5) \text{x} = 120 \text{ gr yog'}$$

6) uglevod miqdori oqsil miqdoridan 4,5 marta ko'pligini e'tiborga olib dastlab uning massasi so'ng esa parchalanishidan hosil bo'lgan energiya miqdorini kk da topamiz:

$$120 \text{ gr} \cdot 4.5 = 540 \text{ gr uglevd};$$

$$540 \text{ gr} \cdot 4.1 \text{ kk} = 2214 \text{ kk hosil qiladi.}$$

**Javob:** a-yog'ning miqdori 120 gr; b-uglevodning parchalanishidan hosil bo'ladigan energiya 2214 kk

**16-masala.** Temurning tana massasi 70 kg bo'lib, bir kunlik iste'mol qilingan uglevoddan hosil bo'lgan jami energiya 2050 kkalga teng. Ozuqadagi kunlik oqsil va yog' miqdori teng bo'lib, uglevod miqdori ulardan 2,5 marta ko'p. Ovqat hazm qilishga va bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflangan energiya miqdorini kkalda hisoblab toping?

*Yechilishi:*

Mazkur masala 8-sinf Odam va uning salomatligi darsligidan olgan bilimlarga tayangan holda, masalanining javobi topiladi:

1) Dastlab pedagog 2050 kkal uglevod necha gr ekanligini aniqlashi zarur. Buning uchun darslikda berilgan ma'lumotlardan 4,1 kkal energiya 1gr uglevodning oksidlanishidan hosil bo'lishini asos qilib, 2050 kkal energiyani 4,1 kkal energiya miqdoriga bo'lamiz va uglevod necha gr ekanligini aniqlaymiz.

$$2050 \text{ kk} : 4,1 \text{ kk} = 500 \text{ gr uglevodning miqdori.}$$

2) Endi masala mazmunida noma'lum bo'lgan oqsil va yog' miqdorini topamiz.

$$500 \text{ kk} : 2,5 \text{ kk} = 200 \text{ gr bu esa oqsil va yog'ning umumiyligi miqdori.}$$

3) Uchinchi amal orqali oqsil va yog'ning alohida massasini topamiz va har biri necha kkal energiya hosil qilishini hisoblaymiz.

$$\text{a)} 200 \text{ gr} : 2 = 100 \text{ grdan oqsil va yog' bor ekan.}$$

$$\text{b)} 100 \text{ gr} \cdot 4,1 \text{ kk} = 410 \text{ kkal (oqsil)}$$

$$\text{v)} 100 \text{ gr} \cdot 9.3 \text{ kk} = 930 \text{ kkal (yog')}$$

4) Oqsil, yog' va uglevodning umumiyligi energiyasini aniqlaymiz.

$$410 \text{ kk} + 930 \text{ kk} + 2050 \text{ kk} = 3390 \text{ kkal umumiyligi energiya.}$$

5) Darslikdan bizga ma'lumki, energiya almashinuviga uch bosqichda boradi ya'ni: *birinchi bosqich*: asosiy moddalar almashinuviga sarflanadigan energiya;

*ikkinchi bosqich*: ovqat hazm qilishga sarflanadigan energiya;

*uchinchi bosqich*: bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflanadigan energiya.

Temurning tana massasi 70 kg ligi masala mazmunida berilgan, bu ma'lumotlarga tayanib, asosiy moddalar almashinuviga sarflanadigan energiya miqdorini aniqlab olamiz: \*(Eslatma: 1kg tana massasiga 1 soatda 1 kkal energiya sarflanadi) shunga ko'ra,  $70 \text{ kg} \cdot 24 \text{ soat} = 1680 \text{ kkal}$  energiya asosiy moddalar almashinuviga sarflanadigan energiya aniqlangach, umumiyligi energiyadan ayirsak, ovqat hazm qilishga va bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflangan energiya miqdori kelib chiqadi.

$$3390 - 1680 = 1710 \text{ kkal}$$

**Javob:** Temur bir sutka davomida 1710 kkal energiya ovqat hazm qilishga va bir kecha-kunduzda bajarilgan ishga sarflangan.

**17-masala.** Bir kecha kunduzdag'i ovqat tarkibida, oqsil, yog', uglevod umumiyligi 330 g ni tashkil qiladi. Oqsildan ajralgan energiya 328 kkal ga teng bo'lsa, yog' va oqsildan ajralgan energiya farqi 583 kkal ga teng bo'lsa, ovqat tarkibidagi uglevod miqdori(g)ni hisoblang.

Bu turdag'i biologik masalarni yechish jarayonida matematikadan oлган bilimlarimizni safarbar etish orqali javobini topiladi.

*Yechilishi:*

$$1) 328 \text{ kk} : 4,1 \text{ kk} = 80 \text{ g oqsil}$$

$$2) 330 \text{ g} - 80 \text{ g} = 250 \text{ g yog'} \text{ va uglevodning umumiyligi miqdori}$$

$$3) x + y = 250 \text{ g}$$

$$4) 9,3x - 4,1y = 583 \text{ kkal}$$

$$x = 120 \text{ gr yog'}$$

$$y = 130 \text{ gr uglevod}$$

**Javob:** 130 gr uglevodning miqdori.

**18-masala.** Temurning bir kecha kunduzdag'i ovqat ratsionida oqsil miqdori uglevod miqdoridan 2,5 barobar kam, yog' miqdori esa, oqsil miqdoridan, 1,25 barobar ko'pligi ma'lum bo'lsa, qo'shimcha va tushki ovqatidan ajralgan energiya 1142,9 kkal ga teng bo'lsa, Temurning ovqat ratsionida uglevod va oqsillarning umumiyligi

miqdorini (g) toping. (*Ratsional ovqatlanishni maksimal foizida hisoblang*)

*Yechilishi:*

1)  $qo'shimcha$  va tushki ovqatdan ajralgan energiya

$$15\% + 40\% = 55\%$$

2)  $1142,9 \text{ kk} : 0,55 = 2078 \text{ kkal}$  ovqatdan ajralgan energiya

3) oqsilni x qilib olsak,

Oqsil miqdori uglevod miqdoridan 2,5 barobar kam, yog' miqdori esa, oqsil miqdoridan 1,25 barobar ko'p bo'lsa, quydagicha tenglama tuzamiz:

$$4,1 \text{ kk} \cdot 2,5 \text{ marta} = 10,25 \text{ kkal uglevod bo'lishi aniqlanadi.}$$

$$9,3 \text{ kk} \cdot 1,25 \text{ marta} = 11,625 \text{ kkal yog'}$$

$$4,1x + 10,25x + 11,625x = 2078$$

$$25,975x = 2078$$

$$x = 80 \text{ gr oqsil}$$

$$80 \cdot 2,5 = 200 \text{ gr uglevod}$$

$$80 \cdot 1,25 = 100 \text{ gr yog'}$$

$$4) 200 \text{ gr} + 80 \text{ gr} = 280 \text{ gr}$$

**Javob:** 280 gr miqdorida uglevod va oqsil bo'ladi.

**19-masala.** Anvarning ovqat ratsionida, oqsil va yog' dan ajralgan energiya umumiy ovqatdan ajralgan energiyadan 2255 kkal ga kam, uglevod miqdori ovqat tarkibidagi oqsil va yog' ning umumiy miqdori (g) dan 300 g ko'pligi ma'lum bo'lsa va oqsil miqdori yog' miqdoridan 50 g ko'p bo'lsa, Anvarning ovqati tarkibidagi yog' va uglevodni massa nisbatini aniqlang. Bu masalaning yechimini fanlararo bog'lanishlar asosida topish maqsadga muvofiq.

*Yechilishi:*

1) oqsil, yog', uglevod

2)  $2255 : 4,1 \text{ kkal} = 550 \text{ g uglevod}$

3)  $550 - 300 = 250 \text{ g yog' va oqsil}$

$$4) x + y = 250$$

$$x - y = 50$$

$$250 + 50 = 300$$

$$300 : 2 = x$$

$$x = 150 \text{ oqsil}$$

$$250 - 150 = y$$

$$y = 100 \text{ yog'}$$

5)  $100 : 550 = 1 : 5,5$  nisbat

**Javob:**  $1 : 5,5$  massa nisbatda Anvarning ovqati tarkibidagi yog‘ va uglevod bo‘ladi.

**20-masala.** Akmal yugurganda 1 daqiqada 30 kJ energiya sarflaydi. Unda 180 gr uglevod zahirasi sifatida bo‘lsa, necha daqiqadan so‘ng yog‘ parchalanadi?

*Yechilishi:*

$$1) 180 \text{ gr} \cdot 17,6 \text{ kJ} = 3168 \text{ kJ}$$

$$2) 3168 \text{ kJ} : 30 \text{ kJ} = 105,6 \text{ daqiqadan so‘ng.}$$

**Javob:** 105,6 daqiqadan so‘ng yog‘ parcalanadi.

### Mustaqil yechish uchun masala va mashqlar

1. Akmal yugurganda 1 daqiqada 40 kJ energiya sarflaydi. Unda 150 gr uglevod zahirasi sifatida bo‘lsa, necha daqiqadan so‘ng yog‘ parchalanadi?

2. Temurning tana massasi 80 kg bo‘lib, bir kunlik iste’mol qilingan uglevoddan hosil bo‘lgan jami energiya 2050 kkalga teng. Ozuqadagi kunlik oqsil va yog‘ miqdori teng bo‘lib, uglevod miqdori ulardan 2,5 marta ko‘p. Ovqat hazm qilishga va bir kecha-kunduzda bajarilgan ishma sarflangan energiya miqdorini(kkal) aniqlang.

3. Akmal yugurganda 1 daqiqada 80 kJ energiya sarflaydi. Unda 150 gr uglevod zaxirasi sifatida bo‘lsa, necha daqiqadan so‘ng yog‘ parchalanadi?

4. Ovqat tarkibidagi oqsil, yog‘ va uglevodning massa nisbati 1:1:5 ga teng bo‘lib, ovqatdan ajralgan umumiy energiya 14450 kJ ga teng bo‘lsa, yog‘dan ajralgan energiya oqsildan ajralgan energiyadan qanchaga (kJ) farq qiladi?

5. Ovqat tarkibidagi oqsil, yog‘ va uglevodning massa nisbati 1:1:5 ga teng bo‘lib, ovqatdan ajralgan umumiy energiya 14450 kJ ga teng bo‘lsa, yog‘dan ajralgan energiya oqsildan ajralgan energiyadan qanchaga (kJ) farq qiladi?

6. Ovqat tarkibidagi oqsil, yog‘ va uglevodning massa nisbati 1:1:5 ga teng bo‘lib, ovqatdan ajralgan umumiy energiya 14450 kJ ga teng bo‘lsa, uglevoddan ajralgan energiya oqsildan ajralgan energiyadan qanchaga (kJ) farq qiladi?

7. Ovqat tarkibidagi oqsil, yog‘ va uglevodning massa nisbati 1:1:5 ga teng bo‘lib, ovqatdan ajralgan umumiy energiya 14450 kJ ga teng

bo'lsa, uglevoddan ajralgan energiya yog'dan ajralgan energiyadan qanchaga (kJ) farq qiladi?

8.Ovqat tarkibidagi oqsil, yog' va uglevodning massa nisbati 1:1:5 ga teng bo'lib, ovqatdan ajralgan umumiy energiya 14450 kJ ga teng bo'lsa, uglevoddan ajralgan energiya va oqsildan ajralgan energiya yig'indisi qancha kJ ga teng?

9.Ovqat tarkibidagi oqsil, yog' va uglevodning massa nisbati 1:1:5 ga teng bo'lib, ovqatdan ajralgan umumiy energiya 14450 kJ ga teng bo'lsa, uglevoddan ajralgan energiya va yog'dan ajralgan energiya yig'indisi qancha kJ ga teng??

10.Ovqat tarkibidagi oqsil, yog' va uglevodning massa nisbati 1:1:5 ga teng bo'lib, ovqatdan ajralgan umumiy energiya 14450 kJ ga teng bo'lsa, uglevoddan qancha kJ ga teng?

11.Ovqat tarkibidagi oqsil, yog' va uglevodning massa nisbati 1:1:5 ga teng bo'lib, ovqatdan ajralgan umumiy energiya 14450 kJ ga teng bo'lsa, yog'dan ajralgan energiya qancha kJga teng?

12.Anvarning bir kunlik ovqati tarkibidan ajralgan energiya 4280 kJ ni tashkil etib oqsildan ajralgan energiya foizi yog' va uglevoddan ajralgan energiyadan 28% ga kamligi, uglevoddan ajralgan energiya 2% ga ko'pligi aniq bolsa, bir kunlik istemol qilgan yog' miqdorini(g) toping.

13.Anvarning bir sutka davomida, qabul qilgan ovqat ratsionida, yog' va oqsil miqdori teng ulardan ajralgan energiya farqi 2130 kJ ga teng. Agar ushbu o'quvchi tana haroratini saqlash uchun 1130 kkal energiya sarflansa, uning ovqat ratsionidagi uglevodni miqdorini g toping.

14.Odam bir sutka davomida iste'mol qilgan ovqatining parchalanishidan 2621,8 kkal energiya ajralib chiqdì. Undan 100 g oqsil iste'mol qilgan bo'lsa, uning 30% i plastik reaksiyalar uchun qolgani dissimilyatsiya uchun sarflangan va iste'mol qilgan 80 g lipidning barchasi dissimilyatsiya uchun sarflandi. Kun davomida istemol qilingan uglevoddan hosil bo'lgan energiyaning 3 % i glikogen zahiralashga sarflandi. Istemol qilgan ozuqadagi uglevod miqdorini aniqlang.

15.Odam bir sutka davomida 100 g oqsil iste'mol qilgan bo'lsa, shundan 30 % i plastik reaksiyalar uchun qolgani dissimilyatsiya uchun sarflangan. Kun davomida istemol qilingan 400 g uglevodning

5 % i glikogen zahiralashga sarflandi. Iste'mol qilgan 80 g lipidning 75 % i dissimilyatsiya uchun sarflandi, qolgani teri osti yog' qavati hosil qilish uchun sarflangan. Istemol qilgan ozuqaning oqsil, uglevod va lipidlarning parchalanishidan hosil bo'lgan energiyani kkal aniqlang.

16. Hayvon hujayrasida kislorodli muhitda 155 molekula CO<sub>2</sub> hosil bo'ldi. Bunda necha molekula kislorod (a), glyukoza (b) parchalandi, necha molekula ATF (c) hosil bo'ldi.

17. Hayvon hujayrasida kislorodli muhitda 155 molekula CO<sub>2</sub> hosil bo'ldi. Bunda necha molekula sut kislota (a), glyukoza (b) parchalandi?

18. 540 g glyukozaning hosil bo'lishida necha mol ATF (a) sarflanadi va 540 g glyukozaning noto'liq parchalanishida necha mol ATF (b) hosil bo'ladi.

19. 540 g glyukozaning hosil bo'lishida necha mol CO<sub>2</sub> (a) sarflanadi va 540 g glyukozaning parchalanishida necha mol CO<sub>2</sub> (b) hosil bo'ladi?

20. 360 g glyukozaning hosil bo'lishida qancha kJ ATF (a) sarflanadi va 360 g glyukozaning parchalanishida necha mol ATF (b) hosil bo'ladi?

21. 360 g glyukozaning hosil bo'lishida qancha kJ ATF (a) sarflanadi va 360 g glyukozaning noto'liq parchalanishida necha mol ATF (b) hosil bo'ladi?

22. 360 g glyukozaning hosil bo'lishida necha mol CO<sub>2</sub> (a) sarflanadi va 360 g glyukozaning parchalanishida necha mol CO<sub>2</sub> (b) hosil bo'ladi?

23. Anvar bir kunda iste'mol qilgan oqsil, yog', uglevodning miqdori 360 g. Oqsildan hosil bo'lgan energiya 307,5 kkal. Yog'dan hosil bo'lgan energiya oqsildan hosil bo'lgan energiyadan 641,1 kkal ko'p. Oqsilning miqdorini aniqlang?

24. Anvar bir kunda iste'mol qilgan oqsil, yog', uglevodning miqdori 360 g. Oqsildan hosil bo'lgan energiya 307,5 kkal. Yog'dan hosil bo'lgan energiya oqsildan hosil bo'lgan energiyadan 641,1 kkal ko'p. Yog'ning miqdorini aniqlang?


25. Anvar bir kunda iste'mol qilgan oqsil, yog', uglevodning miqdori 360 g. Oqsildan hosil bo'lgan energiya 307,5 kkal. Yog'dan

hosil bo'lgan energiya oqsildan hosil bo'lgan energiyadan 641,1 kkal ko'p. Uglevodning miqdorini aniqlang?

## NUKLEIN KISLOTALAR MAVZUSIGA OID MASALA VA MASHQLAR

Umumiy o'rta ta'lif maktablari o'qituvchilari va o'quvchilari nuklien kislotalar mavzusiga oid mavzularni mazmun mohiyatini to'liq tushunib yetishi mazkur mavzuga oid masalalar yechish hamda mashqlar bajarish jarayoni uchun muhim poydevor hisoblanadi. Ushbu mavzuga bo'yicha masalalar yechish yoki tuzish uchun quyida keltirilgan zaruriy ko'rsatmalarni anglab yetishi lozim:

- "Nuklein kislotalar" degan atama lotincha "nukleus", ya'ni yadro so'zidan olingan. Nuklein kislotalar birinchi marta 1869-yilda shvetsariyalik vrach F.Misher tomonidan leykotsitlar yadrosidan topilgan;
- Nuklein kislotalar polimerlar bo'lib, ularning monomerlari nukleotidlardan hisoblanadi;



- Har bir mononukleotid 3 ta komponentdan tuzilgan: azotli asos, monosaxarid, fosfat kislota goldig'i;

Dezoksiribonukleotid	Ribonukleotid
Azotli asos  Dezok-siribozza	Azotli asos  Riboza


- DНК таркibiغا kiruvchi nukleotidlardan dezoksiribonukleotidlardan, РНК таркibiغا kiruvchi nukleotidlardan ribonukleotidlardan deb yuritiladi

DNK nukleotidlari	RNK nukleotidlari

- Bitta nukleotidning molekulyar massasi o'rtacha 345 deb qabul qilingan;
    - D NK dagi nukleotidlar orasidagi masofa - 0,34 nm;
    - D NK spiralining bir aylanasida 10 ta nukleotid bo'lib orasidagi masofa 3,4 nm;
    - D NK qo'sh spirali o'rta sidagi masofa 2 nm atrofida bo'ladi.
    - A (adenin) doimo T (timin) ga, G (guanin) doimo C (sitozin)ga komplementar. Agar DNKnинг bir zanjirida A(adenin) bo'lsa hamisha ikkinchi zanjirda T (timin), bir zanjirda G (guanin) bo'lsa, uning qarshisida doimo C (sitozin) bo'ladi;
    - D NK molekulasi birgalikda o'ng tarafga buralib, qo'sh spiral hosil qiluvchi ikkita polinukleotid zanjirlardan iborat. Bu zanjirlar bir-biriga antiparallel bo'lib, biri 3' uglevod bilan boshlanib 5' uglerod bilan tugallansa, ikkinchisi 5' uglerod bilan boshlanadi va 3' uglerod bilan tugallanadi;
    - Purin va pirimidin asoslari spiral ichida joylashadi;
    - Azotli asoslarning komplementarlik E.Changaff qoidasida aks etgan:
1. Purin asoslarining soni pirimidin asoslarini soniga teng;

2. Adeninlar soni timinlar soniga, guaninlar soni sitozinlar soniga teng: A=T, G=C;

3. Adenin va guaninlar sonining yig'indisi sitozinlar va timinlar sonining yig'indisiga teng: A+G=T+C;



- RNK molekulasi bitta polinukleotid zanjiridan iborat;
- Tuzilishi, molekulasining katta-kichikligi, hujayrada joylashishi va bajaradigan vazifasiga ko'ra 3 xil RNK farq qilinadi;
- Informatcion RNK (i-RNK) oqsilning strukturasi haqidagi genetik axborotni yadrodan ribosomalarga yetkazadi;
- Ribosomal RNK (r-RNK) ribosomalarning tarkibiga kiradi, yadroda xromosomaning yadrocha hosil qiladigan qismida sintezlanadi.
- Transport RNK (t-RNK) yadroda hosil bo'ladi, aminokislotalarni biriktirib ribosomalning polipeptid zanjiri yig'adigan joyga ya'ni ribosomaga yetkazadi.

## NUKLEIN KISLOTALAR MAVZUSI YUZASIDAN MASALA VA MASHQLAR YECHISH METODIKASI

**1-masala.** DNKning bir zanjiridagi nukleotidlari ketma - ketligi quyidagi tartibda joylashgan:

A-A-G-T-C-T-A-C-G-T-A-T.

Barcha nukleotidlari foizi va shu genning uzunligini toping.  
*Yechilishi:*

1) DNKning ikkinchi zanjirini E.Chargaffning komplementarlik prinspiga bo'yicha topamiz.

A-A-G-T-C-T-A-C-G-T-A-T

T-T-C-A-G-A-T-G-C-A-T-A

2)  $\sum(A + T + C + G) = 24$ ,

shundan  $\sum(A) = 8 = \sum(T)$

24 ta - 100%

8 ta - x % bundan: bitta zanjirda x = 33,4%

Shunga ko'ra ikkita zanjirda A-T=66,8 %;

$\sum(G) = 4 = \sum(C)$

24 ta - 100%

4 ta - x% x = 16,6%

Shunga ko'ra ikkita zanjirda G-C=16,6 %;

3) DNK molekulasi qo'sh zanjirli shu sababli genning uzunligi bitta zanjir uzunligi bo'yicha hisoblanadi;

12 ta  $\cdot$  0,34 nm = 4,08 nm

**Javob:** A - T - 66,8 %; G - C - 16,6 %; genning uzunligi 4,08 nm.

**2-masala.** DNK molekulsida sitozin 18 % ni tashkil etadi. Ushbu DNK tarkibidagi G, A va T larning fozini aniqlang.

*Yechilishi:*

1) C - 18%  $\Rightarrow$  G - 18%

2) A+T miqdori 100% - (18% + 18%) = 64%, ya'ni 32% dan to'g'ri keladi

**Javob:** G va C - 18%; A + T - 32%.

**3-masala.** DNK molekulasida 880 ta guanin aniqlangan. Guanin DNK tarkibidagi barcha nukleotidlarning 22%ini tashkil etadi.

*Angiqlang:*

a) DNK tarkibidagi boshqa nukleotidlar nechta?

b) DNKning bu fragmentini uzunligi qancha?

*Yechilishi:*

1)  $\sum(G) = \sum(C) = 880$  (bu 22%)

Boshqa nukleotidlarga 100 % - (22% + 22%) = 56%, ya'ni 28% dan to'g'ri keladi.

Bu nukleotidlar sonini hisoblash uchun proporsiya tuzamiz.

22% - 880 ta bo'lsa,

28% - x ta x = 1120 ta bo'ladi

2) DNKnинг узунлигини аниqlash учун битта DNK зanjirida qancha nukleotidlar borligini topish kerak:

$$(880 + 880 + 1120 + 1120) = 4000 \text{ ta nukleotid bitta zanjirda esa : } \\ 2 = 2000 \text{ ta}$$

$$3) 2000 \cdot 0,34 = 680 \text{ (nm)}$$

**Javob:** a) 400 ta; b) 680 nm

**4-masala.** Berilgan DNK molekulasini molekulyar massasi 69000 ga teng, shundan 8625 molekulyar massa adenining to'g'ri keladi. Bu DNK bo'lagidagi barcha nukleotidlar sonini toping. DNK ning bu bo'lagini uzunligini toping.

*Yechilishi:*

$$1) 69000 : 345 = 200 \text{ (DNKdagi nukleotidlar)}$$

$$8625 : 345 = 25 \text{ ( ushbu DNKdagi adeninlar)}$$

$$\sum(G+C) = 200 - (25+25) = 150, \text{ ya'ni } 75 \text{ tadan G va C ga to'g'ri keladi.}$$

2) DNKnинг ikkala zanjirida 200 nukleotid  $\Rightarrow$  bittasida- 100.

$$100 \cdot 0,34 = 34 \text{ (nm)}$$

**Javob:** 200 nukleotid; uzunligi 34 (nm) gat eng.

**5-masala.** Izoh. DNK molekulasasi qo'sh spiraldan iborat. Qo'sh spiraldagi nukleotidlar bir - biriga komplementar bo'lib bir - birini to'ldiradi. Ular o'zaro vodorod bog'lar bilan birikadi. Vodorod bog'lar bir zanjirdagi adenin va guaninidan ikkinchi zanjirdagi timin va sitozinga tomon boradi. Boshqa zanjirdan bunga qarama - qarshi yo'naladi. Komplementarlik prinsipi DNK reduplikatsiyasida va RNK transkripsiyasida muhim rol o'ynaydi.

Chargaff qoidasiga binoan DNK molekulasidagi nukleotidlar o'rtaсидаги qонуният va son jihatdan nisbat muhim ahamiyatga ega.

$$1) A = T; 2) G = C; bundan kelib chiqadiki A : T = 1 \text{ va } G : C = 1$$

Shunga asoslanib, DNK molekulasidagi 20% i guaninka to'g'ri keladi. DNKdagi adenin, timin sitozin nisbatini toping.

*Yechilishi :*

Chargaff qoidasini qo'llaymiz:  $G = C = 20\%$

$$A + T = 100 - (20 + 20)$$

$$A + T = 60\%, A = T = 30\%$$

**Javob:**  $C = G = 20\%$ ,  $A = T = 30\%$ .

**6-masala.** DNK bir zanjirining ma'lum qismidagi nukleotidlari quyidagi CCATAGC izchillikda. Ikkinci zanjirdagi nukleotidlari ketma-ketligini, vodorod bog'lar sonini toping va natijani izohlang.

*Yechilishi:*

1) 1 zanjir DNK: CCATAGC

2 zanjir DNK: GGTATCG

2) A bilan T o'rtaida 2 ta vodorod bog', jami  $3 \cdot 2 = 6$  ta.

3) G bilan C o'rtaida 3 ta vodorod bog', jami  $4 \cdot 3 = 12$  ta.

4) ikkala zanjir o'rtaidagi umumiy bog'lar soni  $12 + 6 = 18$  ta.

**Javob:** 18 ta vodorod bog'.

**7-masala.** Molekulasida  $A = 600$  ming,  $G = 2400$  ming bo'lgan DNK reduplikatsiyasi uchun qancha erkin nukleotidlari kerak?

**Javob:** DNK qancha nukleotid bo'lsa shuncha erkin nukleotid kerak.

$A = 600$  ming, bo'lsa  $T = 600$  ming.  $G = 2400$  ming, bo'lsa  $C = 2400$  ming. Hammasi bo'lib 6 mln.

**8-masala.** DNK molekulasi tarkibida 70 ta timin bo'lsa DNK molekulasida nechta adenin bo'lishi mumkin? Javobngizni izohlang.

**Javob:** A ga T lar soni mos keladi ya'ni 70 ta adenin bo'ladi. Komplimentarlik prinsipi asosida izohlanadi.

**9-masala.** DNK molekulasi dagi 950 ta nukleotidlari bo'lib umumiy nukleotidlari sonining 20 % ini sitozin tashkil etadi. Qolgan nukleotidlari foizini va DNK bo'lagini uzunligini toping?

*Yechilishi:* Chargaff qoidasini qo'llaymiz:

1)  $C = G = 20\%$

2)  $(A + T) = 100 - (20 + 20) = 60\%$ ,  $A = T = 30\%$

3) Nukleotidlari miqdorini topish uchun proporsiya tuzamiz.

20% i - 950 ta nukleotidni tashkil etsa,

30% - x ta ekanligini aniqlaymiz.  $x = 1425$  ta nukleotidni tashkil etadi.

4) DNK uzunligini bilish uchun bitta zanjirda nechta nukleotid borligini topish kerak.

$(950 + 950 + 1425 + 1425) : 2 = 2375$  ta,

5) DNK ning bitta zanjiridagi nukleotidlari sonini DNK dagi har bir nukleotid orasidagi masofaga ko'paytiradigan bo'lsak, DNK bo'lagining uzunligi kelib chiqadi.

$2375 \cdot 0,34 = 808$  (nm).

**Javob:** A = T = 30%, G = C = 20%, DNK fragmentini uzunligi – 808 nm.

**10-masala.** DNK molekulasida 1400 nukleotid bo'lib shundan timin umumiy nukleotidlarning 5% ini tashkil etadi. DNK molekulasiga tarkibiga kiradigan boshqa nukleotidlarning foizini toping. Ushbu DNK fragmentini uzunligi qancha bo'lishini hisoblang.

*Yechilishi:*

1)  $T = A = 5\% = 1400$  nukleotid, ular yig'indisi  $A + T = 2800$  nukleotidni tashkil etadi.

2)  $(A + T) = 10\%$ , va  $(G + C) = 90\%$ ,  $G = C = 45\%$

3)  $5\% - 1400$

$45\% - x$  ni qiymatini aniqlaymiz  $x = 12600$  nukleotid C va G

$(2800 + 25200) : 2 = 14000$ , endi DNK fragmeentining uzunligini topamiz.

$14000 \cdot 0,34 = 4760$  nm.

**Javob:**  $G = C = 45\% = 12600$  nukleotid;

$A = T = 5\% = 1400$  nukleotid;

DNK fragmenti uzunligi – 4760 nm.

**11-masala.** DNK molekulasiga fragmenti 1100 ta nukleotiddan tashkil topgan. Shundan adenin umumiy nukleotidlarning 10 % izini tashkil etadi. Timin, guanin, sitozinning har birini ushbu DNK da qanchaligini toping va natijani izohlab bering.

*Yechilishi:*

1)  $1100 — 100\% = 100\%$  bo'lsa,

$x 10\%$

$x = 110$  ta adenin borligini aniqlaymiz.

2)  $A = T$  mosligini hisobga olib,  $110$  ta timin bo'ladi.

3)  $1100 - 220 = 880$  ta G bilan C ning umumiy soni topiladi.

4)  $880 : 2 = 440$  ta G va  $440$  ta C lar soni bor ekan.

**Javob:**  $A = 110$  ta;  $T = 110$  ta;  $G = 440$  ta;  $C = 440$  ta

**12-masala.** Berilgan DNK molekulasining molekulyar massasi 69000 ga teng, shundan molekulyar massani 8625 adeniga to'g'ri keladi. DNKdagi barcha nukleotidlari miqdorini toping. DNK fragmentini uzunligini hisoblang.

*Yechilishi:*

1) Bitta nukleotidning molekulyar massasi 345 ga tengligini bilgan holda DNKdagi nukleotidlari miqdorini topamiz.

$69000 : 345 = 200$  (nukleotid DNKda)

2) Har ikkala zanjirda 200 ta nukleotid, bitta zanjirda -100, unda  $100 \cdot 0,34 = 34$  (nm)

3) Adenin miqdorini topamiz:

$$8625 : 345 = 25;$$

A = T = 25 nukleotid;

G = C = (200 - 50) : 2 = 75 nukleotid.

**Javob:** A = T = 25 nukleotid, G = C = 75 nukleotid. DNK fragmentini uzunligi 34 nm.

**13-masala.** DNK molekulasining bir zanjirining molekulyar massasi 34155 teng. Bu zanjirga programalashtirilgan oqsil monomerlarini sonini toping.

*Yechilishi:*

$34155 : 345$  (bitta nukleotid molekulyar massasi) = 99 nukleotid DNK zanjirida bor.

$99 : 3 = 33$  triplet 33 ta aminokislotsani kodlaydi.

**Javob:** 33 aminokislota.

**14-masala.** DNKnинг bir zanjiridagi nukleotidlari TGATTUGGA AGCAGGCC bo'lsa ikkinchi zanjiridagi nukleotidlari izchilligi qanday bo'ladi?

*Yechilishi:*

Komplementarlik prinspiga asosan DNK ning ikkinchi zanjiridagi ketma - ketlik quyidagicha bo'ladi.

1 zanjir DNK: TGATTAGGAAGCAGGCC

**Javob:** 2 zanjir DNK: ACTAACCTT CGTCCGG

**15-masala.** DNKnинг bir zanjiridagi nukleotidlari CTTGTCATAAA i-RNK sintezi uchun matritsa rolini o'ynaydi. i-RNKdagi nukleotidlari izchilligi qanday bo'ladi?

*Yechilishi:*

DNK: C TTGTCACAAA

**Javob:** i-RNK: GAACAGUGUUU

**16-masala.** i-RNK dagi nukleotidlari tarkibi quyidagicha: 34% guanin, 18% uratsil, 28% sitozin, 20% adenin. i-RNK ga matrisa rolini o'ynagan DNK fragmentidagi azotli asoslarning foizini toping.

*Yechilishi:*

Shunday qilib, i-RNK 34% guanining DNKdagi 34% sitozin, 18% urasilga - 18 % adenining, 28% sitozinga - 28% guanin, 20% adenining - 20% timin komplementarlik prinsipiiga binoan to'g'ri keladi).

A + T va G + S yig'indisi DNKnинг qo'sh zanjirini tashkil etadi.

A + T = 18% + 20% = 38%; G + C = 28% + 34% = 62%.

DNKning kodlamaydigan uchastkasidagi nukleotidlari yig'indisi ham shunday bo'ladi. Faqat ayrim nukleotidlari ko'rsatkichi teskarisi bo'ladi.

A + T = 20% + 18% = 38%; G + C = 34% + 28% = 62%.

**Javob:** Har ikkala zanjirdagi azotli asoslar komplementarlik bo'yicha teng bo'ladi ya'ni adenin va timin - 19%, guanin va sitozin 31%.

**17-masala.** Quyida berlgan nukleotidlarni tripletlarga ajruting.

T-A-C-C-G-A-T-T-T-A-T

*Yechilishi:*

TAC, CGA , GTT,

2) DNK orqali aminokislotalarni hosil bo'lishi.

TTC -gln

CCT \_gln

ATT- ---

CAG-val

3) RNK UUA – ley

AUC- ile

4) DNK orqali RNK ma'lumotni ko'chirib yozilishi.

C-A-T-G-C-A-C-A

G-U-A-C-G-U-G-U

5) DNKnинг ikkinchi zanjirini shakllanishi.

C-A-T-T-A-C

G T A A T G

6) Aminokislolar quyidagicha hosil bo'ladi.

Ser – RNK: UCU , UCC, UCA, AGU, AGC. Sis – DNK: ACA, ACG

**Javob:** Ser – RNK: UCU , UCC, UCA, AGU, AGC. Sis – DNK: ACA, ACG

**18-masala.** DNKnинг bir zanjirida nukleotidlari ketma - ketligi: AGT ACC GAT ACT CGA TTT ACG ... bo'lsa ikkinchi zanjirida nukleotidlari ketma - ketligi qanday bo'ladi?

*Yechilishi:*

Komplementarlik prinsipiiga asoslanib DNK (A-T, G-C) ning ikkinchi zanjirini topamiz. DNKnинг ikkinchi zanjiri: TCA TGG CTA TGA GCT AAA TGC ...

**Javob:** TCA TGG CTA TGA GCT AAA TGC ... ko'rinishda bo'ladi.

**19-masala.** Fankoni sindromida (suyak to'qimasini hosil bo'lishini buzilishi) kasal odamning siyidigi orqali i-RNK dagi quyidagi tripletlarga mos: AUA, GUC, AUG, UCA, UUG, GUU, AUU aminokislotalar ajralib chiqadi. Fankon sindromi bilan kasallangan odamning siyidigi orqali qaysi aminokislotalar ajaralib chiqishini aniqlang. Agar sog'lom odam siyidigi tarkibida alanin, serin, glutamin kislota va glitsin.

*Yechilishi:*

Genetik kod jadvalidan foydalanib, berilgan tripletlar bo'yicha aminokislotalar ketma-ketligini topamiz. Bu izoleytsin, valin, metionin, serin, leytsin, tirozin, valin, izoleytsin. Shunday qilib kasal odam siyidigi tarkibida faqat bitta aminokisloa (serin) xuddi sog'lom odamniki singari qolgan 6tasi yangi.

**Javob:** kasal odam siyidigi tarkibida faqat bitta aminokisloa (serin) xuddi sog'lom odamniki singari qolgan 6tasi yangi.

**20-masala.** Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki i-RNKda 84% guanin, 18% urasil, 28% sitozin, 20 % adenin. Ushbu RNK ga matrisa rolini o'ynaydigishan DNK dagi azotli asoslarni foizini aniqlang.

*Yechilishi:*

Komplementarlik prinsipiiga asosan ma'lumki RNKdagи 34% guanining DNK zanjirnida 34% sitozin, shuningdek, 18% uratsilga - 18% adenin, 28% sitozinga - 28% guanin, 20% adenin - 20% timin to'g'ri keladi. A + T va G + C yig'indisiga mantiqa DNK zanjiridagi: A + T = 18% + 20% = 38%, G + C = 28% + 34% = 62% ga teng. DNK - qo'sh zanjirli molekulasi dagi ko'rsatkichslar quyidagicha bo'ladi:

A + T = 20% + 18% - 38%, G + C - 34 % + 28% = 62%. Qo'sh zanjirda adenin timinga - 19 %, guanin sitozinga 31%.

**Javob:** Qo'sh zanjirda adenin timinga - 19 %, guanin sitozinga 31%.

**21-masala.** 1200 juft nukleotidlar iborat DNK zanjirida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodorod bog'i mavjud. Ushbu fragmentda guanin va sitozin juftligi adenin va timin juftligidan 1.5 barobar ko'p bo'lsa, bu zanjirdagi guanin va sitozin juftligi orasidagi vodorod bog'lar sonini aniqlang.

$$1200 = 2400$$

$$2400 = 2 \times (A \text{ va } T) + 1,5 \cdot 2 \times (G \text{ va } C)$$

$$2400 = 5 \times$$

$$x = 480 \text{ ta}$$

$$480 \text{ ta} \text{ timinga } 480 \text{ adenin ular orasida vodorod bog'lar soni } 960$$

$$480 \cdot 1,5 = 720 \text{ ta}$$

$$720 \text{ ta } G \text{ ga } 720 \text{ C ular orasida vodorol bog'lar soni } 2160$$

**Javob:** 2160 ta guanin va sitozin juftligi orasidagi vodorod bog'lar bo'ladi.

**22-masala.** DNKnинг qo'sh zanjirida G nukleotidlari 40 % ni tashkil etadi. DNKdagi gen asosida sintezlangan oqsil 400 ta aminokislotadan iborat bo'lsa, shu DNK qo'sh zanjiridagn timin nukleotidlar sonini toping.

*Yechilishi:*

$$1) 400 \cdot 3 = 1200 \text{ ta umumiy nukleotid bo'lsa,}$$

$$2) 2400 — 100\%$$

$$x — 80\% x = 1920 \text{ ta } (G-C) \text{ nukleotidi bo'ladi.}$$

3) timin sonini toppish uchun umumiy nukleotidlar sonidan G bilan sitozinlar yig'indisi ayiriladi.

$$2400 - 1920 = 480 \text{ ta } (A-T) \text{ borligi aniqlandi.}$$

$$480 \text{ ta } (A-T) : 2 = 240 \text{ ta}$$

**Javob:** DNK qo'sh zanjiridagn timin nukleotidi 240 ta bo'lishi aniqlandi.

**23-masala.** DNK tarkibida 960 ta guanin nukleotid bo'lib, u umimiy nuleotidlarning 40% ini tashkil qiladi. Shu DNKdagi vodorod bog'lar sonini aniqlang.

*Yechilishi:*

$$1) 960 — 40\% ni tashkil etsa,$$

$$x 100\% — x = 960 : 40 = 240 \text{ ta } (A-T)$$

$$2) 960 \cdot 3 = 2880 \text{ ta } (G-C) \text{ orasidagi vodorod bog'}$$

$$3) 240 \cdot 2 = 480 \text{ ta } (A-T) \text{ orasidagi vodorod bog'}$$

4) Nukleotidlar orasidagi vodorod bog'lar sonini aniqlaymiz:

$2880+480=3360$  ta.

**Javob:** 3360 ta vodorod bog'lar bo'ladi.

**24-masala.** DNK molekulasining 306 nm uzunlikdagi qismida deletsiyadan so'ng 12 juft nukleotid yo'qoldi. Mutatsiyadan keyin hosil bo'lgan DNKdan sintezlangan oqsildagi aminokislotalar sonini toping.

*Yechilishi:*

1)  $306 : 0,34 = 900$  ta bitta zanjirdagi nukleotidlar soni.

2) Mutatsiyadan so'ng  $900 - 12 = 888$  ta nukleotid qoldi.

3) Ta nukleotid bitta aminokislotalari kodlasa u holda:

$888 : 3 = 296$  ta aminokislota qolgan.

**Javob:** Mutatsiyadan keyin hosil bo'lgan DNKdan sintezlangan oqsildagi aminokislotalar soni 296 ta.

**25-masala.** Bir molekula oqsil sinteziga javobgar bo'lgan DNK fragmentidagi guanin va sitozin nukleotidlari orasidagi vodorod bog'lar soni bilan, adenin va timin o'rta sidagi vodorod bog'lar soni yig'indisi 750 ga, ayirmasi esa 150 ga teng bo'lsa, DNK fragmentidagi jami nukleotidlar sonini aniqlang.

*Yechilishi:*

1)  $x + y = 750$  ta vodorod bog'

$x - y = 150$  ta ayirmasi

$x = 450$  G va C

$y = 300$  A va T

2)  $450 : 3 = 150$  G va C bitta zanjirda

3)  $300 : 2 = 150$  ta A va T bitta zanjirda

4)  $150 \cdot 2 = 300$  ta G va C

5)  $150 \cdot 2 = 300$  ta A va T

6)  $300 + 300 = 600$  ta jami nukleotid

**Javob:** DNK fragmentidagi jami 600 nukleotid bor.

**26-masala.** DNK qo'sh zanjirida 510 ta vodorod bog' bo'lib sitozin purin asosidan 2,333 marta kam bolsa, DNK uzunligini aniqlang.

*Yechilishi:*

A+G purin 2,33 ta bo'lsa

C sitozin 1 ta bo'ladi, u holda G ham 1 ta bo'ladi. Demak A 1,33 ta ekan

DNK da  $1G + 1C + 1,33A + 1,33T$

DNK uzunligi  $2,66 \cdot 0,34 = 0,7922$  nm

DNK dagi H bog'  $1 \cdot 3 = 3$ ;  $1,33 \cdot 2 = 2,66$

Jami H bog'  $5,66$  ta

$5,66$  ta H bog' —  $0,7922$  nm bo'lsa,

$510$  ta H bog' —  $x = 71,4$  nm bo'ladi.

**Javob:** D NK uzunligi  $71,4$  nm.

**27-masala.**  $4$  ta D NK molekulalarining biridan su'niy sharoitda  $99$  ta peptid bog'li oqsil molekulasi sintezlandi. Barcha D NK molekulasidegi nukleotidlari oqsil biosin-teziga javob bo'lgan D NK molekulasidan  $4,3$  marta ko'p.  $2$ -D NK nukleotidi  $1$ -D NK nukleotidlardan  $1,2$  marta,  $3$ -D NK dan  $0,8$  marta,  $4$ -D NK nukleotidlardan  $2$  marta katta bo'lsa, transkripsiya ishtrok etgan D NK molekulasini aniqlang.

*Yechilishi:*

$$1) 99 + 1 = 100 \text{ aminokislota};$$

$$2) 100 \cdot 6 = 600 \text{ D NK dagi nukleotid};$$

$$3) 4,3 \cdot 600 = 2580 \text{ jami nukleotidlari};$$

$$1-\text{D NK} - x$$

$$2-\text{D NK} - 1,2x$$

$$3-\text{D NK} - 1,2 : 0,8 = 1,5x$$

$$4-\text{D NK} - 1,2 : 2 = 0,6x$$

$$x + 1,2x + 1,5x + 0,6x = 2580$$

$$x = 600 \text{ ta}$$

Demak:

$$1-\text{D NK da } 600 \text{ ta}$$

$$2-\text{D NK da } 600 \cdot 1,2 = 720 \text{ ta}$$

$$3-\text{D NK da } 600 \cdot 1,5 = 900 \text{ ta}$$

$$4-\text{D NK da } 600 \cdot 0,6 = 360 \text{ ta}$$

**Javob:** transkripsiya ishtrok etgan D NK molekulasi  $1$ -D NK hisoblanadi unda  $600$  ta nukleotid bo'lgan.

### Mustaqil yechish uchun masala va mashqlar

1.D NK molekulasi fragmenti  $6000$  nukleotiddan tashkil topgan. Ushbu D NK fragmentining uzunligini toping.

2.D NK molekulasi fragmenti  $5760$  nukleotiddan tashkil topgan, ulardan timin  $1125$  ta. Bu D NK fragmentini uzunligini va adenin, guanin va sitozinga qancha nukleotid to'g'ri kelishini toping.

3.DNK molekulasini fragmenti 950 juft nukleotiddan iborat, shulardan 340 tasi adenin. Ushbu fragment uzunligini va guanin, timin, sitozin nukleotidlarining sonini toping.

4.Ushbu DNK fragmentidagi vodorod bog'lar sonini toping - GTCATGGATAGT CCTATT.

5.DNK molekulasi 4000 ta nukleotiddan iborat. D NK molekulasidagi to'liq spiral aylanishlar sonini toping.

6.DNK molekulasini uzunligi 850 nm ni tashkil etadi. D NK zanjiridagi nukleotidlar sonini toping.

7.DNK molekulasining 28 % timin tashkil etadi. Adenin miqdorini toping.

8.DNK molekulasida 17% sitozin tashkil etadi. D NK zanjiridagi guanin miqdorini toping.

9.DNK molekulasini fragmenti 1000 nukleotiddan iborat, shundan adenin 23 % ni tashkil etadi. D NK zanjiridagi guanin, timin va sitozinning miqdorini toping.

10.2600 ta nukleotiddan iborat D NK ning molekulyar massasini toping.

11.DNK molekulasini fragmenti 350 sitozinni o'zida saqlaydi, u umumiy nukleotidlar sonini 28 % izini tashkil etadi. Ushbu D NK fragmentidagi adenin, guanin, timinlar qanchaligini va uning molekulyar massasini toping.

12.DNK molekulasi uchastkasini uzunligi 544 nm ni tashkil etgan. D NKdagi nukleotidlar sonini va uning molekulyar massasini toping.

13.DNK molekulasi uchastkasini uzunligi 272 nm ni tashkil etgan, shundan adeninli nukleotidlar jami 31 % tashkil etgan. D NKning molekulyar massasini va boshqa nukleotidlarning foizini toping.

14.DNK molekulasini molekulyar massasi 17250 g/molni tashkil etadi. Bu molekuladagi nukleotidlar sonini va uning uzunligini toping.

15.DNK molekulasining massasi 27600 g/molni tashkil etadi. Undagi umumiy nukleotidlar sonini 15% izini sitozin tashkil etadi. D NK molekulasidagi nukleotidlar miqdorini va uning uzunligini toping.

16.DNK fragmentidagi nukleotidlar ketma-ketligi quyidagicha izchillikda joylashgan TGAAC TGAGG TCGAT. Ushbu fragment asosida transkripsiyalanadigan i-RNK dagi nukleotidlar ketma - ketligini toping.

17.i-RNK fragmenti quyidagi nukleotidlari izchilligidan UGAGCA UCAGACUGU iborat. Ushbu i-RNK fragmentiga matrisa rolini o'ynagan DNK molekulasidagi nukleotidlari izchilligini toping.

18.i-RNK fragmenti quyidagi nukleotidlari izchilligidan UAUCGA GUCACGC iborat. Ushbu i-RNK fragmentiga matrisa rolini o'ynagan DNK molekulasidagi nukleotidlari izchilligini va vodorod bog'lar sonini toping.

19.i-RNK fragmenti quyidagi nukleotidlari izchilligidan UAUGA CUAGCAG iborat. i-RNK ga to'g'ri keladigan t-RNKdagi antikodonlarni toping.

20.t-RNKdagi antikodonlar ketma-ketligi AUGGCGUAUGUC dan iborat. Ushbu t-RNKga matrisa rolini o'ynagan DNK fragmentidagi nukleotidlari ketma-ketligini toping.

21.i-RNK molekulasinii ma'lum bir uchastkasi 800 nukleotiddan tashkil topgan. Uning uzunligini toping.

22.i-RNK molekulasini ma'lum bir uchastkasi 480 nukleotiddan tashkil topgan. Uning uzunligi va molekulyar massasini toping.

23.i-RNKning ma'lum bir uchastkasining uzunligi 510 nm ni tashkil etgan. Bu uchastkaga mos keladigan nukleotidlari sonini toping

24.i-RNK molekulasi 27% uratsilli nukleotidlari bo'lsa, DNKda qancha adeninli nukleotidlari bo'ladi?

25.Agar DNK molekulasidan genetik informatsiya transkriptsiyaga uchragan qismida 11% adeninli nukleotidlari bo'lsa, i-RNK bo'lagida nechta uratsilli nukleotidlari bo'ladi?

26.DNKning o'ng zanjiridagi nukleotidlari ketma - ketligi ATGGT CATC bo'lsa. Chap zanjirdan transkripsiya asosida hosil bo'lgan i-RNKdagi nukleotidlari ketma-ketligini aniqlang.

27.i-RNK molekulasida 13% adeninli, 27% guaninli va 39% uratsilli nukleotidlari mavjud. i-RNK trankripsiyalangan DNK dagi barcha nukleotidlari nisbatini toping.

28.DNKdagi genning molekulyar massasi 103500 g/molga teng. Ushbu DNK dan trankripsiyalangan i-RNK dari nukleotidlari sonini toping.

29.DNK molekulasida adenin va timin orasida ikkita, guanin bilan sitozin orasida uchta vodorod bog', nukleotidlari orasida masofa 0.34nm ga teng. Ma'lum DNK bo'lagida 1050 ta vodorod bog' bo'lib, shundan 40 % adenin va timin orasida bo'lsa, shu DNK bo'lagining

bitta zanjiri asosida sintezlangan oqsildagi aminokislotalar sonini toping.

30.DNK molekulasida adenin va timin orasida ikkita, guanin bilan sitozin orasida uchta vodorod bog‘, nukleotidlar orasidagi masofa 0.34 nm ga teng. Ma'lum DNK bo'lagida 1050 ta vodorod bog‘ bo'lib, shundan 40 % adenin va timin orasida bo'lsa, shu DNK bo'lagidagi nukleotidlar sonini toping.

31.i-RNK da nukleotidlar miqdori A= 28, G= 39, C = 33, T =24 bo'lsa shu i-RNK sinteziga javobgar bo'lgan DNK fragmentidagi barcha nukleotidlar miqdonini aniqlang.

32.Xemotripsinogen fermenti 245 ta aminokislotadan iborat. Shu fragment sintezi uchun javobgar DNK qo'sh zanjirida adeninli nukleotidlar umumiyl nukleotidlarning 20 % ni tashkil etadi. Adenin va timin nukleotidlar orasida 2 ta vodorod bog‘, guanin va sitozin o'rtasida 3 ta vodorod bog‘ bo'lishi ma'lum bo'lsa. Ushbu DNK bo'lagidagi adenin va timin o'rtasidagi vodorod bog‘lar sonini toping.

33.Xemotripsinogen fermenti 245 ta aminokislotadan iborat. Shu fragment sintezi uchun javobgar DNK qo'sh zanjirida adeninli nukleotidlar umumiyl nukleotidlarning 20% ni tashkil etadi. Adenin va timin nukleotidlar orasida 2 ta vodorod bog‘, guanin va sitozin o'rtasida 3 ta vodorod bog‘ bo'lishi ma'lum bo'lsa. Ushbu DNK bo'lagidagi guanin va sitozin o'rtasidagi vodorod bog‘lar sonini toping.

34.Xemotripsinogen fermenti 245 ta aminokislotadan iborat. Shu fragment sintezi uchun javobgar DNK qo'sh zanjirida adeninli nukleotidlar umumiyl nukleotidlarning 20% ni tashkil etadi. Adenin va timin nukleotidlar orasida 2 ta vodorod bog‘, guanin va sitozin o'rtasida 3 ta vodorod bog‘ bo'lishi ma'lum bo'lsa. Ushbu DNK bo'lagidagi adenin va timin o'rtasidagi vodorod bog‘lar sonini adenin va timin o'rtasidagi vodorod bog‘lar soniga nisbatini toping.

35.DNK zanjiri TAGCGTTCTCGGTA nukleotidlar ketma-ketligidan iborat. Agar DNK zanjiridagi oltinchi nukleotid bittaga oshsa oqsil strukturasida qanday o'zgarish ketadi? Natijani tushuntiring.

36.DNK zanjiri AGATAGGTACGTCG nukleotidlar ketma - ketligidan iborat. Agar DNK zanjiridagi o'ninchi nukleotid tushib

qolsa oqsil strukturasida qanday o'zgarish ketadi? Natijani tushuntiring.

37.i-RNK dagi nukleotidlarning tarkibi adenin-27 %, guanin-35 %, sitozin-18 %, uratsil-20 %. Ushbu i-RNK matrisa rolini o'ynagan DNA molekulasi (gen) tarkibidagi nukleotidlar foizini toping.

38.DNK molekulasi reduplikatsiyaga uchrab ikkita zanjir hosil qildi, ulardan biridagi nukleotidlar izchilligi quyidagicha TAGACT GGTACACGTGGT. Ushbu nukleotidlar izchilligi ikkinchi zanjirni hosil qilgandan so'ng undagi nukleotidlar izchilligi qanday bo'ladi?

39 Ma'lumki RNKning barcha turlari matritsa asosida D NKdan sintezlanadi. DNA fragmentidan nukleotidlar izchilligi quyidagicha- ATAGCTGAACGTACT-. bunga mos holda sintezlanadigan t-RNK halqasidagi nukleotidlar izchilligi va ushbu t-RNK tashib beradigan aminokislotalar ketma - ketligini. Uchinchi tripletga to'g'ri keladigan t-RNKning antikodonini toping. Javobngizni izohlang.

40.DNK molekulasini bir qismining uzunligi 850 nm. DNAning bir zanjiridagi nukleotidlar miqdorini aniqlang.

41.DNK molekulasi 1200 juft nukleotidlardan iborat. Ushbu molekuladigi to'liq spiral bo'lib buralishlar sonini va unda kodlangan aminokislotalar soni hamda genning og'irligini toping.

42.Laboratoriya tadqiqotlari natijasida DNAning bir zanjirining ma'lum bir qismi organildi. U 24 ta monomer nukleotidlardan ya'ni GTG TAA CGA CCG ATA CTG TAC ACC ... iboratligi aniqlangan. DNAning unga mos ikkinchi zanjirida qanday nukleotidlar bo'lishi mumkin?

43.DNK molekulasi zanjiri ikkiga ajraldi. Bitta zanjirdagi nukleotidlar ketma - ketligi quyidagicha bo'lsa: TAGACTGGTACA CGTGGTGATTCA .... Ikkinci zanjirdagi nukleotidlar ketma - ketligi qanday tuzildishga ega bo'ladi?

44.i-RNKdagi oxirgi AAA kodon UAAGA o'zgargan. DNAning qaysi nukleotid o'zgarishi bunga sabab bo'lgan?

45.i-RNK dagi nukleotidlarni tarkibini adenin - 27%, guanin - 37%, sitozin - 18%, uratsil - 18 % tashkil etgan. i-RNK ga matritsa rolini o'ynagan DNA nukleotidlarini foizini toping.

46.DNA fragmenti tarkibidagi nukleotidlarda hammasi bo'lib 260 ta Adenin bor. Shu DNA fragmentidan oqsil sintezlash jarayonida 520

ta t-RNK qatnashgan bo'lsa, shu oqsildagi tertid bog'lar soni DNK dagi umumiyl fosfat kislota qoldig'i sonidan necha marta kam?

47.CAATGTGGT. Shu ipdan sintezlangan i-RNK ni toping.

48.DNK molekulاسining ikki ipida 6400 ta nukleotid bor bo'lib, shulardan 1600 tasi timin. Agar guaninlarni 1300 tasi 2-ipda joylashgan bo'lsa, umumiyl guaninlarni necha foizi 1-ipda joylashgan?

49.DNK molekulасini ikki ipida 3200 ta nukleotid bor. Umumiyl nukleoitlarni 25 % i C. 1-ipda timin nukleolidini 70 % i, guaninlarni esa 30 % i joylashgan. DNK ning 1-ipidan sintezlangan i-RNK dagi purin asoslari sonini toping.

50.DNK molekulасimng ikki ipida 12800 ta nukleotid bor bo'lib, shulardan 1600 tasi timin. Agar guaninlarni 1920 tasi 2-ipda joylashgan bo'lsa, DNK molekulасidagi adeninlar umumiyl nukleotidlarni necha foizini tashkil etadi?

51.Qo'shni nukleotidlar orasidagi masofa 0,34 nm. Sintezda 689 ta aminokislola ishtirok etgan. Shu oqsilni sintez qilgan i-RNK ning uzunligini toping.

52.360 ta adenin DNK molekulасidagi umumiyl nukleotidlarni 30 foizini tashkil qiladi. Shu molekulada nechta vodarod bog'i bor?

53.DNK molekulасining ikki ipida 1200 ta nukleotid bor bo'lib, shulardan 100 tasi timin. Molekuladagi vodarod bog'lar sonini toping.

54.DNK molekulасini ikki ipida 6400 ta nukleotid bor. Umumiyl nukleotidlarni 25 % i sitozin. 2-ipda timin nukleotidini 60 % i, guaninlarni esa 40 % i joylashgan. DNK ning 1-ipidan sintezlangan i-RNK dagi uratsil nukleoitlarini sonini toping?

55.DNK molekulасini ikki ipida 25600 ta nukleotid bor. Umumiyl nukleoitlarni 25 % i sitozin. 2-ipda timin nukleotidini 45 % i, guaninlarni esa 55 % joylashgan. DNK ning 1-ipidan sintezlangan i-RNK ni uzunligini toping.

56.Uzunligi 216,24 nm bo'lgan DNK bo'lagidan sintezlangan mioglobin oqsilini og'irligi necha Dalton bo'ladi. (har bir nukleotid 345, aminokislota 120 Dalton deb olinsin).

57. i-RNK dagi 900 juft nukleotid nechta aminokislotani kodlashga yetadi?

58.DNK molekulасining ikki ipida jami 6400 ta nukleotid bor. Shulardan 400 tasi C. Timin nukleotidlarni 40 % 1-ipda, qolgani

2-ipda joylashgan bo'lsa, 2-ipdag'i A lar umumiy nukleotidlarni necha % ini tashkil etadi?

59.UACACAGCUCUG ushbu i-RNK sintezlangan DNK molekulasi necha vodarod bog' orqali hosil bo'lgan?

60.Muayyan DNK bo'lagini 1-ipida AAGCGTAGT nukleotidlar qatori bor. Shu DNK ning 2-ipidan sintezlangan RNK dagi nukleotidlar qatorini toping.

61.DNK molekulasini ikki ipida 6400 ta nukleotid bor. Umumiy nukleotidlarni 25 % i adenin. 1-ipda timin nukleotidini 70 % i, guaninlarni esa 30 % joylashgan. DNK molekulasida nechta vodorod bog' mavjud?

62.Timin uchramaydigan nuklein kislota tarkibida 43 ta A, 23 ta G, 65 ta C, va 90 ta U bor. Shu molekula sintezlangan DNK dagi nukleotidlar sonini toping.

63.DNK molekulasining ikki ipida 12800 ta nukleotid bor bo'lib, shulardan 1600 tasi timin. Agar sitozinlarni 1920 tasi 2-ipda joylashgan bo'lsa, shu molekula tuzilishida qatnashgan vodarod bog'lar sonini toping .

64.DNK molekulasida 1950 ta vodarod bog'i bo'lib, bu molekula tuzilishida 300 ta adenin ishtirok etgan. Nuklein kislotani tarkibidagi guaninlar sonini toping.

65.DNK fragmentida 222 ta A nukleotidi mavjud bo'lib, u umumiy nukleotidlarning 10 % ni tashkil qilishi ma'lum. Shu fragmentga restriktaza fermenti yordamida ishlov berilgandan so'ng A-T juftligi 9,91 % ga; G-C juftligi esa 25% ga kamaydi. Dastlabki va ishlov berilgandan so'ng DNK fragmentining uzunligini toping (nm).

66.Endigina sintezlangan DNK molekulasida 2300 ta nukleotid bor. Shu DNK tarkibidagi eksi fosfat kislota qoldig'ini toping.

67.i-RNK dan sintezlangan oqsil massasi 16800 Daltonga teng. i-RNK sintezlangan DNKn 30% C tashkil qiladi. Shu DNK qo'sh zanjiri yoyilayotgan vaqtida nechta vodarod bog' uziladi? (bitta aminokislotaning og'irligi 120 D deb olinsin).

68.Ma'lum bir DNK bo'lagidan 34 ta aminokislotaga ega oqsil sintezlandi. Mutatsiya natijasida 3 ta aminokislotasi hosil bo'lmadi. Mututsiyaga uchragan DNK molekulasidagi nukleotidlar sonini toping.

69.Ma'lum bir DNK bo'lagidan 34 ta aminokislotaga ega oqsil sintezlandi. Mutatsiya natijasida 3 ta aminokislota hosil bo'lindi. Mututsiyaga uchragan DNK molekulasining uzunligini toping.

70.Ma'lum bir DNK bo'lagidan 34 ta aminokislotaga ega oqsil sintezlandi. Mutatsiya natijasida 3 ta aminokislota hosil bo'lindi. Ushbu oqsil sinteziga javobgar bo'lgan gen tarkibidagi fosfodiefir bog'lari sonini aniqlang.

71.Ma'lum bir DNK bo'lagidan 68 ta aminokislotaga ega oqsil sintezlandi. Mutatsiya natijasida 3 ta aminokislota hosil bo'lindi. Ushbu DNK tarkibidagi fosfodiefir bog'lari sonini aniqlang.

72.Ma'lum bir DNK bo'lagidan 34 ta aminokislotaga ega oqsil sintezlandi. Mutatsiya natijasida 3 ta aminokislota hosil bo'lindi. Ushbu oqsil sinteziga javobgar bo'lgan t-RNK sonini aniqlang.

73.Ma'lum bir DNK bo'lagidan 34 ta aminokislotaga ega oqsil sintezlandi. Mutatsiya natijasida 3 ta aminokislota hosil bo'lindi. Ushbu oqsil sinteziga javobgar bo'lgan i-RNK sonini aniqlang.

74.Ma'lum bir DNK bo'lagidan 34 ta aminokislotaga ega oqsil sintezlandi. Mutatsiya natijasida 3 ta aminokislota hosil bo'lindi. Ushbu oqsil sinteziga javobgar bo'lgan r-RNK sonini aniqlang.

75.DNK molekulasining uzunligi 42,84 nm bo'lsa, shu molekula asosida sintezlangan oqsil tarkibidagi aminokislotalar sonini aniqlang.

76.DNK molekulasining uzunligi 42,84 nm bo'lsa, shu molekulasidagi nukleotidlari sonini toping.

77.DNK molekulasining uzunligi 42,84 nm bo'lsa, shu molekula asosida sintezlangan oqsilning og'irligini toping. (1 dona aminokislotaning o'rtacha og'irligi 120 D.)

78.DNK molekulasining uzunligi 42,84 nm bo'lsa, shu molekula tarkibidagi fosfodiefir bog'lari sonini aniqlang.

79.DNK molekulasining uzunligi 42,84 nm. Shu DNK mutatsiyaga uchrab 6 juft nukleotidini yo'qotdi. Ushbu molekula asosida sintezlangan oqsil tarkibidagi aminokislotalar sonini aniqlang.

80.DNK molekulasining uzunligi 42,84 nm. Shu DNK mutatsiyaga uchrab 12 juft nukleotidini yo'qotdi. Ushbu molekula asosida sintezlangan oqsil tarkibidagi aminokislotalar sonini aniqlang.

81.Nuklein kislotalar molekulasiida nukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. DNK molekulasiida 598 ta fosfodiefir bog'i bo'lsa va undagi adenin nukleotidi umumiy nukleotidlarni 20 %

tashkil etsa, ushbu DNK molekulasidagi guanin va uratsil nukleotidlari sonini aniqlang?

82.Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlari soni 16600 ta bo'lsa, ular tarkibida nechta fosfodiefir bog'lari bo'lishini toping?

83.DNK molekulasining tarkibida 25000 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiylar 20% ini tashkil qilsa, bu holda timin nukleotidining soni nechaga teng?

84.DNK molekulasining tarkibida 8880 timin nukleotidi bor. Timin nukleotidi umumiylar 20% ini tashkil qilsa, bu holda guanin bilan sitozin nukleotidining o'rta sidagi vodorod bog'larining soni aniqlang?

85.Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. iRNK molekulasida 389 ta fosfodiefir bog' bo'lsa, ushbu iRNK sinteziga asos bo'lgan DNK fragmentini qo'sh zanjirdagi nukleotidlari sonini toping?

86.Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. DNK molekulasida 2396 ta fosfodiefir bog'i bo'lsa, umumiylar nukleotidlari sonini toping?

87.DNK molekulasining tarkibida 7332 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiylar 26% ini tashkil qilsa, bu holda DNK ning tarkibida umumiylar nukleotidlarning soni nechaga teng?

88.DNK molekulasini muayyan fragmentining uzunligi 146,2 nm ga teng. DNK molekulasidagi nukleotidlari orasidagi masofa 0,34 nm ga teng bo'lsa, ushbu fragmentda nechta nukleotid bor?

89.DNK molekulasining tarkibida 1230 adenin bor. Shu molekula tarkibida nechta timin bor?

90.DNK molekulasining tarkibida 7332 adenin nukleotidi bor. Adenin nukleotidi umumiylar nukleotidlarning 26% ini tashkil qilsa, bu holda DNK ning tarkibida guanin nukleotidining soni nechaga teng?

91.Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. Oqsil 140 ta aminokislotadan iborat bo'lsa, shu oqsil haqida axborot saqlavchi DNK bo'lagi qo'sh zanjiridagi fosfodiefir bog'lari sonini aniqlang.

92. Molekulasida 100 ta timinli nukleotid bo'lib, bu umumiylar nukleotidlarning 10%ini tashkil etadi. Ushbu DNK DNK molekulasidagi guaninli nukleotidlari sonini aniqlang.

93. Nuklein kislota molekulasi nukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'i orqali birikadi. Tarkibida 52 ta aminokislota bo'lgan oqsil haqida axborot saqlovchi DNK qo'sh zanjirida nechta fosfodiefir bog'i bor?

94.Qaysi javobda odam organizmidagi gemoglobin oqsilining  $\alpha$  zanjiri sintezida qatnashuvchi i-RNKdagi nukleotidlari soni va  $\beta$  zanjiri sinteziga javobgar DNK qo'sh zanjiridagi nukleotidlari soni to'g'ri ko'rsatilgan?

95.Hujayradagi i-RNK molekulasida 80 ta urastil nukleotidi mavjud. Shu i-RNK zanjiridan teskari transkripsiya jarayonida sintezlangan DNK molekulasingning bitta zanjirida sitozin nukleotidlari soni i-RNKdagi uratsil nukleotidlari sonidan 3 marta ko'p, guanin nukleotidlari soni 2 marta kam. DNK ning shu bitta zanjiridagi timin nukleotidlari miqdori guanin va sitozin nukleotidlari yig'indisining yarmiga teng bo'lsa, DNK qo'sh zanjiridagi vodorod bog'lari sonini toping.

96.DNK zanjirida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodorod bog' mavjud. DNK molekulasida 100 ta timinli nukleotid bo'lib, umumiy nukleotidlarning 10 %ini tashkil etadi. Ushbu DNK molekulasiagi vodorodli bog'lar sonini toping.

97. DNK molekulasida 4836 ta A va 8423 ta G bor. Ushbu molekulani uzunligi va H bog'lar sonini aniqlang.

98. DNK molekulasingning birinchi ipida umumiy nukleotidlarni 4,5 foizini tashkil etuvchi A joylashgan bo'lib, qolgan A ikkinchi ipda joylashgan. Ikkinchi ipda yana 162 ta T bor. DNK ni uzunligini nanometrda aniqlang.

99.DNK molekulasingning birinchi ipida umumiy nukleotidlarni 4,5 foizini tashkil etuvchi G joylashgan bo'lib, qolgan G ikkinchi ipda joylashgan. Ikkinchi ipda yana 162 ta C bor. Shu DNK molekulasida nechta nukleotid bor

100.DNK molekulasida 620 juft adenin bor. Guanin umumiy nukleoidlarni 30% ini tashkil etadi. Shu DNK molekulasi uzunligi ( $A^\circ$ ) toping. (qo'shni nukleotidlari orasidagi masofa  $3,4 A^\circ$ ).

## **Nuklein kislotalar mavzusi yuzasidan bilimni nazorat qilish uchun test topshiriqlari**

1.DNK molekulasining 153 nm uzunlikdagi qismida deletsiyadan so'ng 12 juft nukleotid yo'qoldi. Mutatsiyadan keyin hosil bo'lgan DNK dan sintezlangan oqsildagi aminokislota sonini aniqlang.

A) 292 B) 146 C) 150 D) 148

2.DNK molekulasining 153 nm uzunlikdagi qismida deleytsiyadan so'ng 12 juft nukleotid yo'qoldi. Mutatsiyadan keyin hosil bo'lgan DNK dan sintezlangan oqsildagi peptid bog'lar sonini aniqlang.

A) 292 B) 145 C) 147 D) 149

3.DNK molekulasining og'irligi 90000 ga teng bo'lsa, undagi nukleotidlardan sonini aniqlang. (bitta nukleotid og'irligi 300 deb olinsin)

A) 600 B) 300 C) 900 D) 100

4.DNK molekulasining og'irligi 90000 ga teng bo'lsa, shu D NK dan sintezlangan oqsildagi peptid bog'lar sonini aniqlang. (bitta nukleotid og'irligi 300 deb olinsin)

A) 99 B) 199 C) 149 D) 49

5.DNK dagi umumiy H bog'lari soni 810 tani tashkil qilsa va ulardagi A va T lar orasidagi bog'lar G va S orasidagi bilan tegishli ravishda 1:1,25 bo'lsa, ushbu genden sintezlanadigan oqsilning tarkibidagi aminokislotalar orasidagi peptid bog'lar soni i-RNK dagi nukleotidlardan orasidagi fosfodiefir bog'laridan qanchaga farq qiladi?

A) 110 B) o'zaro teng C) 220 D) 1

6.Agar D NK uzunligi 816 A<sup>0</sup> bo'lsa, (nukleotidlardan orasidagi masofa 3,4 Aga teng) transkripsiya jarayonida hosil bo'lgan i-RNK nechta nukleotiddan iborat?

A) 480 B) 160 C) 80 D) 240

7.Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlardan o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. Oqsil 122 ta aminokislotadan iborat bo'lsa, shu oqsil haqida axborot saqlovchi i-RNK molekulasidagi fosfodiefir bog'lari sonini aniqlang.

A) 365 B) 359 C) 360 D) 366

8.i-RNKda nukleotidlardan o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. Molekulasida 242 ta fosfodiefir bog'i bo'lgan i-RNK asosida sintezlangan oqsil molekulasidagi aminokislota qoldiqlari orasida nechta peptid bog'bo'ladi?

A) 720 ta B) 240 ta C) 79 ta D) 80 ta

9.Nuklein kislotalar molekulasida nukleotidlар o'zaro fosfodiefir bog'lari orqali bog'lanadi. Oqsil 140 ta aminokislordan iborat bo'lsa, shu oqsil haqida axborot saqlovchi DНK bo'lagi qo'sh zanjiridagi fosfodiefir bog'lari sonini aniqlang.

- A) 840 B) 418 C) 718 D) 838

10.DНK molekulasida 100 ta timinli nukleotid bo'lib, bu umumiy nukleotidlarning 10%ini tashkil etadi. Ushbu DНK molekulasidagi guaninli nukleotidlар sonini aniqlang.

- A) 400 B) 200 C) 1000 D) 1500

11.Nuklein kislota molekulasi nukleotidlari o'zaro fosfodiefir bog'i orqali birikadi. Tarkibida 52 ta aminokislota bo'lgan oqsil haqida axborot saqlovchi DНK qo'sh zanjirida nechta fosfodiefir bog'i bor?

- A) 312 B) 310 C) 156 D) 155

12.Hujayradagi i-RNK molekulasida 80 ta urastil nukleotidi mavjud. Shu i-RNK zanjiridan teskari transkripsiya jarayonida sintezlangan DНK molekulasining bitta zanjirida sitozin nukleotidlari soni i-RNKdagi uratsil nukleotidlari sonidan 3 marta ko'p, guanin nukleotidlari soni 2 marta kam. DНK ning shu bitta zanjiridagi timin nukleotidlari miqdori guanin va sitozin nukleotidlari yig'indisining yarmiga teng bo'lsa, DНK qo'sh zanjiridagi vodorod bog'lari sonini toping.

- A) 2560 B) 1280 C) 2280 D) 1840

13.DНK zanjirida adenin va timin orasida ikkita, guanin va sitozin orasida uchta vodorod bog' mavjud. DНK molekulasida 100 ta timinli nukleotid bo'lib, umumiy nukleotidlarning 10 % ini tashkil etadi. Ushbu DНK molekulasidagi vodorodli bog'lar sonini toping.

- A) 1500 B) 2800 C) 400 D) 1400

14.DНK molekulasining og'irligi 90000 ga teng bo'lsa, shu DНK dan sintezlangan oqsildagi aminokislota sonini aniqlang. (Bitta nukleotid og'irligi 300 deb olinsin)

- A) 100 B) 200 C) 150 D) 50

15. DНK nukleotidlarini 30 foizini 4800 ta sitozin tashkil etadi. Shu molekulani tuzilishida nechta timin bor?

- A) 4200 B) 4800 C) 1600 D) 3200

16. DНK molekulasining ikki ipida 1200 ta nukleotid bor bo'lib, shularidan 100 tasi timin. Molekuladagi vodorod bog'lar sonini toping.

- A) 1700 B) 1500 C) 200 D) 3400

17.DNK molekulasida 4836 ta A va 8423 ta G bor. Ushbu molekulani uzunligi va H bog'lar sonini aniqlang.

- A) 45080,6 A; 34941
- B) 45980 A; 8672
- C) 13259 A; 45080
- D) 34941 A; 2843

18.AATCGGCTATA ushbu fragmentga komplementar zanjirdan sintezlangan i-RNK ni toping.

- A)TTAGCCGATAT
- B)AAUCGGUCUAA
- C)AAUCGGCUAUA
- D)UUACGGCUCUU

19.DNK molekulasining birinchi ipda umumiy nukleotidlarni 4,5 foizini tashkil etuvchi A joylashgan bo'lib, qolgan A ikkinchi ipda joylashgan. Ikkinchi ipda yana 162 ta T bor. D NK ni uzunligini nanometrda aniqlang.

- A) 306 nm
- B) 612 nm
- C) 204 nm
- D) 816 nm

20.DNK molekulasining birinchi ipda umumiy nukleotidlarni 4,5 foizini tashkil etuvchi G joylashgan bo'lib, qolgan G ikkinchi ipda joylashgan. Ikkinchi ipda yana 162 ta C bor. Shu D NK molekulasida nechta nukleotid bor

- A ) 12800
- B) 900
- C) 1800
- D) 3600

21.UUAGCCGAU ushbu RNK dan teskari transkriptaza vositasida sintezlangan D NK da nechta H bog'lar bor

- A) 12
- B) 10
- C) 22
- D) 44

22.DNK molekulasida 396 ta A, 386 ta G bor. i-RNK D NK ning 2-ipidan sintezlandi va uning tarkibida 200 ta U borligi aniqlandi. D NK ning 1-ipida nechta A joylashgan?

- A) 200
- B) 198
- C) 196
- D) 380

23.DNK molekulasida 396 ta A, 386 ta G bor. i-RNK D NK ning 1-ipidan sintezlandi va uning tarkibida 190 ta C borligi aniqlandi. D NK ning 2-ipida nechta G joylashgan?

- A) 200
- B) 198
- C) 196
- D) 380

24.DNK molekulasida 28450 H bog'i bor. Undagi A umumiy nukleotidlarni 25 % ini tashkil etadi. Ushbu molekulada nechta S bor ?

- A) 2276
- B) 8850
- C) 5690
- D) 11380

25.DNK molekulasining birinchi ipida umumiy nukleotidlarni 4,5 foizini tashkil etuvchi G joylashgan bo'lib, qolgan G ikkinchi ipda joylashgan. Ikkinchi ipda yana 162 ta sitozin bor. Shu DNK molekulasining bir ipidan sintezlangan i-RNK ning uzunligi necha nm.

- A) 112 B) 612 C) 1213 D) 900

26.DNK 1 ipida 90 A bor. Shu DNK fragmentidan sintezlangan i-RNK dagi G lar soni DNK dagi A lar sonidan 17 marta ko'p. i-RNK dagi A lar soni umumiy nukleotidlarni 17 % ini tashkil etadi. RNK dagi C lar soni U lar sonidan 3 marta ko'p. DNK ning uzunligini (nm) toping.

- A) 774,18 B) 1548,36 C) 387,09 D) 516,12

27.Quyidagi DNK ketma-ketligiga mos bo'lgan RNK ketma-ketligini aniqlang. (TTATCGGTAC)

- A) UUAUCGGUAC  
B) AAUAGCCAUG  
C) AATCGGATC  
D) UUATCCCTA

28.DNK ning 1-zanjirida nukleotidlar GCCATGCGTA ko'rinishida. DNK ning 2-zanjiriga mos RNK nukleotidlarni aniqlang.

- A) CGGTACGCAT  
B) GCCAUGCUGUA  
C) CGGAUCGCUA  
D) GCCUAGCGAU

29.DNK molekulasida 1332 ta T bor. Timin nukleotidi umumiy nukleotidlarning 25 % tashkil etadi. DNK molekulasida jami nechta nukleotid bor

- A) 3027 B) 5382 C) 5328 D) 2664

30.DNK molekulasida 2638 ta guanin bor. Guanin nukleotidi umumiy nukleotidlarning 25 % tashkil etadi. DNK molekulasida jami nechta nukleotid bor.

- A) 10552 B) 5276 C) 15828 D) 7914

31.DNK molekulasida 1198 ta sitozin bor. Guanin nukleotidi umumiy nukleotidlarning 25 % tashkil etadi. DNK molekulasida jami nechta nukleotid bor.

- A) 4792 B) 2396 C) 7188 D) 9584

32.DNK molekulasida 1234 ta T bor. A nukleotidi umumiy nukleotidlarning 25 % tashkil etadi. D NK molekulasida jami nechta nukleotid bor.

- A) 4938
- B) 3936
- C) 4936
- D) 6349

33.DNK molekulasida 620 juft adenin bor. Guanin umumiy nukleoidlarni 30% ini tashkil etadi. Shu D NK molekulasini uzunligi ( $A^\circ$ ) toping. (qo'shni nukleotidlarni orasidagi masofa  $3,4\text{ A}^\circ$ ).

- A) 15400
- B) 10540
- C) 1540
- D) 1540

34.Translyatsiyada hosil bo'lgan oqsil 400 ta aminokislotaga ega bo'lsa, shu oqsil haqida axborot saqllovchi D NK dagi nukleotidlarni sonini aniqlang.

- A) 12000
- B) 24000
- C) 600
- D) 18000

35.DNK molekulasida 630 juft adenin bor. Guanin umumiy nukleoidlarni 30% ini tashkil etadi. Shu D NK molekulasidagi sitozinlar sonini toping.

- A) 1890
- B) 945
- C) 1260
- D) 3780

36.DNK nukleotidlarnini 30 foizini 4800 ta sitozin tashkil etadi. Shu molekulani tuzilishida nechta timin bor?

- A) 4200
- B) 4800
- C) 1600
- D) 3200


## ENERGIYA ALMASHINUVI VA FOTOSINTEZ BO‘YICHA MASALA VA MASHQLAR

Hujayraning tuzilishi hamda tarkibining yangilanib turishini ta’minlaydigan biosintetik reaksiyalar yig‘indisi plastik almashinuv (assimilatsiya, anabolizm) deb ataladi. Moddalar almashinuvining hujayradagi yana bir muhim funksiyasi hujayrani energiya bilan ta’minlashdir. Organizm hayot faoliyatining har qanday ko‘rinishi, ya’ni harakatlanish, ta’sirlanish, oziqlanish, to‘qima va organlar faoliyati, tana haroratining doimiyligini saqlash energiya sarflashni talab etadi. Hujayrani energiya bilan ta’minlash uchun organik moddalarning parchalanishi va kimyoviy reaksiyalar natijasida ajralib chiqadigan energiyadan foydalilanadi.

Hujayrani energiya bilan ta’minlab beradigan reaksiyalar yig‘indisi energetik almashinuv (dissimilatsiya, katabolizm) deb ataladi. Hujayra hayot faoliyatining doimiyligini saqlashni ta’milovchi plastik va energetik almashinuv reaksiyalari yig‘indisi metabolizm, metabolizm mahsulotlari esa metabolitlar deyiladi.

O‘qituvchi va o‘quvchilar energiya almashinivi va fotosintez mavzulari bo‘yicha masala va mashqlar yechish uchun:

- energiya almashinivi va fotosintez mavzulari bo‘yicha masala va mashqlar yechish davomida metabolizm uch bosqichda ya’ni:
  - *tayyorgarlik bosqichi* (ovqat hazm qilish kanalida va lizosomada) kraxmal – glyukozaga aylanishi, bu reaksiyalarda kam miqdorda energiya ajralishi va ular issiqqliq energiyasi sifatida tarqalib ketishini;
  - *kislorodsiz parchalanish* (glikoliz) sitoplazmada amalga oshishi va glyukoza – sut kislotaga aylanishini bu parchalanishi tufayli ajralib chiqayotgan energiyaning 40% (80 kJ) ATF tarkibida to‘planishini, qolgan 60 % (120 kJ) esa issiqqlik energiyasi sifatida tarqalib ketishini;
  - kislorodli parchalanish “nafas olish” mitoxondriyada amalga oshib, pirouzum kislotasi –  $\text{CO}_2 + \text{H}_2\text{O} + \text{ATF}$  hosil bo‘lishini, glyukoza to‘liq parchalanganda 38 molekula ATF hosil bo‘lishini hamda bu bosqichda parchalanishi tufayli ajralib chiqayotgan energiyaning 55,4% (1440 kJ) ATF tarkibida to‘planishini, qolgan 44,6 % (1160 kJ) esa issiqqlik energiyasi sifatida tarqalib ketishini inobatga olishi;



- 180 g glukozaning to‘liq oksidlanishi natijasida ajraladigan 2800 kJ energiyaning ( $80+1440$  yoki  $38 \cdot 40$  kJ) 1520 kJ hujayrada ATF shaklida to‘planadi, qolgan energiya ( $120+1160$  yoki  $32 \cdot 40$  kJ) 1280 kJ issiqlik sifatida tarqalib ketishini;

▪ fotosintez jarayoni, avtotroflar va getereotroflar, xloroplast fotosintezening moddiy asosi ekanligini, xloroplastlarning tuzilishi haqidagi tasavvurlar, membrananing tuzilishi, fotosintezning yorug‘lik fazasi, yorug‘lik kvantlarning reaksiya markazlariga bir yo‘nalishda uzatilishini;

▪ elektronlarning NADF molekulalariga uzatilishi va ularning qaytarilishi, ATF hosil bo‘lishi;

▪ svuning fotolizi natijasida kislорod ajralishi va vodorod hosil bo‘lishi jarayonlarining mexanizmlarini;

▪ fotosintezning qorong‘ilik bosqichi, karbonat angidrid gazi yutilishi va uning uglevodlargacha qaytarilishi, sinteza lanish jarayonlarida energiya va suv talab etilishi, fotosintezning reaksiya tenlamasi yig‘indisini;

▪ fotosintezning ahamiyati va uning mahsuldorligini oshirish yo‘llari haqidagi bilimlarga ega bo‘lishi zarur.

## **ENERGIYA ALMASHINUVI VA FOTOSINTEZGA OID MASALA, MASHQLAR YECHISH METODIKASI**

1.15 molekula glyukozaning achitqi zamburug'lari ta'sirida spirtli achishga uchrab qancha molekula ATF hosil qiladi va qanday moddalar ajraladi? Javobngizni izohlang.

*Yechilishi:*

Bu masalani yechishda darslikdan olgan nazariy ma'lumotlarga tayanamiz.

1)Glyukozani achitqi zamburug'lari ta'sirida parchalanishi spirtli bijg'ish orqali amalga oshadi, natijada etil spirti va karbonat angidrid gazi ajraladi.

2)Bir molekula glyukoza parchalanishi natijasida 2 molekula ATF hosil bo'ladi, 15 molekula glyukozaning spirtli bijg'ishi natijasida 30 molekula ATF hosil bo'ladi.

**Javob:** etil spirt va  $\text{CO}_2$ , 30 molekula ATF

2.Glikoliz jarayoni natijasida 42 molekula pirouzum kislota hosil bo'lgan. Qancha molekula glyukoza parchalanishga uchrangan va agar to'liq parchalanish amalga oshsa qancha molekula ATF hosil bo'ladi?

Berilgan: 42 molekula pirouzum kislota

Topish kerak: glyukoza miqdorini, to'liq parchalanishdan hosil bo'lgan ATF molekulasi miqdorini.

*Yechilishi:*

1)glikoliz natijasida 1molekula glyukoza parchalanishidan 2 molekula pirouzum kislota hosil bo'lsa:  $42 : 2 = 21$ . Ya'ni 42 molekula pirouzum kislota hosil bo'lishi uchun 21 molekula glyukoza glikolizga uchrashi kerak.

2)to'liq parchalanishda (kislorodsiz parchalanishda 2ATF va kislordli parchalanishda 36ATF)  $38 \text{ molekula ATF}$  hosil bo'ladi.

3) $21 \text{ molekula glyukozaning oksidlanishidan } 21 \cdot 38 = 798 \text{ molekula ATF}$  hosil bo'lgan.

**Javob:** 21 molekula glyukoza, 798 molekula ATF.

3.Eukariot hujayra tarkibida 70 ta glyukoza qoldig'idan iborat kraxmal to'liq parchalanishga uchrasha qancha molekula ATF sintezlanadi? Javobngizni tushuntirib bering.

*Yechilishi:*

1) Kraxmal lizosomada gidrolitik fermentlar ta'sirida parchalanadi va glyukozaga aylanadi. Natijada 70 molekula glyukoza hosil bo'ladi.

2) Glyukozaning to'liq parchalanishi mitoxondriyada kechadi va 38 molekula ATF hosil bo'ladi.

3) 70 molekula glyukozaning oksidlanishi natijasida

$70 \cdot 38 = 2660$  molekula ATF sintezlanadi.

**Javob:** 2660 molekula ATF

4. Energetik almashinuv natijasida 7 mol glyukoza parchalanishga uchragan, shundan faqat 2 molekulasiga to'liq parchalanishga uchragan.

Aniqlang:

a) Natijada qancha mol pirouzum kislota va  $\text{CO}_2$  hosil bo'lgan;

b) Qancha ATF sintezlangan?

v) ATF molekulalarida qancha energiya to'plangan?

g) Necha mol  $\text{O}_2$  sarf bo'lgan?

*Yechilishi:*

1) 7 mol glyukozadan 2 moli to'liq parchalanishga uchragan, 5 molekulasi to'liqsiz parchalanishga uchragan.

2)  $5 \text{ C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 \rightarrow 5 \cdot 2 \text{ C}_3\text{H}_6\text{O}_3 + 5 \cdot 2 \text{ ATF}$  (glikolizga 5 mol glyukoza uchragan) = 10 mol ATF

3)  $2\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 + 2 \cdot 6 \text{ O}_2 \rightarrow 2 \cdot 6\text{CO}_2 + 2 \cdot 6\text{H}_2\text{O} + 2 \cdot 38\text{ATF}$  (to'liq parchalanishga = 76 mol ATF

4) ATF miqdorini yig'indisini topamiz:  $10 + 76 = 86$  mol ATF

5) ATFda to'plangan energiya miqdorini topamiz:

$86 \cdot 40 \text{ kJ} = 3440 \text{ kJ}$ .

**Javob:** a) 10 mol  $\text{C}_3\text{H}_6\text{O}_3$  va 12 mol  $\text{CO}_2$ ; b) 86 molekula ATF; v) 3440 kJ energiya; g) 12 mol  $\text{O}_2$  sarf bo'lgan.

5. Hujayrada boradigan energetik almashinuv natijasida 5 mol pirouzum kislota va 27 mol karbonat angidrid hosil bo'lgan.

Aniqlang:

a) necha mol glyukoza sarf bo'lgan;

b) ulardan qanchasi to'liq parchalanishga va qanchasi glikolizga uchragan;

v) qancha energiya to'plangan;

g) qancha kislород oksidlanish uchun sarf bo'lgan?

*Yechilishi:*



**Javob:** a) 7 mol  $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$ ;

b) 4,5 mol – to‘liq parchalanishga, 2,5 mol – glikolizga uchragan;

$$\text{v)} (2,5 \cdot 2 + 4,5 \cdot 38) \cdot 40 = 7040 \text{ (kJ);}$$

g) 27 mol  $\text{O}_2$  oksidlanish uchun sarf bo‘lgan

6. Dissimilyatsiya jarayonida 17 mol glyukoza parchalangan, shundan 3 mol glyukoza kislородли parchalanishga uchragan.

Hisoblang:

a) Buning natijasida qancha pirouzum kislota va  $\text{CO}_2$  gazi hosil bo‘lgan;

b) Qancha ATF sintezlanadi;

v) ATF molekulasida qancha energiya to‘plangan;

g) Necha mol  $\text{O}_2$  sarf bo‘lgan?

**Javob:** a) 28 mol pirouzum kislota, 18 mol  $\text{CO}_2$ ; b) 142 ta ATF sintezlanadi; v) ATF molekulasida 5680 kJ energiya to‘plangan; g) 18 sarf bo‘lgan


7. O‘rtacha tezlik bilan yugurganda oyoq muskullarida minutiga 24 kJ energiya sarf bo‘ladi.

Hisoblangchi:

a) agar kislород qon yordamida yetarli miqdorda muskullarga borsa 25 minut davomida qancha glyukoza sarf bo‘ladi?

b) muskullarda sut kislотasi to‘planadimi?

*Yechilishi:*




$$x = 600 \cdot 180 : 1520 = 71 \text{ g}$$


**Javob:** a) 71 g glyukoza sarf bo‘lgan; b) yo‘q chunki kislород yetarli miqdorda.

8. Sportchi 1 min 24 kJ energiya sarf qiladi. Agar 50 minut davomida uning organizmida to‘liq parchalanish, 10 minut davomida glikoliz amalga oshsa yugurish uchun qancha kislород kerak bo‘ladi?

**Yechilishi:**



$$X = \frac{240 \cdot 180}{80} = 540 \text{ g}$$



$$Y = \frac{25 \cdot 50 \cdot 180}{1520} = 142 \text{ g}$$

$$3) 540 + 142 = 682 \text{ g}$$

**Javob:** 682 g kislorod kerak bo'ladi.

9. Energiya almashinuvining uch bosqichida ajralgan energiyaning jami miqdori 78400 kJ ni tashkil etgan bo'lsa, energiya almasinuvining anaerob (a), aerob (b) bosqichlarida ajralgan energiyaning miqdorini (kJ) hisoblab toping?

**Yechilishi:**

Bu masalani yechish uchun darslikdagi "Energiya almashinuvi bosqichlari" mavzusidan olingan bilimlarimizga asoslanamiz va quyidagi amallarni bajaramiz.

1) Bizga ma'lumki energiya almashinuvida jami 2800 kJ energiya hosil bo'ladi, bu energiyaning 200 kJ energiya almashinuvining ikkinchi bosqichida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra proporsiya tuzamiz:

2800 kJ da — 200 kJ energiya hosil bo'lsa,

78400 kJ da — x kJ energiya hosil bo'ladi.

$$\frac{78400 \text{ kJ} \cdot 200 \text{ kJ}}{2800 \text{ kJ}} = 5600 \text{ kJ} \text{ bu anaerob bosqichida ajralgan energiya.}$$

2) Energiya almashinuvida jami 2800 kJ energiya hosil bo'ladi, bu energiyaning 2600 kJ li energiya almashinuvining uchinchi bosqichida hosil bo'ladi. Shunga ko'ra biz proporsiya tuzamiz:

2800 kJ da — 2600 kJ energiya hosil bo'lsa,

78400 kJ da — x kJ energiya hosil bo'ladi.

$$\frac{78400 \text{ kJ} \cdot 2600 \text{ kJ}}{2800 \text{ kJ}} = 72800 \text{ kJ} \text{ bu aerob bosqichida ajralgan energiya.}$$

**Javob:** a) anaerob bosqichida 5600 kJ; b) aerob bosqichida 72800 kJ energiya hosil bo'ladi.

10. Berilgan:  $n(C_6H_{12}O_6) = 5$  mol, undan 2 moli kislород та'sirida parchalangan. Toping:  $n(C_3H_6O_3)$ ;  $n(ATF)$ ;  $n(O_2)$ .

Glyukozaning kislородли parchalanishi quyidagicha amalga oshadi.



*Yechilishi:*

1) 2 mol glyukozining kislород та'sirida parchalanishi uchun  $2/6 = 12$  mol.

2) 3 mol glyukozadan reaksiyani tenglash orqali  $2/3 = 6$  mol sut kislotasi hosil bo'lishini bilish mumkin.

3) Glikolizda 3 molekula glyukoza parchalanishidan 6 mol ATF, kislородли parchalanishda esa 2 mol glyukozadan 72 mol ATF hosil bo'ladi. Natijada 5 mol glyukozadan 78 mol ATF hosil bo'ladi.

**Javob:**  $n(C_3H_6O_3) = 6$  mol;  $n(ATF) = 78$  mol;  $n(O_2) = 12$  mol.

11. 10 molekula glyukoza parchalanishga uchragan. Glikoliz natijasida va kislородли parchalanish natijasida hosil bo'lgan ATF miqdorini umumiy yig'indisini toping.

*Yechilishi:*

Glikolizning reaksiya tenglamasini yozamiz  $C_6H_{12}O_6 = 2C_3H_6O_3 + 4H + 2ATF$ . Bir molekula glyukozaning glikolizga uchrashi natijasida 2 molekula pirouzum kislota va 2 molekula ATF hosil bo'ladi, umuman olganda 20 molekula ATF hosil bo'ladi. Pirouzum kislota kislородли parchalanganda 36 molekula ATF hosil bo'ladi.

$36 \cdot 10 = 360$  ATF. To'liq parchalanish natijasida  $360+20 = 380$  ATF sintezlangan.

**Javob:** 380 ATF sintezlangan.

12. Energiya almashinuv jarayonida 190 molekula ATF va umumiy 14000 kJ energiya hosil bo'lgan bo'lsa, glikoliz jarayonidan issiqlik tarzida tarqalgan energiya miqdorini hisoblab toping?

*Yechilishi:*

Bu masalani yechish jarayonida darslik va ilmiy manbalardan olingan ma'lumotlarimizga asoslanamiz hamda quyidagi amallarni izchillik asosida bajaramiz.

1) Bir molekula glyukozaning to'liq parchalanishidan 2800 kJ energiya hosil bo'lishini nazarda tutsak, uholda glikoliz jarayonidan 200 kJ energiya ajralib chiqadi. Bu energyaning 40 % i ATF tarkibida to'planadi, qolgan qismi esa issiqlik sifatida ajralib chiqadi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib glikoliz jarayonida ajralgan energyaning umumiy yig'indisini aniqlab olish lozim.

2800 kJ dan —— 200 kJ energiya hosil bo'lsa,

14000 kJ da —— x kJ energiya hosil bo'lishini hisoblab topamiz.

$$\frac{14000 \text{ kJ} \cdot 200 \text{ kJ}}{2800 \text{ kJ}} = 1000 \text{ kJ bu aerob bosqichida ajralgan energiya.}$$

2) Endi bir molekula glyukzadan necha kJ issiqlik ajralishini aniqlashimiz lozim.

100 % —— 200 kJ bo'lsa,

60% —— x kJ bo'lisini hisoblaymiz.

$$\frac{60 \% \cdot 200 \text{ kJ}}{100 \%} = 120 \text{ kJ bu aerob bosqichida ajralgan energiya.}$$

3) Shundan so'ng glikoliz jarayonidan qancha energiya issiqlik sifatida tarqalganligini aniqlaymiz. Buning uchun:

200 kJ dan —— 120 kJ energiya issiqlik sifatida ajralsa.

1000 kJ dan —— x kJ energiya issiqlik sifatida ajraladi.

$$\frac{1000 \text{ kJ} \cdot 120 \text{ kJ}}{200 \text{ kJ}} = 600 \text{ kJ bu aerob bosqichida ajralgan.}$$

**Javob:** Energiya almashinuv jarayonida umumiy 14000 kJ energiyadan glikoliz jarayonida 1000 kJ energiya hosil bo'lgan bo'lsa, uning 600 kJ li issiqlik tarzida tarqalgan.

13. Berilgan: m(CO<sub>2</sub>) = 44 kg; M(CO<sub>2</sub>) = 44 g/mol; M(H<sub>2</sub>O) = 18 g/mol; V<sub>m</sub> = 22,4 l/mol; M(C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub>) = 180 g/mol; M(O<sub>2</sub>) = 32 g/mol.

Topish kerak: V(H<sub>2</sub>O); V(O<sub>2</sub>); m(C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub>).

Fotosintezning umumiy tenglamasi quyidagicha: 6H<sub>2</sub>O + 6CO<sub>2</sub> = C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub> + 6O<sub>2</sub>. Karbonat angidrid massasini bilgan holda, uning (n) ushbu formula bilan topamiz: n = m/M, fotosintez tenglamasi orqali boshqa moddalarning miqdorini topamiz. Keyin qidirilayotgan modda massasini ushbu formular orqali topamiz: V = n/V<sub>m</sub>; m = M/n.

Yechilishi:

$$n(\text{CO}_2) = 44 \text{ kg} : (44/10^{-3} \text{ kg/mol}) = 1000 \text{ mol.}$$

$$n(\text{CO}_2) = n(\text{H}_2\text{O}) = n(\text{O}_2), \text{ a } n(\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6) = n(\text{CO}_2) : 6.$$

$$V(\text{H}_2\text{O}) = V(\text{O}_2) = 1000 \text{ mol} / 22,4 \text{ l/mol} = 22\,400 \text{ l.}$$

$$m(\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6) = 1000 \text{ mol} : 6 / 180 \text{ g/mol} = 166,4/180 = 29\,952 \text{ g, yoki} 30 \text{ kg.}$$

$$\text{Javob: } V(\text{H}_2\text{O}) = 22\,400 \text{ l}; V(\text{O}_2) = 22\,400 \text{ l}; m(\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6) = 30 \text{ kg.}$$

14. 1800 g glyukoza hosil bo'lishi uchun qancha molekula H<sub>2</sub>, CO<sub>2</sub> va ATF kerak bo'ladi?

*Yechilishi:* 180 gr glyukoza sintezlanishi uchun 18 ATF, 6 molekula CO<sub>2</sub>, 12 molekula H<sub>2</sub> sarf bo'ladi.

1800 gr glyukoza hosil bo'lishi uchun sarf bo'lgan ATF, CO<sub>2</sub>, H<sub>2</sub> topish uchun 10 ga ko'paytirish kerak.

180 ATF, 60 CO<sub>2</sub>, 120 H<sub>2</sub>

**Javob:** 120/60/180 ta

15. Glyukoza parchalanganda 206 ta ATF hosil bo'ldi. To'liq parchalangan glyukoza molekulalarini hosil qilish uchun o'simlik 90 mol ATF sarflagan bo'lsa, necha mol glyukoza parchalangan?

*Yechilishi:*

$$90 : 18 = 5$$

Iglyukoza sintezlanisha uchun 18ATF sarf bo'ladi.

Agar 90mol ATF sarf bo'lgan bo'lsa  $90 : 18 = 5$  molekula glyukoza hosil bo'lgan

206 molekula ATF hosil bo'lishida

$$5 \cdot 38 = 190$$

5molekula glyukoza to'liq parchalangan

$$206 - 190 = 16$$

8 molekula glyukoza chala parchalangan.

$$5 + 8 = 13$$

**Javob:** 13 mol glyukoza parchalangan.

16. Glyukoza parchalanganda 9320 kJ issiqlik energiyasi chiqdi, shu glyukozani hosil qilish uchun o'simlik 180 mol ATF sarfladi. Glyukozaning necha foizi to'liq parchalangan.

To'liq parchalanish:



$$x \cdot 1280 \text{ ——— } x$$

Chala parchalanish:



$$y \cdot 120 \text{ ——— }$$

180 ta ATF sarflanishi natijasida 10 C<sub>6</sub>H<sub>12</sub>O<sub>6</sub> hosil bo'ladi.

$$x + y = 10 \cdot 120 \text{ kJ}$$

$$1280x + 120y = 9320 \text{ kJ}$$

$$120x + 120y = 1200 \text{ kJ}$$

$$1280x + 120y = 9320 \text{ kJ}$$

$$1160x = 8120 \text{ kJ}$$

$$x = 8120 : 1160 = 7 \text{ mol glyukoza to'liq parchalangan}$$

$$10 \text{ mol} — 100\%$$

$$7 \text{ mol } x — x = 70 \%$$

17. Erkin harakatlar qilish natijasida ikkala qo'l muskullari 1 minutda 12 kJ energiya sarf qiladi. a) agar muskullarga yetarli miqdorda kislorod bilan ta'minlansa 10 minut davomida qancha miqdor glyukoza parchalanadi? b) muskullarda sut kislotasi to'planadimi?

**Javob:** a) 14.2 g b) yo'q, to'liq parchalanadi.

18. Tana massasi 60kg bo'lgan odam bir sutka davomida o'rtacha 30 litr kislorodni o'zlashtiradi (1soatda 1kg tana massasiga 200sm<sup>3</sup> kislorod sarf bo'lishini hisobga olgan holda) 25 yoshli terak 5 oy bahor va yoz oyлari davomida 42 kg karbonat angidrid gazini yutadi. Aniqlangchi nechta bunday teraklar bir kunda bitta odamni kislorod bilan ta'minlaydi?

**Javob:** 5 ta daraxt (o'zini nafas olishini hisobga olinmasa)

19. Dissimilyatsiya jarayoni natijasida 4 mol glyukoza parchalandi, bundan faqat 3 mol glyukoza to'liq parchalanishga uchragan.

Hisoblangchi:

- A) Qancha mol sut kislotasi hosil bo'ladi?
- B) Qancha mol ATF sintezlangan?
- V) Qancha miqdor energiya jamlangan?
- G) Qancha mol CO<sub>2</sub>hosil bo'lgan?
- D) Qancha mol O<sub>2</sub>sarflangan?

*Yechilishi:*

glyukozaning to'liqsiz parchalanish reaksiyasi:




A) sut kislota – 2 mol;

B) ATF – 2 mol;

V) 1 mol ATF – 40 kJ,  $40 \cdot 2 = 80$  kJ.

glyukozaning to'liq parchalanish reaksiyasi:



3 mol glyukozaning to'liq parchalanishga uchragan bo'lsa, unda:



yoki:

B) ATF =  $3 \cdot 38 = 114$  mol;

V)  $3 \cdot 38 \cdot 40 = 4560$  kJ;

G) CO<sub>2</sub> =  $6 \cdot 3 = 18$  mol;

D)  $O_2 = 6 \cdot 3 = 18$  mol.

barcha ma'lumotlarni umumlashtiramiz:

A) 2 mol sut kislota hosil bo'ladi;

B)  $114 + 2 = 116$  mol ATF sintezlanadi;

V)  $4560 \text{ kJ} + 80 \text{ kJ} = 4640 \text{ kJ}$ ; energiya

G)  $CO_2 - 18$  mol;

D)  $O_2 - 18$  mol.

20. Ikkala qo'l jismoniy mashq bajarganda uning muskullarida 1minutda 20kJ energiya sarf bo'ladi.

Aniqlangchi:

A) Agar muskullar kislород bilan yetarli miqdorda ta'minlansa. Unda 15minut davomida qancha (glyukoza) energiya sarf bo'ladi?

B) Muskullarda sut kislota to'planadimi?

**Javob:** A) 35,5 g glyukoza. B) sut kislota hosil bo'lmaydi chunki kislород yetarli.

21. Energiya almashinuvi jarayonida 3550 kJ issiqlik energiyasi alralib chiqdi. Bunda glukoza to'liq va noto'liq parchalanishi natijasida 5 molekula sut kislota va 100 ta ATF molekulalari hosil bo'lgan bo'lsa, energiya almashinuvining dastlabki bosqichida ajralib chiqqan issiqlik energiyasini (kJ) hisoblang.

100 ta ATF hosil bo'lishi uchun 2.5 molekula glyukoza to'liq parchalangan, 2.5 molekula glyukoza to'liqsiz parchalangan.

$$2.5 \cdot 38 = 95 \text{ ta ATF}$$

$$2.5 \cdot 2 = 5 \text{ ta ATF}$$

$$95 \text{ ta ATF} + 5 \text{ ta ATF} = 100 \text{ ta ATF}$$

Glyukoza to'liq parchalanganda 1280 kJ energiya issiqlik sifatida ajraladi.

$$1280 \cdot 2.5 = 3200$$

Glyukoza to'liqsiz parchalanganda 120 kJ energiya issiqlik sifatida ajraladi

$$120 \cdot 2.5 = 300$$

$$3200 + 300 = 3500$$

$$3550 - 3500 = 50 \text{ kJ}$$

**Javob:** energiya almashinuvining dastlabki bosqichida 50 kJ energiya ajralgan.

22. Energiya almashinuvi jarayonida 3550 kJ issiqlik eneriyasi ajralib chiqdi. Jarayonning daslabki bosqichida 50 kJ issiqlik

energiyasi hosil bo'lgan bo'lsa, Energiya almashinuvi jarayonida to'liq va noto'liq parchalangan 5 molekula glukozadan hosil bo'lgan ATF tarkibidagi energiyani (kJ) hisoblang.

$$38 \cdot 2.5 = 95 \quad 95 \cdot 40 = 3800$$

$$2 \cdot 2.5 = 5 \quad 5 \cdot 40 = 200$$

$$3800 + 200 = 4000 \text{ kJ}$$

**Javob:** 4000 kJ ATF tarkibida bo'ladi.

23. Noma'lum massali glyukoza parchalanganda 4080 kJ issiqlik energiyasi va 118 ATF chiqdi, glyukozaning necha foizi to'liq parchalamagan?

*Yechilishi:*

Ma'lumki, glyukoza ikki xil yo'l bilan parchalanadi yani to'liq va to'liqsiz.

To'liqsiz parchalanganda 1 molekula glyukozadan 2 molekula sut kislotasi va 2 ta ATF hosil bo'ladi.

Bir molekula ATF hosil bo'lishi uchun 40 kJ energiya sarf bo'ladi. 2 ta ATF uchun 80 kJ energiya sarf bo'ladi.

$$2 \cdot 40 = 80 \text{ kJ energiya sarf bo'ladi.}$$

Bu bosqichda ATF tarkibida to'plangan energiya umumiy energyaning 40% ini tashkil etadi. Qolgan 60% i issiqlik energiyasi sifatida tarqaladi.

$$80 \text{ kJ} — 40\%$$

$$x \text{ kJ} — 60\%$$

$$\text{Bu tenglamadan } x \text{ ni topamiz. } x = 120 \text{ kJ.}$$

Demak 120 kJ energiya issiqlik sifatida tarqalgan.

Bir molekula glyukoza to'liqsiz parchalanganda 2 ta ATF hosil bo'ladi va 120 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi.

To'liq parchalanganda 38ATF hosil bo'ladi.

$$38 \cdot 40 = 1520 \text{ kJ ATF da to'plangan.}$$

Bir molekula nlyukoza to'liq parchalangada 2800 kJ energiya hosil bo'ladi.

$$2800 - 1520 = 1280 \text{ kJ}$$

1280 kJ energiya issiqlik sifatida tarqalgan.

Parchalamsh	ATF	ATFdä	Issiqlik	Jami
To'liq	38	1520	1280	2800
To'liqsiz	2	80	120	200

Demak yuqoridagi masaladan bizga necha molekula glyukoza to'liq va necha molekula glyukoza chala parchalangani noma'lum.

Shuning uchun to'liq parchalanishni x to'liqsiz parchalanishni y deb olaylik.

x molekula glyukoza to'liq parchalanganda 38 molekla ATF ya'ni 38 x ATF hosil bo'ladi va 1280 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi.

y molekula glyukoza to'liqsiz parchalanganda 2ATF ya'ni 2 y hosil bo'ladi 120 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi.

Demak to'liq parchalanishda



$$x \times 38 = 1280 \text{ kJ}$$

To'liqsiz parchalanishda



$$y \times 2 = 120 \text{ kJ}$$

Masalani shartida hosil bo'lgan ATF lar soni 118 ta berilgan. Biz ikkala bosqichda hosil bo'lgan ATF larni qo'shsak 118 ga teng bo'lishi kerak.

$$38x + 2y = 118 \text{ ta}$$

Shu jarayonda hosil bo'lgan issiqlik sifatida ajralgan energiyaning miqdori esa 4080 kJni tashkil etadi yani biz ikki bosqichda hosil bo'lgan energiyani qo'shganimizda 4080 kJ bo'lishi kerak.

$$1280x + 120y = 4080$$

Biz x va y qiymatini topish uchun bu ikki tenglamani birlashtiramiz va sistema tuzamiz.

$$38x + 2y = 118$$

$$1280x + 120y = 4080$$

Tenglamada x yoki y ni yo'qotishimiz kerak. Buning ikkla sistemadagi sonlarni bir xil songa keltirib olamiz. y ni yo'qotish uchun yuqoridagi tenglamani 60 ga ko'paytiramiz. Natijada y 120 ga teng bo'ladi.

Yuqoridagi va pastdagi tenglamadagi y bir xil bo'lgani uchun ular qisqarib ketadi. Natijada tenglamada faqt x qoladi. So'ngra x ni qiymati topiladi.

$$38x + 2y = 118 \quad x = 60 \quad 2280x + 120y = 7080$$

$$1280x + 120y = 4080 \quad 1280x + 120y = 4080$$

120y lar qisqarib ketadi. Qolgan ikkita tenglamadagi x lar ning kattasidan kichigini ayramiz.

$$2280x - 1280x = 1000x$$

Demak sistemada 1000 x qoldi.

$$7080 - 4080 = 3000$$

Aniq sonlar esa 3000 qoldi.

Endi bir x ni qiymatini topish uchun aniq sonni x ni oldidagi songa bo'lsak x ni qiymati chiqadi.

$$x = 3000 : 1000$$

$$x = 3$$

x ni qiymati aniq bo'lgandan so'ng biz y ni ham topib olsak bo'ladi. Buning uchun biz x orqali glyukozaning to'liq parchalangan moleklarlar sonini bilib oldik ya'ni 3 molekula glyukoza to'liq parchalangan.

$$3 \cdot 38 = 114 \text{ ta}$$

Demak glyukoza to'liq parchalanganda 114 ta ATF hosil bo'lgan. Demak qolgan 4 tasi to'liqsiz parchalanishga uchragan. Bu ikki molekula glyukozadir. Natijada 3 molekula glyukoza to'liq parchalangan, 2 molekula esa to'liqsiz parchalangan.

$$5 \times 100\%$$

$$2 \times x = 40\%$$

38.Muskul to'qimasi hujayralaridagi energiya almashinuviga jarayonining ikkinchi bosqichida 5 molekula glyukoza parchalangan bo'lsa, shu bosqichda qancha (kJ) energiya ATF ning energiyaga boy fosfat bog'lariga bog'lanishini toping?

Yechilishi: Bir molekula glyukoza to'liq parchalanganda 2800 kJ energiya hosil bo'ladi va bu energiyaning 200 kJ li energiya almashinuvining II bosqichida hosil bo'ladi. Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib quyidagi amallarni bajaramiz.

1 mol glyukozadan 200 kJ energiya hosil bo'lsa,

5 mol glyukozadan  $x = 1000$  kJ energiya hosil bo'ladi.

Shundan so'ng 5 mol glyukozadan 1000 kJ energiyaning qanchasi ATF ning energiyaga boy fosfat bog'lariga bog'lanishini topiladi. Glyukozaning kislorodsiz sharoitda sut kislotagacha parchalanishi tufayli ajralib chiqayotgan energiyaning 40%i ATF tarkibida to'planadi, qolgani esa issiqlik energiyasi sifatida tarqalib ketadi. Darsliklarda berilgan bu fikrlarga asoslanib, proprsiya tuzamiz.

100 % i —— 1000 kJ bo'lsa,

40 % i ——  $x = 400$  kJ bo'ladi.

**Javob:** 400 kJ energiya ATF ning energiyaga boy fosfat bog'lariga bog'langan.

39. Energiya almashinuvining uch bosqichida ajralgan energiyaning jami miqdori 39312 kJ ni tashkil etgan bo'lsa, energiya almashinuvining aerob (a), anaerob (b) va dastlabki (c) bosqichlarida ajralgan energiyaning miqdorini (kJ) aniqlang?

*Yechilishi:* Masalani yechimini topishda quyidagi izchillikka amal qilish zarurdir.

1) Bir molekula (yoki bir mol) ya'ni, 180 g glyukozanining C, H, O atomlari orasidagi bog'larda to'plangan potensial energiya miqdori 2800 kJ ga teng. Fermentlar yordamida parchalanadigan glyukozadagi energiya bosqichma-bosqich ajraladi. Bu jarayon umumiy holda quyidagi reaksiya asosida ifodalanadi:

$C_6H_{12}O_6 + 6O_2 \rightarrow 6CO_2 + 6H_2O + 2800 \text{ kJ}$  Shunga ko'ra masala shartidagi glyukoza miqdorini topish lozim. Buning uchun masala shartida berilgan umumiy energiyani bir mol glyukoza to'liq parchalanishidan ajralgan energiyaga bo'linadi.

$$39312 \text{ kJ} : 2800 \text{ kJ} = 14 \text{ mol glyukoza to'liq parchalangan}$$

2) Endi 14 mol glyukozanining aerob sharoitda parchalanganidan hosil bo'lgan energiyani aniqlaymiz. Ya'ni 1 mol glyukozani kislородли sharoitda parchalanganda 2600 kJ energiya hosil qilishini hisobga olgan holda bu energiyani 14 mol glyukozaga ko'paytiramiz.

$$2600 \text{ kJ} \cdot 14 \text{ mol} = 36400 \text{ kJ energiya aerob sharoitda hosil bo'ladi.}$$

3) Bu bosqichda esa glyukozanining anaerob sharoitda parchalanganidan hosil bo'lgan energiyani topiladi. 1 mol glyukozani kislородли sharoitda parchalanganda 200 kJ energiya hosil qilishini nazarda tutib 14 mol glyukozaga ko'paytiramiz.

$$200 \text{ kJ} \cdot 14 \text{ mol} = 2800 \text{ kJ energiya anaerob sharoitda hosil bo'ladi.}$$

4) Shundan so'ng aerob va anaerob bosqichlarda hosil bo'lgan energiyalarini umumiy miqdorini aniqlaymiz.

$$36400 \text{ kJ} + 2800 \text{ kJ} = 39200 \text{ kJ energiya anaerob sharoitda hosil bo'ladi.}$$

5) Bu bosqichda biz masala shartida berilgan energiya miqdoridan aerob va anaerob bosqichlarda hosil bo'lgan energiyaning yig'indisini ayirish orqali energiya almashinuvining dastlabki bosqichida hosil bo'lgan energiya miqdorini keltirib chqaramiz.

$39312 \text{ kJ} - 39200 \text{ kJ} = 112 \text{ kJ}$  energiya dastlabki sharoitda hosil bo'ladi.

**Javob:** a) 36400 kJ; b) 2800 kJ; c) 112 kJ energiya hosil bo'lgan.

40. Energiya almashinuv jarayonida, 2128 molekula ATF va umumiy 157248 kJ energiya hosil bo'lgan bo'lsa, dastlabki bosqichidagi issiqlik tarzida tarqalgan energiya miqdorini (kJ) aniqlang?

*Yechilishi:* Energiya almashinuv jarayonining uchala bosqichda jami 38 ta ATF molekulasi hosil bo'ladi. Mazkur ma'lumotga asoslanib, quyidagi amalni bajaramiz.

1) 38 ta ATF ning parchalanishidan —— 2800 kJ energiya hosil bo'lsa,

$2128 \text{ ta ATF ning parchalanishidan} —— x = 156800 \text{ kJ}$  energiya hosil bo'ladi.

2) umumiy energiyadan anaerob va aerob sharoitda hosil bo'lgan energiyaning yig'indisimi ayrsak energiya almashinuvining dastlabki bosqichida ajralgan energiyaning miqdorini hisoblab topish mumkin.

$157248 \text{ kJ} - 156800 \text{ kJ} = 448 \text{ kJ}$  dastlabki bosqichda hosil bo'lgan energiya

**Javob:** dastlabki bosqichda hosil bo'lgan energiya 448 kJni tashkil etadi.

41. Hujayrada 12 molekula sut kislotaning aerob sharoitda parchalanishidan hosil bo'lgan energiyaning qancha miqdori (kJ) ATF ko'rinishida to'planadi?

*Yechilishi:* Masalaning yechish jarayonida darsliklarda berilgan ma'lumotlarga asoslanamiz.

1) Energiya almashinuv jarayonida 1 molekula glyukozadan glyukolizing barcha hollarida 2 molekula sut kislota ( $C_3H_6O_3$ ) hosil bo'ladi. Sut kislotaning aerob sharoitda parchalanishidan 2600 kJ energiya hosil bo'ladi. U holda:

$2 C_3H_6O_3$  dan 2600 kJ energiya hosil bo'lsa,

$12 C_3H_6O_3$  dan  $x=15600$  kJ energiya hosil bo'ladi.

2) Ilmiy adabiyotlarda berilishicha, hosil bo'lgan 100 % energiyaning 55,4 % ATF ko'rinishida to'planadi. Demak biz mayjud energiyaning 55,4 % necha kJ ekanligini aniqlashimiz kerak bo'ladi.

$100 \% —— 15600 \text{ kJ}$  umumiy energiya

$55,4 \% —— x=8642,4 \text{ kJ}$  aerob va dastlabki energiya

3)Mavjud adabiyotlarda energiya almashinuvining dastlabki bosqich energiyasining muayyan miqdori berilmaganligi sababli aksariyat hollarda anaerob va aerob bosqichlardan ajralgan energiyaning oz qismini ayirish orqali aniqlanadi.

$8642,4 \text{ kJ} - 2,4 \text{ kJ}$  (dastlabki energiya) =  $8640 \text{ kJ}$  ATF ko'rinishida to'planadi.

**Javob:** 12 molekula sut kislotaning aerob sharoitda parchalanishidan hosil bo'lgan energiyaning  $8640 \text{ kJ}$  ATF ko'rinishida to'planadi

42. Agar odam bir kunlik ovqati tarkibida  $120 \text{ g}$  oqsil,  $110 \text{ g}$  yog' va  $400 \text{ g}$  uglevod iste'mol qilgan bo'lsa, bu oziq moddalardan jami qancha (kJ) energiya hosil bo'ladi (a), o'ttacha qancha (kJ) energiya tana haroratining doimiyligini saqlash uchun (b), oqsil va uglevodlar hisobiga qancha energiya hosil bo'lishini (c) aniqlang?

*Yechilishi:* Ushbu masalani yechish jarayonida darslikdagi oqsillar, yog'lar va uglevodlar mavzusidan o'rgangan bilimlarimiz asos bo'ladi.

1)Dastlab masala shartida berilgan har bir organik moddalar parchalanishidan hosil bo'ladigan energiya miqdorini (kJ) aniqlab olamiz.(Eslatma: oqsil va uglevodlarning 1g parchalanganida  $17,6 \text{ kJ}$  va yog'ning 1g dan esa  $38,9 \text{ kJ}$  energiya hosil qiladi)

$$120 \text{ g oqsil} \cdot 17,6 \text{ kJ} = 2112 \text{ kJ}$$

$$110 \text{ g yog'} \cdot 38,9 \text{ kJ} = 4279 \text{ kJ}$$

$$400 \text{ g uglevod} \cdot 17,6 \text{ kJ} = 7040 \text{ kJ}$$

2)Har bir organik moddadan hosil bo'lgan energiya miqdorini aniqlab oлganimizdan so'ng, ularning hosil qilgan energiyaning yig'indisini topamiz.

$$2112 \text{ kJ} + 4279 \text{ kJ} + 7040 \text{ kJ} = 13431 \text{ kJ ekanligi ma'lum bo'ldi.}$$

3)Umumiy energiyaning yig'indisini anqlab olgandan keyin esa qancha (kJ) energiya tana haroratining doimiyligini saqlash uchun sarflanishini hisoblab topamiz. Bu uchun esa moddalar almashinuvidan hosil bo'lgan energiyaning  $1/3$  qismi tana haroratining doimiyligini saqlash uchun sarflanishini eslashimiz lozim.

$$13431 \text{ kJ} : 3 = 4477 \text{ kJ}$$
 bu miqdor umumiy energiyaning uchdan bir qismini tashkil etadi.

4) Endi oqsil va ulevodning qancha energiya hosil qilganligini aniqlash uchun umumiy energiyadan yog'lar hosil qilgan energiya miqdorini ayirish orqali topamiz.

$$13431 \text{ kJ dan} - 4279 \text{ kJ} = 9152 \text{ kJ ni taskil etishi ma'lum bo'ladi.}$$

**Javob:** a) oziq moddalardan jami 13431 kJ energiya hosil bo'lган.  
 b) tana haroratining doimiyligini saqlash uchun 4477 kJ energiya zarur. c)oqsil va uglevodlar hisobiga 9152 kJ energiya hosil bo'lar ekan.

43.Glukozaning to'liqsiz va to'liq parchalanishidan 8800 kJ energiya va 118 ta ATF hosil bo'ldi. Necha foiz glukoza to'liq parchalangan?

*Yechilishi:* Glyukoza ikki xil yo'l bilan parchalanadi yani to'liq va to'liqsiz. To'liqsiz parchalanganda 1 molekula glyukozadan 2 molekula sut kislotasi va 2 ta ATF hosil bo'ladi.

Bir molekula ATF hosil bo'lishi uchun 40 kJ energiya sarf bo'ladi. 2 ta ATF uchun 80 kJ energiya sarf bo'ladi.

$$2 \text{ ta ATF} \cdot 40 \text{ kJ} = 80 \text{ kJ.}$$

Bu bosqichda ATF tarkibida to'plangan energiya umumiy energiyaning 40% ini tashkil etadi. Qolgan 60% i issiqlik energiyasi sifatida tarqaladi.

$$80 \text{ kJ} — 40\%$$

$$x \text{ kJ} — 60\%$$

Bu tenglamadan  $x$  ni topamiz.

$$x=120 \text{ kJ.}$$

Demak 120 kJ energiya issiqlik sifatida tarqalgan.

Bir molekula glyukoza to'liqsiz parchalanganda 2 ta ATF hosil bo'ladi va 120 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi. To'liq parchalanganda 38 ta ATF hosil bo'ladi.

$$38 \cdot 40 = 1520 \text{ kJ ATF da to'plangan.}$$

Bir molekula glyukoza to'liq parchalangada 2800 kJ energiya hosil bo'ladi.

$$2800 - 1520 = 1280 \text{ kJ}$$

1280 kJ energiya issiqlik sifatida tarqalgan.


Parchalanish	ATF	ATFdа	Issiqlik	Jami
To'liq	38	1520	1280	2800
To'liqsiz	2	80	120	200

Demak, yuqoridagi masaladan bizga necha molekula glyukoza to'liq va necha molekula glyukoza chala parchalangani nomalum. Shuning uchun to'liq parchalanishni x to'liqsiz parchalanishni y deb olaylik.

x molekula glyukoza to'liq parchalanganda 38 molekula ATF ya'ni 38 x ATF hosil bo'ladi va 1280 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi.

y molekula glyukoza to'liqsiz parchalanganda 2 molekula ATF ya'ni 2 y hosil bo'ladi 120 kJ energiya issiqlik sifatida tarqaladi.

Demak to'liq parchalanishda



x 38x 1280kJ

To'liqsiz parchalanishda



y 2y 120kJ

Masalan shartida hosil bo'lgan ATF lar soni 118 ta berilgan. Biz ikkala bosqichda hosil bo'lgan ATF larni qo'shsak 118 ga teng bo'lishi kerak.

$$38x + 2y = 118 \text{ ta}$$

Shu jarayonda hosil bo'lgan issiqlik sifatida ajralgan energiyaning miqdori esa 8800 kJni tashkil etadi yani biz ikki bosqichda hosil bo'lgan energiyani qo'shganimizda 8800 kJ bo'lishi kerak.

$$2800x + 200y = 8800 \text{ kJ}$$

Biz x va y qiymatini topish uchun bu ikki tenglamani birlashtiramiz va sistema tuzamiz.

$$38x + 2y = 118 \text{ ta}$$

$$2800x + 200y = 8800 \text{ kJ}$$

Tenglamada x yoki y ni yo'qotishimiz kerak. Buning ikkla sistemadagi sonlarni bir xil songa keltirib olamiz. y ni yo'qotish uchun yuqoridagi tenglamani 100 ga ko'paytiramiz. Natijada y 200 ga teng bo'ladi.

Yuqoridagi va pastdagi tenglamadagi y bir xil bo'lgani uchun ular qisqarib ketadi. Natijada tenglamada faqt x qoladi. So'ngra x ni qiymati topiladi.

$$38x + 2y = 118 \quad x = 100 \quad 3800x + 200y = 11800$$

$$2800x + 200y = 8800 \quad 2800x + 200y = 8800$$

200 y lar qisqarib ketadi. Qolgan ikkita tenglamadagi x lar ning kattasidan kichigini ayramiz.

$$3800 \times - 2800 \times = 1000 \times$$

Demak sistemada 1000  $\times$  qoldi.

$$11800 - 8800 = 3000$$

Aniq sonlar esa 3000 qoldi.

Endi bir  $\times$  ni qiymatini topish uchun aniq sonni  $\times$  ni oldidagi songa bo'lsak  $\times$  ni qiymati chiqadi.

$$\times = 3000 : 1000$$

$$\times = 3$$

$\times$  ni qiymati aniq bo'lgandan so'ng biz  $y$  ni ham topib olsak bo'ladi. Buning uchun biz  $x$  orqali glyukozaning to'liq parchalangan moleklarlar sonini bilib oldik ya'nini 3 molekula glyukoza to'liq parchalangan.

$$3 \cdot 38 = 114 \text{ ta}$$

Demak glyukoza to'liq parchalanganda 114 ta ATF hosil bo'lgan. Demak qolgan 4 tasi to'liqsiz parchalanishga uchragan. Bu ikki molekula glyukozadir. Natijada 3 molekula glyukoza to'liq parchalangan 2 molekula esa to'liqsiz parchalangan


$$5 \text{ --- } 40\%$$

$$3 \text{ --- } x = 60\%$$

**Javob:** 60 %

44.2160g glyukoza hosil bo'lishida qancha (kJ) ATF energiyasi sarflanishini hisoblab toping?

*Yechilishi:* Mazkur masalani yecimini topish uchun quyidagi reaksiya saos boladi.



Shunday qilib quyoshning yorug'lik energiyasi organik modda (glyukoza) ning kimyoviy bog'lar energiyasiga aylanadi.

1 mol  $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$  - 180 g ni tashkil etishini hisobga olib quyidagi amallarni bajaramiz.

1) 1 mol  $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$  - 180 g - 18 ATF ishtirok etadi va 1 ta ATF - 1 ta ADF ga aylansa 40 kJ energiyani beradi.

2) 2160 g : 180 g = 12 mol gluukoza borligi aniqlandi. Shunga ko'ra:

3) 12 mol gluukoza parchalanganda necha molekula ATF sarflanishini aniqlaymiz.

12 mol · 18 ATF = 216 ta ATF parchalanadi.

4) 2160 g glyukoza hosil bo'lishi uchun qancha (kJ) ATF energiyasi sarflanishini hisoblab toppish mumkin.

$$216 \text{ ta ATF} + 40 \text{ kJ} = 8640 \text{ kJ energiya sarflanadi.}$$

**Javob:** 2160 g glyukoza hosil bo'lishi uchun 8640 kJ energiya sarflanadi.

45. Suv molekulasi 72 molekula  $\text{CO}_2$  biriktirish jarayonida necha gramm glyukoza hosil bo'lishini hisoblang?

Yechilishi: Mazkur masalani yecimini topish uchun quyidagi reaksiya asos bo'ladi.



Ya'ni 6 molekula karbonat angidrit ( $\text{CO}_2$ ) dan 180 g glyukoza ( $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$ ) hosil bo'lsa, 72 molekula karbonat angidrit ( $\text{CO}_2$ ) dan qancha glyukoza  $\text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6$  hosil bo'lishi aniqlanadi.

$$\frac{72 \cdot 180}{6} = 2160 \text{ g}$$

**Javob:** Suv molekulasi 72 molekula  $\text{CO}_2$  biriktirish jarayonida 2160 gramm glyukoza hosil bo'lar ekan.

46. Hayvon hujayrasida 10070 molekula ATF sintezlandi. Shundan necha molekula ATF sitoplazmada anaerob sharoitda sintezlangan?

Yechilishi: Masalani javobini topish uchun quyidagi amallar bajariladi.

10070 molekula ATF — 38 molekula ATF ga to'g'ri kelsa,

x molekula ATF — 36 molekula ATF

$x = 9540$  molekula ATF kislородли parchalanganda:

2) Kislородли parchalanishdan hosil bo'lgan ATF ni aniqlab olgandan so'ng anaerob sharoitda sintezlangan ATF miqdorini topamiz.

$10070 - 9540 = 530$  molekula ATF kislорodsiz parchalanishda hosil bo'ladi.

**Javob:** 530 molekula ATF sitoplazmada anaerob sharoitda sintezlangan

47. Glyukoza to'liq parchalanganda 8960 kJ issiqlik energiyasi ajraldi. Shu glyukoza o'simlik hujayrasida achiganda qancha ATF hosil bo'ladi.

1 — 1280 kJ

x — 8960 kJ

$x = 7$  ta

$$7 \cdot 2 = 14 \text{ ta}$$

**Javob:** 14 ta ATF hosil bo'ladi.

48. 8 mol glyukoza parchalandi. Shundan ikki moli to'liq parchalandi. Jami qancha ATF hosil bo'ldi.

*Yechilishi:*

$$2 \cdot 38 = 76 \text{ ta ATF}$$

$$6 \text{ molekula glyukoza to'liqsiz parchalangan}$$

$$6 \cdot 2 = 12 \text{ ta}$$

$$12 + 38 = 88 \text{ ta}$$

**Javob:** 88 ta ATF hosil bo'ladi

49. Shug'ullanmagan yuragi kuchsiz odam yugurgan vaqtida muskullarda hosil bo'lgan sut kislotasini yarmini parchalash uchun olgan kislороди yetadimi? Tushuntiringchi.

a) 25 minut davomida o'rtacha tezlikda yugurganda muskullarda to'plangan glyukoza va sut kislotasida qanday o'zgarish ketadi;

b) bu nimaga olib keladi?

**Javob:** a) 1 mol glyukoza kislородсиз muhitda parchalansa kislородли muhitga nisbatan 19 marta kam ATF hosil qiladi, kislород yetishmaganda ko'proq glyukoza sarf bo'ladi. Natijada glyukoza yetishmasligi muskul hujayralarida ATF va sut kislotasini parchalanmasligi kuzatildadi, b) energiya yetishmasligi va charchoq kuzatiladi.

### Mustaqil yechish uchun masala va mashqlar

1.3-bosqichda 1160 kj issiqlik energiyasi hosil bo'lgan bo'lsa, 3- bosqichda ATF miqdorini aniqlang?

2.3-bosqichda 1160 kj issiqlik energiyasi hosil bo'lgan bo'lsa, xloroplastlarda sintezlangan ATF da to'plangan energiya miqdori (kJ)ni aniqlang?

3.3-bosqichda 1160 kj issiqlik energiyasi hosil bo'lgan bo'lsa, xloroplastlarda sintezlangan ATF miqdori ni aniqlang?

4.3-bosqichda 1160 kj issiqlik energiyasi hosil bo'lgan bo'lsa, 2- bosqichda ATF miqdorini aniqlang?

5. Dissimilyatsiyaga 15 molekula glyukoza uchrangan. Glikoliz va energetik almashinuvdan so'ng hosil bo'lgan ATF miqdori va dissimilyatsiya jarayonida hosil bo'lgan energiya miqdorini toping.

6.Dissimilyatsiya jarayonida 2.5 molekula glyukoza to‘liq parchalandi. Sintezlangan ATF va hosil bo‘lgan karbonat angidrid gazini miqdorini toping.

7.660g glyukoza sintezlanishi uchun sarflanadigan ATF energiyasini miqdorini toping.

8.Dissimilyatsiya jarayonida 7 mol glyukoza parchalangan. Agar 2 mol glyukoza to‘liq parchalangan bo‘lsa, qancha ATF sintezlangan bo‘ladi?

9.To‘rt molekula sut kislotasini aerob sharoitda parchalanishidan qancha energiya hosil bo‘ladi va bu energiyaning necha foizi issiqlik tarzida tarqalib ketadi?

10.Dissimilyatsiya jarayoni natijasida bir necha molekula glyukoza to‘liq parchalanadi. Bu jarayonda 95 molekula ADF sarflanadi. Nеча molekula CO<sub>2</sub> hosil bo‘lishini aniqlang.

11.Energetik almashinuvning aerob va anaerob bosqichlarida hosil bo‘ladigan energiyaning necha foizi ATF molekulasiida bog‘lanadi ?

12. Maktab o‘quvchisi bir kecha kunduzgi ovqati tarkibida 480g uglevod, 120g oqsil, 100g yog‘, va 5-6 g osh ste’mol qilishi kerak. Agar u rejim qoidasining quyi foiziga amal qilib iste’mol qilgan bo‘lsa, tushki ovqatidan ajraladigan energiya miqdorini kkal da hisoblab toping.

13. Maktab o‘quvchisi bir kecha kunduzgi ovqati tarkibida 480g uglevod, 120g oqsil, 100g yog‘, va 5-6 g osh ste’mol qilishi kerak. Agar u rejim qoidasining quyi foiziga amal qilib iste’mol qilgan bo‘lsa, kechki ovqatidan ajraladigan energiya miqdorini kkal da hisoblab toping.

14.Energiya almashinuvining uch bosqichida ajralgan energiyaning jami miqdori 156800 kJ ni tashkil etgan bo‘lsa, energiya almasinuvining anaerob (a), aerob (b) bosqichlarida ajralgan energiyaning miqdorini (kJ) hisoblab toping?

15.Dissimilyatsiya jarayoni natijasida 13molekula glyukoza parchalanishga uchradi, Shundan faqat 5mol glyukoza to‘liq parchalanishga uchragan.

aniqlangchi:

A) Nеча molekula sut kislotasi hosil bo‘lgan?

B) Buning natajasida necha molekula ATF hosil bo‘lgan?

V) Qancha energiya hosil bo‘lgan (akkumulirlangan)?

G) Necha mol CO<sub>2</sub> hosil bo'lgan?

D) Necha mol O<sub>2</sub> sarflangan?

16.Energiya almasinuvining 2-bosqichida glukoza to'liq va to'liqsiz parchalandi. Bunda hosil bo'lgan ATFlar sonining boshlang'ich glukoza molekulalari soniga nisbati 1:26 bo'lsa, hosil bo'lgan umumiy energiyaning necha foizi issiqlik sifatida ajralgan?

17.Energiya almasinuvining 2-bosqichida glukoza to'liq va to'liqsiz parchalandi. Bunda hosil bo'lgan ATFlar sonining boshlang'ich glukoza molekulalari soniga nisbati 1:26 bo'lsa, hosil bo'lgan umumiy energiyaning necha foizi issiqlik sifatida ajralgan?

18.Energiya almashinuvi jarayonid 4970 kJ iissiqlik energisi ajralib chiqdi. Bunda glyukoza to'liq va noto'liq parchalanishi natijasida 7 molekula sut kislota va 140 ATF molekulasi hosil bo'lgan bo'lsa, energiya almashinuvini dastlabki bosqichida ajralib chiqqan issiqlik energiyasi umumiy energiyaning necha foizini tashkil etadi?

19.Glikolizga ikki molekula glyukoza uchragan undan faqat bir molekulasi kislородли parchalanishga uchragan. Ajralib chiqqan karbonat angidrid gazini va hosil bo'lgan ATf miqdorini aniqlang.

20.Glikolizga to'rt molekula glyukoza uchragan undan faqat ikki molekulasi kislородли parchalanishga uchragan. Bunga sarf bo'lgan kislород miqdori va to'plangan pirouzum kislotani miqdorini topping.

21.Glikolizga uch molekula glyukoza uchragan. Hujayrada necha molekula pirouzum kislota, suv molekulasi, karbonat angidrid, ATF hosil bo'lgan va qancha miqdor kislород sarf bo'lgan.

22.Energiya almashinuvi jarayonida hujayrada 4 molekula pirouzum kislota to'plangan va 12 molekula CO<sub>2</sub> gazi ajralib chiqqan. Necha molekula glyukoza glikolizga va undan qanchasi kislородли parchalanishga uchragan.

